

Ikkinchi qism - Diydor Yo'li

Ikkinchi bob - Umid yulduzi

1

Lord Chelmsford Vaziristondan kelgan xabardan butunlay gangib qoldi. O'tgan kuni shimoli-g'arb chegara viloyatidan olingan noma qabila boshliqlarini hech qanday pulga sotib olish mumkin emasligini bildirgan edi. "Bu - Shimoliy Hindistondagi ahvol chatoq, degan gap, - deb o'yladi Chelmsford. - Bosh shtabning bugungi axboroti esa Kobulning hali-beri taslim bo'lmasligini aniq qilib qo'ydi. General Nodirxonning qo'shini o'tgan haftada Sulaymontog'da g'oyib bo'lgan edi. Tal shahri ostonasida qo'qqis chiqib qolgani nimasi? Yana zambaraklari bilan! Bosh shtabning xabariga ishonsam, afg'onlar xaritada belgilanmagan yo'llar bilan kelishgan. Bu qanaqasi?! Xaritada belgilanmagan yo'llar yana bordir balki. Ularning biri Simlaga - Bosh shtabga olib kelmaydimi? Yana biri Dehliga boshlar..."

Chelmsford bosh shtabdan kelgan nomani yirtib tashladi. Qo'ng'iroq tugmasini bosib, Gamilton Grantni chaqirtirdi.

O'n yettinchi yilning adog'ida Chelmsford Londondan telegramma olgan edi: "Biz bolsheviklarning g'oyat xavfli varaqasidan xabar topdik. Rus hukumatining Rossiya va Sharq musulmonlariga, ayniqsa, Eron va Hindiston xalqlariga murojaati bizni xavotirga soldi. U mumkin qadar uzoq vaqt qo'l ostimizdagi xalqlar uchun sir tutulmog'i shart". Oradan ko'p o'tmay noib-qirol o'sha "g'oyat xavfli varaqa" bilan ham tanishdi: "Endi jim turmoq mumkin emas. Vaqtini boy bermay, mutelik zanjiridan qutulingiz, mustabidlarni mahv etingiz. Tabarruk tuproqlaringizning zolimlar oyog'i ostida toptalishiga yo'l qo'ymangiz! O'z yurtigingizga o'zingiz egalik qilingiz! O'z xohishingizga ko'ra hayot kechirishga haqqingiz bor. Taqdiringiz o'z qo'lingizda!.."

Lord Chelmsford hozir shuni esladi. Aniqrog'i, bu xavfli chaqiriqlarni hali unutganicha yo'q. Hindistonning qaerida g'alayon ko'tarilsa bot-bot eslaydi. Mayda g'alayonlar tobora yiriklashib, mana endi subsidiyaga qanoat qilayotgan "chivinday mamlakat" katta g'avg'olar boshladi. Bu oxir-oqibat Chelmsfordni Hindistonda qolish yo qolmasligiga ta'sir o'tkazmasa edi. "Qay masalani hal etishda yanglishdim? Habibulloxonni o'ldirilishidami? Bolsheviklarning varaqalari bu yerga qanday yetib keldi?"

Chelmsford notinchlik boisini xalqning to'lib-toshgan sabr-kosasidan izlamasa edi. Zero, ezilgan fuqaroning dardi unga begona, mazlumning nolasi esa tushunksiz edi. Shuning uchun ham u vaziyatga to'g'ri baho berish qudratidan mahrum edi.

Gamilton Grant kirib kelganda ham u hali xayollar domida edi.

- Oradan oy o'tyapti, - dedi noib-qirol, unga bir qarab olib. - Bir haftalik urush deb ishontirgan edinglar.

Gamiltonning tili gapga kelmay, yelka qisdi.

- General Yustesning holi tang. Talni ushlab qololmaydiganga o'xshaydi.

- To'xtatish kerak.

- Kimni, afg'onlarnimi? - dedi Chelmsford ovozi bilan balandlatib.

- Urushni... urushni to'xtatish kerak.

Chelmsford odamni tahlikaga solishi mumkin bo'lgan o'tkir nigohini Gamiltonga qadadi.

- Keyin-chi?

- Afg'onlarning o'ylab ko'rishiga fursat beramiz. Bizning yordamimizsiz ular uzoqqa borisholmaydi.

- Rossiyaning yordami-chi?

- Rossiya yordam berish qudratiga ega bo'lguncha mamlakatning sillasi quriydi. Omonulloxon tavbasiga tayanadi. Shu urushning o'ziyoq uni nochor ahvolga solib qo'ydi. Ma'lumotlarga qaraganda saroydagi ayrim qimmatbaho mollar sotilgan. Ruhoniylar urushdan norozi. Bu katta gap. Buxoro amiri bu tentak Omonulloxonga ta'sirini o'tkaza oladi, deb o'ylayman. Buxoro Qizil Turkistonga urush ochishi bilan Afg'oniston o'z-o'zidan jihodga qo'shiladi. Turkiston yerlari hisobiga mulkni kengaytirishdan qaytadigan amir hali dunyoga kelmagan. Hatto Habibulloxon ham shunaqa umidda edi.

- Yanglishmasam, Habibulloxonning Hindistonga ham ishtahasi bor edi, a?

- Habibulloxon ahmoq, xomxayol edi.

- Gamilton, bas qiling, - dedi Chelmsford jahl bilan, - bu safсата, bu xom rejalarga hatto o'zingiz ham ishonmaysiz. Toshkentdan yangilik bormi?

- Bor, ser. Omonulloxonning elchilari Toshkentda to'xtab qolganlar. Toshkent - Moskva yo'li berk... Lekin... Moskva Leninning Omonulloxonga javob maktubini ochiq matn bilan Toshkentga bergan. Kobulga qanday yetkazilishi sir.

- Ruslarning elchisi-chi?

- Yo'lga chiqishgan. Elchi - Xmarin. Eronda bir tasodif bilan omon qolgan edi.

- Ana, ko'rdingizmi? Eronda tasodif bilan omon qolgan. Bir tasodif bilan yo'lga chiqdi. Yana bir tasodif bilan Kobulga yetib keladi. Keyin qarabsizki, diplomatik aloqa o'rnatilib, shartnomalar imzolaniy turibdi!

- Ser, ular hali Kobulga yetib kelishgani yo'q. Biz hammasini aniq rejalashtirganmiz.

- Gamilton, ular chegaradan o'tgan kuni bu yerdan qorangiz o'chadi.

Gamilton bosh egdi.

- Xotirjam bo'ling, ser, biz hali siz bilan birga ko'p ishlaymiz.

Chelmsford uning bu surbetligidan g'ashi kelib, "boring", deganday qo'l siltadi. Gamilton yengil ta'zim qilib chiqib ketdi.

O'sha kuni Chelmsford Bosh shtabga buyruq jo'natdi. Bir oy davom etgan urush Buyuk Britaniya uchun samarasiz barham topdi.

2

Tashvishni botmonlab bergan, fursati kelganda shodlikni ham qo'sha-qo'sha berarkan.

Bir oy mobaynida yurti bosib turgan rutubat ko'tarilib, hech kutilmaganda quyosh ko'rindi.

Bomdoddan so'ng boqqa chiqqan Omonulloxonning ko'ngli ravshan tortdi. Nazarida Kobulda hech mahal bugungiday beozor tong otmagan edi. Osmon tiniqligi shu bugungiday bokira, qushlar chug'uri shu bugungiday serjarang, barglar shiviri shu bugungiday huzurbaxsh bo'lmagan edi. Bu tong unga uzoq xastalikdan forig' bo'lib, ko'zi charaqlab ochilgan kishi quvonchini nasib etdi.

Avval sardor Nodirxonning sarhadni kechib o'tib, inglislarni g'afatda bosgani haqidagi xabardan ko'ngli yoz bo'ldi. Otasining o'limida uning ham aybi muqarrar deb bir necha kun hibsdan ushlab turganiga, sardor salorlik unvonidan mahrum qilganiga pushaymon yedi. Vaqtida insof berib, sardorni ozod etgani, unga qanot qo'shinni ishonib topshirganidan bir nav quvonib, Xalloqi olamga shukrlar aytdi. Kecha oqshom esa barqi ibtilo1 barham topgani, inglislar muhoribani bas qilgani haqidagi xushxabar bag'ri-dilini yoritib yubordi. Qorong'ilik elchisi bo'lmish oqshom yurtning quyoshli kunlari boshlangani haqida xabar keltirdi.

"Jannatmakon padarim to so'nggi nafasiga qadar jur'at qilolmadi. Hazor-hazor lashkari bo'lgani bilan inglising ahvoli bu ekan.

Bir oylik zarbamizdan hayiqdi. Buyuk Afg'onistonning ozodligiga endi kim shak keltira oladi? Hech kim!" Amir xayoliga kelgan bu gapdan kulimsirab qo'ydi.

Orqa tomonda oyoq sharpasi kelib, amir shart o'girildi.

- Amir sohib, xushxabar oldik, - dedi Tarzi unga yaqinlashib.

- Lashkarimiz Simlaga yetibdimi? - dedi amir hazil ohangida.

- Bundan ham a'lo xushxabar, amir sohib. O'rusiya poytaxtidan javobnoma yetib keldi. - Tarzi shunday deb qo'lidagi qog'ozni uzatdi.

- O'qing, - dedi amir nomani qo'liga olmay.

Tarzi burniga ko'zoynagini qo'ndirib, o'qishga tutindi:

"Afg'oniston amiri amir Omonulloxonga.

Ozod va mustaqil afg'on millati nomidan rus xalqiga salom yo'llab yozilgan hamda siz, hazrat oliylarining taxtga o'tirganingiz xabar qilingan ilk maktubni olib, ishchi-dehqon hukumati va butun rus xalqi nomidan o'z ozodligini xorijiy mustabidlardan qahramonona himoya etgan mustaqil afg'on xalqiga shoshilinch javob salomini yo'llaymiz. Siz, hazrat oliylarini, 1919 yil 21 fevralda taxtga o'tiruvingiz munosabati ila muborakbod etamiz...

... Mazkur salomnomani afg'on xalqiga yo'llar ekanmiz, o'zimizni behad baxtli hisoblab, siz hazrat oliylaridan xalqingiz do'stlarining do'stona ta'zimini qabul qilishingizni so'raymiz.

Moskva shahrida 1919 yilning 27 may kuni yozildi".

Tarzi qog'ozdan ko'zini olib, amirga qaradi. Omonulloxonning nigohi uzoqqa, poytaxt etagi borib tutashgan ufqda edi. U eshitganlarini bir-bir xayolida takrorlab, mushohadaga berildi. Tarzi undan sado chiqishini ancha kutdi.

- Sho'ravi Rusi bizga bag'rini samimiy tarzda ochgani rost bo'lsa, endi bu yurt orqali Ovruponing barcha yerlariga boruvimiz mumkin. Mustaqil Afg'oniston yo'llari ochildi.

Amir Rossiyaning g'arbidagi davlatlar bilan hali-beri til topisha olmasligini hozir, shu topda xayoliga keltira olmas edi. Uning fikricha, Afg'onistonning yagona dushmani - Ingliston, qolgan mamlakatlar esa ular bilan bajonidil do'st tutinadilar. Omonulloxon achchiq haqiqat bilan keyinroq, yil oyoqlaganda, RSFSR Tashqi ishlar xalq noziri Chicherindan noma olib, g'arbdagi mamlakatlar Muhammad Valixonning safariga monelik bildirganlaridan xabar topganida yuzma-yuz keladi. Hozir esa bu noxushliklardan ancha berida, dastlabki quvonchli xabar og'ushida nekbin rejalar tuzadi.

- Xushxabar faqat shugina emas, amir sohib. Chopara muxtor vazirimizning Toshkentga yetganini ham xabar qildi. Toshkentda Kobulga qarab Sho'ravi Rusi vakolasining yo'lga chiqishiga harakat bor emish.

- Nur alan-nur. Shimoldagi noiblarga farmon jo'nating, saforat ishlari bilan kelmish Sho'ravi Rusi a'yonlariga afg'on xalqining eng aziz mehmonlari qatorida izzat ko'rsatilsin. Ziyon-zahmatsiz yetib keluvlari uchun javobgardir ular.

Amir bir-ikki qadam yurib, yana to'xtadi.

- Padarim O'rusiyaning niyatini bilmoq istagida edi, - dedi o'ychan ohangda. - Arqonni uzun tashladi, behad uzun tashlab yubordi. Bu faqat Inglistonga naf berdi, katta naf berdi. Endi nadomatdan ne foyda? Kamolni o'ylamoq vaqti yetdi. Endi tijorat ishlarini yo'lga qo'yimoqni mulohaza qilish darkor. Ovrupo bilan bo'lajak tijorat ishlarini afg'on savdogarlari qo'liga bermoq lozim. Ibriylar, tojiklar, o'zbeklar tijoratda afg'onlarni siqib qo'yishlari barham topmog'i shart. Afg'on tijorat ahli bunga qodirmi?

- Shak-shubhasiz, "Semmar" tijorat jamiyati - qand, quruq meva bo'yicha, "Omonie" - teri, "Birodaroni afg'on" attorlik, gazmol bo'yicha mustaqil ish yuritishlari mumkin.

- Bu kifoya emas. Bu bahr yuziga tomgan shabnam, xolos. Yaxshi qo'shniga ega bo'lgan yurt bunga kifoya qila olmaydi.

Amir shunday deb bog'dan chiqdi. Ikkinchi qavatga ko'tarilib, mukammal bejalgan serbar xonasiga kirdi-da, yumshoq o'rindiqqa o'tirib, qaynotasiga yonidan joy ko'rsatdi.

- Olloh ko'nglimga yaxshi niyat soldi, - dedi.

- Muborak bo'lsin, - dedi Tarzi.

- Mustaqilligimiz hamda muhoribadagi g'alabamiz sharafiga yangi dorulsaltanat bino qilamiz. Unga... Dorul Omon deb nom beramiz. Bu istagimizni "Siroj ul axbor"ingiz orqali fuqaroga yetkazing. Darvoqe, - amir kursi ustidagi gazetani qo'liga oldi, - qo'shiqlar beribsiz, o'zingiz yozganmisiz?

Amir javob kutmay o'qidi:

Inglislar uylarimiz xonavayron ayladi,

Yulduz misol tillo sohib, tangu sarson ayladi.

Niyati qul qilmoq erdi, bizni hayron ayladi,

Qon qusgan yurt bo'ldi do'zax, ani makon ayladi.

- Durust aytilgan. Do'zaxni makon aylaganlari rost.

- Amir sohib, bu qo'shiq fuqaro og'zida yuribdi, men to'qiganim yo'q. Sho'rbozorda eshitib, yozib olib, menga keltirdilar.

- Donor odam to'qibdi. Nomi ma'lum bo'lganda zarga o'rar edim.

- Bu qo'shiq qalbning mahsuli. Bu qalb zarga emas, ozodlikka muhtoj edi, yetishdi. Unga bundan ulug' mukofot darkor emas.

- Sho'rbozorda shunday qo'shiqlar aytilar ekan, yurt osoyishtaligidan ko'nglim to'q, - dedi amir shodligini yashirmay.

- Ko'ngilto'qlikka hali fursat bor. Qo'shiqlarni eshitmay, deb quloqlarini berkitib oladiganlar hisobsiz hali.

- Biz bu quloqlarga qo'rg'oshin quyamiz. Bunga qudratimiz yetadi, ha!

3

Bismillahir Rohmanir Rohiyim.

Musulmon ahlining umidi, dinimiz peshvosi, piri rohimiz, umrlari uzun bo'lgan Tur piramandu donishimizga.

Ollohning inoyati ila yetib ma'lum bo'lsinkim, Toshkanddin pok niyat ila yo'lga chiqqan Hon Mirkomil hoji Buxoroi Sharifga ziyon-zahmatsiz yetib keldilar. Mirkomil hoji Buxoro amiri Said Olimxon birlan uzoq suhbat qurib, musulmonlarning jihodi akbarga Bha ko'tariluvda Buxoroi Sharif ila Afg'oniston zimmasiga Olloh oliy sharaf yukini tashlaganini aytub ishontirdilar. Buxoro amiri Said Olimxon amir hazratning Afg'oniston amiriga murojaati, yovgarchilikni bas qilub, Ingliston ila yarashmoq, Inglistondan yordam pullarini olmoq va shuning muvoziysida yov-yaroqlarga ega bo'lmoqni taklif etib yozgan nomai muboraklari chopar ila yo'lga chiqdi. Buxoroi Sharifga Inglistonning yov-yaroqlari va oltimish dono a'yoni yetub keldi. Ular jihodi akbarimizda o'z ulushlarini qo'shish nitini bildirdilar. Shu bois Afg'onistonning Inglistonga qarshi yaroq B ko'tarmog B nojoizdur va amirning

bunga amin bo'luviga sizning donish so'zlaringiz lozimdur.

Kuni kecha qulogʻ b'imizga yetib kelgan xabar Toshkanddan sho'ro vakolasi yo'lga chiqqanini ma'lum qildi. Oллоh ularning safarlarini barvaqt qaritgay. Agar tasodif bo'lib, shaytonu lain ko'magida qo'limizdan chiqub, Kobulga yetishishsa, Pandin viloyati, Ko'shk, Karki, Tirmiz qal'alarini iltimos qilmoq kerak. Bu holda O'rusiya vakolasi kelishuvdan chekinadi. Bizga faqat fursat lozim. Omonulloxon O'rusiyaning do'st bo'lmasligiga inongach, jihodi akbar fursati yetadi. Mazkur rejadan xabar topgan-topmaganingiz kaminaga noma'lum bo'lgani uchun yana qisqa bayon etmoqni lozim topdim. Mirkomil hoji bu sahar Karki sari yo'lga chiqadilar. Mazori Sharifda bul zot Hasanaxon hazrat bilan eson-omon ko'rishib, so'ng safarlarini birgalikda davom ettiradilar. Bul ikki e'tiborli zotning amir Omonulloxon ila muzokara yurituviga o'zingiz ko'mak bergaysiz.

Duoyi bilonihoya va salomi mushtaqona addoyi muxlisingiz.

Qodir og'a hazrat ko'zlarini yumdi. "Bu qanday balolig' bo'ldi? Inglistondek ulug' qudrat muhoribani nechun bas qildi. Yarashni Omonulloxon taklif etmagi o'rniga, ular past keldilar. Omonulloxonni endi tizginlab bo'lar ekanmi? O'rusiya vakolasi Kobulga yetib kelgan taqdirda bu shakkok zinhor-bazinhor jihodga ko'tarilmaydi..."

Qodir og'a hazrat xayoliga kelgan bu fikrdan o'zi ham seskanib ketdi. Beixtiyor qarsak chaldi. Eshik og'zida o'spirin ko'rindi.

- Davot-qalam keltir, - dedi hazrat.

O'spirin aytilganni muhayyo qilib chiqib ketgach, hazrat xat bita boshladi:

"Bismillohir ar-rahmonir ar-rohiym..."

Mazori Sharifning noibi Vazir Adali hazrat noibga duoyi salom.

Ulug' Afg'onistonimizning aziz boshiga yog'ilayotgan kulfatlar, yog'ilajak musibatlar munosabati ila sizga murojaat qilmakni lozim topdim. Omonulloxonning taxtga o'tiruvdan norizo ekaningizdan benihoya quvondim, bu shijoatingiz va donoligingiz evaziga Oллоhning marhamatiga erishgaysiz. Omonulloxonning aldangan sarbozlar qudrati ila taxtga erishgani Yaratganga maqbul kelmaydi. Halloq o'ziga maqbul mo'minga lozim ko'radi taxtni. Shukrkim, yurtning asl amiri Nasrulloxon, amirzoda Inoyatulloxon sihatiga ziyon-zahmat yetmadi. Ularning joni saqlab qolingan ekan, taxtning ham qaytarib beriluv muqarrardir. Taxt ularga ravo ko'rilmagan taqdirda, sizdek musulmonsheva va xiradpeshalar borki, yurt amirsiz qolmas.

Alqissa, xudodot yurtimiz taqdiriga kuyinmoq vaqti yetdi. Inglistonning muhoribani bas qilg'oni yurtga kamol bermas, bil'aks, musibatlarga ro'baru qilar. Shul bois, Omonulloxon Ingliston hukumatiga uzrnoma bitishi joizdirki, uning bunday qiluviga ishonchim yo'q. Amir O'rusiya ila do'stlashmoqda, alar ko'magiga umidvor. Bu umid iplarini qirqa olsak, Ingliston marhamatiga erishamiz, bu demak, Turkiston yerlari hisobiga Afg'oniston mulki kengayib, qudratiga qudrat qo'shilgusi, Amir nomasining Mazori Sharif orqali Tirmizga yetkazuvlari sizdan o'tgan xatolikdir. Siz bunga yo'l bermasligingiz lozim edi. Menga yetib kelgan axbor O'rusiya elchilarining yo'lga hozirlanayotganlarini ma'lum qildi. Vakola zinhor Mazori Sharifga kirmasligi darkor. O'rusiya vakolasidan ilgari tuprog'imizga Toshkanddin tabarruk zot qadam qo'yadi. Sizning qanotingizdagi yana bir oliy zot hamrohligida u Mazori Sharifda uzoq qolmay, shoshqich Kobulga yetib keluvi shart. Sizning xizmatigiz, Yaratganning inoyati ila, inshoolloh, shunday bo'lajak.

Shuning bilan birgalikda, ishonchli mulozimlaringizni daryoning u qirg'og'iga jo'nating, ular O'rusiyaning zulmi, Afg'onistonning muruvvati haqida gap yoysinlar. Avomni bunga ishontira olsak, u yerlarni Afg'oniston mulkiga qo'shmoq oson kechadi.

Siz bilan xudodot yurtimizning omonli kunlarida diydor ko'rishmak nasib etishini Oллоhdan iltijo etib, duoyi joningiz qilib qoluvchi piringiz..."

Qodir og'a hazrat nomani yana bir qayta o'qib, ko'ngli xotirjam topgach, qarsak chaldi.

- Akangni chaqir, - dedi u, ostona hatlab ta'zim qilgan o'spiringa.

Bir zumdan so'ng qoruvli yigit kirib keldi.

- Qalandarlar bilan safarga o'tlan. Mana bu nomani Mazori Sharifga tezlikda yetkaz. Boshing ketsa ketsin, nomaga o'zgalar nazari tushmasin.

Uchinchi bob - tahlikali kunlar

1

Asadullaning ham, Shuvalovning ham tundlashib qolganini Ushinskiy sezdi. Asadullaga bir-ikki savol berib, tayinli javob ololmagach, toqati toq bo'ldi. Chorjo'yga yetishgach, Shuvalovning: "Yuklarni tushirmay turinglar", degan gapini eshitib, sabri chidamadi.

- O'rtoq Shuvalov, nima gapligini balki bizga tushuntirib berarsiz? - dedi u istehzo bilan.

- Tushuntirib beraman, Veniamin Samoylovich, elchi bilan maslahatlashib olay-chi?

- Elchi bilan birgalikda maslahatlashamiz.

Shuvalov: "Bu qanaqasi?" - degan savol nazari bilan Asadullaga qaradi.

- Paysalga solmaylik, - dedi Asadulla, - tezdin bir fikrga kelib olishimiz kerak.

Uchovlari oldinma-keyin Xmarinning kupesiga kirdilar. Kiyimlarini jomadonga joylayotgan elchi bundan hayron bo'ldi.

- Nikolay Zaxarovich, - dedi Shuvalov, - safarni qaysi yo'l bilan davom ettirishni o'ylab olishimiz kerak.

- Nimasini o'ylaymiz, yo'limiz aniq belgilangan. Bu yerda paroxodga o'tiramiz, keyin Karki...

- Nikolay Zaxarovich, men faqat harbiy maslahatchi emasman, balki shu safar xavfsizligini ta'minlashga ham javob beraman. Shu sababli belgilangan yo'lni o'zgartirishni taklif qilaman.

- Sabab? - dedi Xmarin ajablanib.

- Ha, sababini ayting, - dedi Ushinskiy oraga suqilib.

Shuvalov yo'l-yo'lakay mulohaza yuritib, orada g'ayri maqsadli odamlar borligini aytmaslikka qaror qilgan, bularning shunday savolni o'rta qo'yishlarini hisobga olib, javobni ham tayin qilib qo'ygan edi, shu sababli kalovlanib o'tirmadi:

- Biz Buxoro amiri yerlaridan o'tib borishimiz kerak. Bunga amirning ruxsatini olgan bo'lsak ham, yo'limiz xatarli. Kutilmagan hodisaga duch kelishimiz mumkin. Bizdagi ma'lumotlarga qaraganda, safarimizni to'xtatishga qaratilgan harakatlar mavjud. Ular bizni aynan shu Karki yo'lida kutishlari mumkin. Chunki, birinchidan, bu eng yaqin yo'l, ikkinchidan, yurar yo'limiz ularga ma'lum bo'lishi kerak.

- "Ular" deganingiz kim? - dedi Ushinskiy. - Said Olimxon odamlarimi?  
- Kimligini aniq aytolmayman.  
- Nimani taklif qilasisiz? - dedi Xmarin o'ylab tolib.  
- Mari, Ko'shk orqali Hirotga o'tish kerak. Bu yo'l uzoq, shuning uchun bizni kutishmaydi.  
- Safarimiz necha kun cho'ziladi shunda? - dedi Ushinskiy norozi ohangda. - Yo'q, o'rtoq Shuvalov, siz vahimachi ekansiz. Yo'lda pistirma bo'lsa nima? Quruq qo'l bilan ketayotganimiz yo'q-ku? Undan tashqari, "elchiga o'lim yo'q", degan gap bor.  
- Veniamin Samoylovich, hozir bunaqa qoidaga amal qiladigan zamon emas.  
- Bahslashmanglar. Men o'ylab ko'raman, - dedi Xmarin.  
- Bu nima deganingiz? - dedi Ushinskiy Xmaringa tikilib.  
- Tushunmadingizmi? O'ylab ko'rib, bir qarorga kelaman.  
- Yo'-o'q, azizim, bunaqa anarxiya ketmaydi. Birga o'ylab, birga qaror qilamiz.  
- Veniamin Samoylovich, men elchiman, demak, vakola hay'ati menga bo'ysunishi kerak, diplomatiya qonuni bu.  
- Bunaqa qonunlar imperator zamonasida qolib ketgan, bu boshqa zamon. Siz bizga, firqa guruhiga bo'ysunasiz.  
- Janoblar, uzr, grajdanlar, - dedi Xmarin tutaqib, - bu mutlaqo mumkin emas. Maslahatlaringizga albatta quloq solaman, ammo elchining yordamchilariga bo'ysunishi... Agar bolsheviklar menga ishonishmasa, izimga qaytishim mumkin.  
- Nikolay Zaxarovich, bu gapdan xafa bo'lmang, - dedi Asadulla, uni shahdidan tushirish maqsadida. - Biz diplomatiya ishlaridan bexabarmiz. Lekin ko'pchilik bilan bamaslahat bitadigan ish pishiroq bo'ladi. Bolsheviklar sizga ishonishmasa shunday muhim ishni yuklashmas edi. Biz hoziroq bir qarorga kelishimiz kerak. Vitaliy Sergeevich taklifini qabul qilsak, yuklarni tushirmasak. Men ham Hirot yo'lini ma'qullayman.  
Ko'pning maslahatiga bo'ysunish haqidagi gap Xmarinning hamiyatiga tegib, battar o'jarligi tutdi:  
- Gap bunday, azizlarim, anarxiyaga yo'l qo'yilmas ekan, unda avvaldan belgilangan yo'ldan boramiz.  
- Men ma'qullayman, - dedi Ushinskiy shoshilib.  
Shuvalov yo'lda pistirma bor-yo'qligini aniq bilmas edi. Shu sababli ularga qat'iy qarshilik ko'rsata olmadi. Yuklar tushirilib, vakola ixtiyoriga ajratilgan eski paroxodga ortildi. Shuvalov ehtiyot choralarini ko'rishga majbur bo'ldi. Chorjo'y qal'asidan qo'shimcha askar, o'q-dori, bitta zambarak, bitta pulemyot olib, kemaga barja ulatdi. Kema darg'asi bundan norozi bo'lib, to'ng'illadi:  
- Shu dumsiz ham besh kunda zo'rg'a yetamiz, oqimga qarshi suzish oson ekanmi?..  
Kun tikkaga kelganda, quyosh tig'iga chiday olmaganlar o'zlarini kayutalarga urdilar. Asadulla ham dastlab kayutada o'tirdi. Keyin nafasi qaytib, yuqori sahnga chiqdi. Kemaning tumshuq tomoniga o'tib, yo'g'on arqonga suyanganicha ayqirib oqayotgan loyqa suvga tikildi. "Qadimda Jayhun deganlaricha bor, tentak daryo - boshini qayga urishni bilmaydi..."  
Shu paytda daryo to'lqinlari uzra xotiralari qalqib-qalqib kela boshladi: "Hayotning o'yini ham Jayhun oqishiga o'xshaydi: visol sari oqdi, desang, bir buriladi-yu, ayriliq o'zaniga tushadi: quvonchga yo'l ochdi, desang, qayg'uga qarab boshlaydi. Endi hayotning nag'masi qanday bo'larkin?.. Hayot ostonada kutib turolmaydi. Shu daryo mavjiday bostirib kelaveradi. O'zingni o'nglab ololmasang, chilparchin qilib qirg'oqqa uloqtiradi-yu, yana olg'a ketaveradi. Hijron kishanlarini shu to'lqinlarga ura olgan odamgina omon qoladi. Men shunga qodirmanmi?.."  
- Asad Mira'lamovich, xayollaringizga sherik qilasisizmi?  
Asadulla nozli ovozdan o'ziga kelib, orqasiga qaradi: oq ko'ylak, keng soyabonli oq shlyapa kiyib olgan dilbar ayol, elchining kotibasi - Valentina Nikolaevna unga shirin jilmayib turardi. Asadulla uning yoniga keldi.

- Oftobdan qo'rqmaysizmi?  
- Bu oftoblar menga begona emas, bu yerlarda ko'p bo'lganman.  
- Yo'g'-e?  
- Ha, otamning Ishqobod'da, Marida ham zavodlari bor edi. Otam bilan ko'p kelganman.  
- Dadangiz?  
- Ha, dadam kapitalist edi, - ayol shunday deb kuldi. - Qo'rqmang, men kapitalist emasman. Dadam shunchaki injener edilar. Hozir Petrogradda tinchgina yashab yuribdilar. Siyosatga aralashmaydilar. Men ham siyosatdan uzoqdaman. She'riyatni sevaman. Siz shoir ekansiz, a?  
- Kim aytdi? Bekor gap. Shunchaki havasmanadlik bor.  
- E, yo'q, kamtarlik qilmang. Siz haqingizda Toshkentda yetarli ma'lumot to'plaganman.  
- Shunaqami, siyosatdan uzoqdaman, deysizu razvedkaga yaqin ekansiz-da?  
- Ayol xandon otib kulib yubordi. Asadullaning ko'zi uning oq yuzidagi kulgichga tushib, eti jimirlashdi. Valentina Nikolaevna Sinelnikova o'zining chiroyli ekanini ham, kulishi erkaklarga yoqishini ham bildirdi. Hozir Asadulladagi o'zgarishni ayollarga xos sezgirlik bilan payqadi. Payqadi-yu, odamovi tuyulgan bu erkakni ham iydira boshlaganidan o'zicha yayradi.  
- Siz ayollarni bilmas ekansiz, ayollarning hammasi erkaklar saltanatidagi razvedkachi. Kerakli erkak haqida har qanday ma'lumotni to'plashi mumkin.  
- Sizda yana kimlar haqida ma'lumot bor?  
- Hozircha faqat sizga tegishli ma'lumotga egaman, - Sinelnikova shunday deb nozli qarash qilib qo'ydi. Bundan Asadulla sergak tortib, jiddiylashdi. Undagi bu o'zgarish ham ayol nazaridan chetda qolmadi.  
- Siz Pushkinni sevasizmi? - dedi ayol gapni boshqa yoqqa burib.  
- Uni ko'p o'qiganman. Menga Krilov yoqadi, undan tarjimalar ham qilganman.  
- Pushkindan Krilovni afzal deb bilasisizmi? Qiziq...  
Gurjistonning dardlarin, go'zal,  
Kuylamagil chok etib dilni:  
U eslatar menga har mahal  
O'zga hayot, olis sohilni...



Sinelnikova ko'zlarini yarim yumib, she'r sehdidan mast bo'lib o'qirdi. She'r Asadullani ham o'ziga tortdi.

- Nahot shu she'rlardan Krilovni baland qo'ysangiz? - dedi ayol norozi ohangda.

- Baland qo'ymayman, lekin... xalqini g'aflat uyqusidan uyg'otmoqchi bo'lgan shoir ishqiylar bilan kun ko'rolmaydi. Buning uchun Krilovning she'rlari zarurroq.

- Unda o'zingiz ham shunaqa she'rlar yozarkansiz-da, a? - dedi Sinelnikova labini xiyol burib. - O'qib bering-chi...

- Pushkinning shaydosiga o'qiydigan emas-da.

- Noz qilmang, Asad Mira'lamovich, erkaklarga yarashmaydi.

Asadulla miyig'ida kulib, gapni hazilga olmoqchi bo'ldi:

Bizim Toshkand elida ancha loy ko'b,

Hisobni bilmagan bema'ni boy ko'b...

Sinelnikova kuldi, lekin boyagiday yayrab, xandon otib emas, ko'ngil uchungina kuldi.

- Hafsalangizni pir qildimmi? Aytdim-ku, shoir emasman, deb.

- Menga ishqiylar she'rlaringizdan o'qing.

- Ishqiylar?.. Bunaqasi yo'q menda.

- Qo'ysangiz-chi, sharq she'riyatida ishqiylar she'r yozmay bo'larkanmi, jononning bitta xoliga Samarqandu, Buxoroni berib yuborasizlar-ku?

- Duch kelganining xoliga emas, Valentina Nikolaevna, agar ko'ngilni rom etsa o'sha jonon...

- Nima, sizning ko'nglingizni hech kim rom etmaganmi?

- Rom etgan... Lekin mening ko'nglimda boshqa tashvish ham bor edi. Xalqimni jaholat uyqusidan uyg'otishga bor kuchimni sarflab, jononga Samarqandu Buxoroni berib yuborishni unutibman.

- Hazilni ham bilar ekansiz, a, dastlab ko'rganimda serjahl odamdarsiz, deb o'ylovdim.

- Xilvatda nimani sirlashyapsizlar?

Ikkovi ham ovoz kelgan tomonga baravar qarashdi. Asadulla Ushinskiyni ko'rib, ta'bi tirriq bo'ldi. Sinelnikova esa sir boy bermay jilmaydi.

- Veniamin Samoylovich, savolingiz bir hikoyatni esimga soldi, - dedi Asadulla ensasi qotganini yashirmay. - Bir bola qo'shning uyiga usti yopiq toboqda taom olib borayotgan ekan. Bir kishi uchrab: "E, o'g'lim, toboqda nima olib borursan? - debdi. Aqlli bola shunday javob beribdi: "Ey, otajon, toboq ichindagi narsani kishiga aytmoq va ko'rsatmoq darkor bo'lsa edi, usti o'ralmagan, ochiq bo'lar edi..." Xuddi shunga o'xshash, sirlashayotgan bo'lsak, savolingizga nima deb javob qilamiz?..

- O, Veniamin Samoylovich, sharq shoirlari bilan hazillasha ko'rmang. Ayniqsa Krilovni qadrlaydiganlari ayab o'tirmaydi.

- Buni bilaman, Valentina Nikolaevna, Asadulla Mira'lamovichning tillari qilich damidan ham o'tkir.

- Bo'ldi, chegaradan chiqmanglar, - dedi Sinelnikova piching toshlari otila boshlaganini fahmlab. - Biz Pushkinni eslayapmiz.

Veniamin Samoylovich, qatorimizga qo'shilishingiz mumkin.

- Minnatdorman, xonim, Pushkin! O, buyuk daho!

- Uni sevasizmi?

- Uni sevmaslik - kaltabinlik!

Asadulla tomoq qirib, teskari qaradi. Ayol undagi o'ng'aysizlikni sezmaganga oldi.

- Bitta she'rini o'qib bering, Veniamin Samoylovich!

- She'rini? - Ushinskiy beo'xshov kulimsiradi. - Bu kallada she'rga o'rin yo'q. Hammasi manifestu chaqiriqlar bilan band.

- Ayollarning ko'nglini shu manifestlar bilan olasizmi?

- O, ayollarning ko'nglini qanday olishni bilamiz biz...

Asadulla bu yerda ortiq qolgisi kelmadi. Shilqimlik isi kela boshlagan suhbatdan dimiqqan kayutani afzal bilib, ulardan uzr so'radi.

2

Kun oqqanda kema langar tashladi. Shuvalov kayutada yotgan Asadullani yuqori sahnga chaqirdi.

- Darg'aning aytishicha, anov tepalik ortida turkmanlarning ovuli bor ekan. Yoningga bir-ikki musulmonlarni olib, borib kel, yon-atrof tinchmi, so'rab-surishtir, - dedi. Keyin yaqinlashayotgan elchiga yuzlandi. - Nikolay Zaxarovich, shu yaqi o'rtada ovul bor ekan. Mira'lamovich borib kelsin. Oziq-ovqat xarid qilish kerak.

- Mayli, borsinlar, - dedi Xmarin hafsalasizlik bilan.

Sinelnikovaning atrofida girdikapalak bo'layotgan Ushinskiy Asadulla, Zikriyo afandi va to'rt afg'onning qirg'oqqa tushganini bilmay, dog'da qoldi.

Bir barxanni oshib o'tib, yalanglikka chiqdilar. Yalanglikda o'ttizga yaqin o'tov tikilgan, atrofda qo'y-echkilar yoyilgan edi. Ovulga yaqinlashayotgan begonalarini ko'rib, oqsoqol peshvoz chiqdi.

- Xosh keldingizlar, - dedi u salomga alik olib.

- Karkiga yo'l olganmiz, ortiqcha non-go'shtingiz bo'lsa sotib olaylik, - dedi Asadulla.

- Musulmonmisanlar baring?

Asadulla sheriklariga qarab oldi.

- Alhamdulillah...

- Unda senmas ekansanlar. Bizga o'ruslar keladi, deyishib edi. O'ruslar kelsa o'tkazmanglar deyishgan.

- Nimaga?

- Karkida zulm qilishibdi. Bizga yarog' qoldirishdi.

- Kimlar tashlab ketdi?

- E, o'g'lon, surishtirishingdan o'ruslaring borga o'xshaydi. Demak, senlar ekansan. Izzating borida qayt. Boshlaring balolalarga qolmasin.

Qariya shunday deb irg'ay tayog'ini do'qillatib, orqasiga qaytdi.

Asadulla va Zikriyo afandi bir-biriga savol nazari bilan tikilgan holda turib qoldilar. Keyin orqalariga burildilar...

- Ovullarni qurollantirishibdi, - dedi Asadulla Shuvalovga.

- Qaytish kerak, hali ham kech emas, - dedi Shuvalov.

- Bir gap topib keldingizmi? - dedi Xmarin ularga yaqinlashib.

Asadulla aytdi. Bu orada Ushinskiy bilan Sinelnikova ham ularga qo'shildi. Jiddiy maslahat ketayotganini bilib, Ushinskiy avval Zikriyo afandiga yuzlandi:

- Bizning muhim gapimiz bor, iltimos, holi qo'ysangiz, - so'ng Sinelnikovaga qaradi. - Valentina Nikolaevna, uzr, sizni toliqtirib qo'ymaylik.

- Veniamin Samoylovich, sizdan iltimos, Zikriyo afandiga bunday muomala qilmang. U hamma gapdan boxabar, - dedi Asadulla uning qilg'idan norozi bo'lib.

- Mana shu ishingiz bekor. Muhojirga ishonishga haqqimiz yo'q.

Ular past ovozda bahslashib, bir qarorga kela olmadilar. Sahnda davra qurib o'tirgan afg'onlar ularga qarab-qarab qo'yib, bezovtalanishdi.

- Ertalab hal qilamiz, - dedi Xmarin bahsga yakun yasab. - Hozir sir boy bermaylik. Yuringlar, afg'onlar bilan guring qilaylik. Afg'onlar ularni o'rinlaridan turib qarshiladilar.

- Mirza Qandilxon, gapimiz chala qolib edi, - dedi Xmarin chordana qurib, - demak, amir Omonulloxon Inglitondan tap tortmabdi-da, a?

- Ha, sohib, tap tortmadi. Avom jon desa jonini bermoqqa tayyor hozir. Eronda ham shu holmi?

- Yo'q, Mirza, Eronda butkul aksi. Rossiya Eronga mustaqillik bergan edi. Mustaqillikni asray olmadi.

Xmarin Eron voqealarini aytishga tutindi. Afg'onlar uni qiziqib jon qulog'i bilan tinglashar, Said G'afforbek esa undan ko'zini uzmas edi. Xmarin bu o'tkir nigohni sezdi.

- Muhtaram Said G'afforbek, hikoyam sizga ma'qul kelib qoldi shekilli, a? - dedi u bir mahal.

Said G'afforbek bunday murojaatni kutmagan edi, shu bois javobga shoshilib qoldi.

- Ha, ha, b" dedi u, - g'oyat qiziq hikoya. Eronning ahvoli ko'p mushkul ekan.

- Siz ham yurt kezganga o'xshaysiz, ko'laringiz aytib turibdi, yo'l uzoq, hamsuhbat bo'laylik, hangoma qilaylik.

- Yurtlarni kezmanim rost, biroq muxtasar gapni xushlayman: yo'l quvlagan xazinaga, gap quvlagan baloga yo'liqarkan. Xazinaga yo'liqaylik ilohim, - u shunday deb yuziga fotiha tortdi. - Nasib qilsa hali ko'p suhbat qurarmiz. Hozir toliqidim. Yak nafas huzur - taxti Sulaymon, deydilar...

Said G'afforbek o'rnidan turib, kayutaga tushib ketdi. Shuvalov Asadulla bilan ko'z urishtirib oldi.

"Biri - G'afforbek. Sherigi kim?"

Har ikkovining xayolida shu jumboq hukmron edi.

Telba daryo mast uyquga kirib to'lg'andi. Qorong'ilik hammayoqni bir tekisda bag'riga oldi. Tiniq yulduzlar osmonga sochilgan cho'g'day porillaydi. Daryodan ko'tarilgan yengil shabada go'yo shu yulduz - cho'g'larni alanga oldirmoqchiday yuqoriga intiladi. Kemaga kuchi yetmagan to'lqinlar barjani siltab-siltab tortadi. Kayutalardan xurak ovozi eshitiladi.

Asadullaning ham, Shuvalovning ham kiprigiga uyqu ilashavermadi.

Shabada osmondagi cho'g'larni yondira olmadi, aksincha, o'chirib qo'yib, tongni uyg'otib yubordi. Barxanlar ortidan bostirib kelgan tong hademay yoyilib ketdi.

Xmarin olg'a qarab yurishni buyurdi.

Peshinga yaqin o'ng qirg'oqdagi barxanlar ustida turkmanlar ko'rinib, miltiqlarini silkitganlaricha baqira boshlashdi.

- To'xtashni talab qilishyapti shekilli? - dedi Shuvalov ularga xavotir bilan qarab. - To'xtamasak, otishadi.

- To'xtang! - deb buyurdi Xmarin, darg'aga qarab. Keyin Asadullaga yana yuzlandi. - Gaplashib kelish kerak ular bilan, borib keling.

- Men ham boraman.

- Veniamin Samoylovich, bunaqa ishni musulmonlarning o'zlari bajargani ma'qul, men bularning fe'lini bilaman, - dedi Xmarin. - Asadulla Mira'lamovich, Zikriyo afandi bilan birga boring.

Ular oq bayroq ko'tarib, sohilga tushdilar. Arkoni harbdan ikki otliq ajralib, ularga yaqinlashdi. Otliqlarning ikkalasi ham yelkasiga miltiq, beliga qilich osgan, keksayib qolganiga qaramay, egarda tetik o'tirishardi. Ular otdan tushib, elchilar bilan omonlashdilar.

- Bekbobo, bu harakatlaringizning boisi ne? - deb so'radi Asadulla. - Kemamizga oq bayroq ilganmiz. Bu yerlardan o'tuvimizga amiringiz Said Olimxon izn berganlar.

Qariyalardan biri engagidagi siyrak soqolini silab, o'tkir nigohini Asadullaga qadadi. Ammo savolga javob bermadi.

- Bekbobo, - dedi yana Asadulla, - biz sizlarga mehmonmiz. Daryo uzorindan Karkiga borib, undan Afg'onistonga o'tib ketajakmiz. Balki sizning askarlaringiz bizning kimlar ekanligimizni bilmaslar, balki bizlarni dushman hisoblab otish ochgandirlar?

- Bolam, bizlarni tentak fahmlama, - dedi tikilib turgan qariya, - sen bilganni biz-da bilamiz. Bizning o'ruslar bilan oramiz buzuldi.

- Sabab nima, bekbobo?

- Sababini bilmaysanmi? Bilmasang aytay, eshit: o'ruslar Karkida turkmanlarga zulm qildilar. Beklarni tutib o'ldurdilar. Uylarni yondurdilar. Bola-baqrani ham o'ldirishdan toymadilar. Insoniyat nuqtai nazaridan bunday xo'rlikka chidashga toqatimiz qolmadi. Yo najot, yo o'lim! Yo ishlarimizni o'ngarib olamiz, yo barimiz qirilib bitamiz.

- Qirilib bitishdan o'zi asrasin, bekbobo, yaxshi nafas qiling. Turkmanlarning baxti ochilib ketsa ajabmas. Bekbobo, ruslarning zulmini o'zingiz ko'rdingizmi?

- Zamin bevafo bo'lib qoldi, bolam, hech kimga ishonolmaymiz! Mana sen musulmonsheva ekansan, gaplaring ma'nili, ammo ishonmayman. Hozir yaxshi gaplar gapirib, Karkidagi birodarlaringga yarog' olib ketayotgandirsan? Kemaning dumida zambarak ko'rdim?

- Yarog'imiz bor, ammo zinhor ko'makka borayotganimiz yo'q. Karkida turkmanlarga zulm qilinganini sizdan bilib, hayratda qoldim. Bunday bo'luviga sira ishonmayman. Sizlarni aldashgan. So'zimga inonmasangiz, mayli, kemani bunda qoldirib, o'zimiz qayiqqa o'tirib boraylik manzilimizga.

- Bo'lmaydi, bolam, qayiq tugul chibinni ham o'tkazmaymiz. Biz o'tkazsak-da, narida boshqalar bor. Nobud bo'lishingiz tayin.

- Bekbobo, unda bizning Afg'onistonga safarimiz nima bo'ladi? Biz urush bo'lmasin, musulmonlarning qoni behuda to'kilmasin, musulmonlarning ham bag'riga shamol tegsin, o'zining nonini o'zi yesin, boshqalar tortib olmasin, degan kelishuvni afg'on amiriga yetkazmoq uchun xayrli safarga chiqib edik.

- Gaping chinmi?

- Bekbobo, sizni aldamoq gunoh emasmi?

- U holda... Kemadan tushinglar. Elchiga o'lim yo'q. Yarog'laringni bizga beringlar. Biz sizlarni ot-arobaga o'tqazub, bir kecha-kunduzda sarhadga yetkazib qo'yamiz.

- Ichimizda o'ruslar ham bor, ular-chi?

- Kim bo'lsa bo'lsin, odam ayirmaymiz.

- Bekbobo, o'zingizni urintirmay, bizlarni o'tkazib yubora qolmaysizlarmi?

- Bolam o'zbekmisan, o'zbeklar o'jarmas-ku? Men senga bog'ona aytdim. Karkiga bora-borguncha askar ko'p.

- Bekbobo, u holda men kemaga qaytib, birodarlarim bilan maslahat quray. Balki yoningizga qaytarman.

- Turkman bobongning gapiga kir. Nobud bo'lasan yo'qsa.

Asadulla kemaga qaytganda Shuvalov barchani qurollantirib ulgurgandi. Kema xizmatchilari pastdagi toy paxtalarni yuqoriga tashish bilan ovora edilar. Xmarin, Shuvalov, Ushinskiy kema quyrug'ida elchining qaytishini sabrsizlik bilan kutishardi. Asadulla ularga turkman begidan eshitganlarini aytayotganida Zikriyo afandi nari keta boshladi.

- Zikriyo afandi, to'xtang, sizdan yashirguvchi sir yo'q, - dedi Xmarin. Ushinskiy e'tiroz bildirmoqchi edi, u o'ng qo'lini ko'tarib: "Jim bo'ling", degan ishora qildi.

- Chol hiyla ishlatmayaptimikin? - dedi Xmarin Shuvalovga qarab.

Shuvalov darrov javob bermadi.

- Boshim qotib qoldi. Nazarimda qirg'oqdagi turkman ovullarini oyoqqa turg'azishgan. Bu cholning gapi g'alati. Afg'onistonga o'tkazib qo'yishiga ishonaylik. Lekin qurollarimizni topshirishimiz... Niyati qorong'i.

- Ishonmaslik kerak ularga, - dedi Ushinskiy.

- Yo'lda ketaberamizmi? - dedi Xmarin.

- Orqaga qaytish kerak, hali ham kech emas, - dedi Shuvalov.

- Siz zambarakdan bir o'q uzing, qirg'oqda askar zoti qolarmikin, - dedi Ushinskiy. - Ular otgan o'q kemamizga yetib kelmasa ham kerak. Kemaga shuncha askar olganimiz nimasiyu qochishni taklif qilganingiz nimasi?

- Veniamin Samoylovich, miltiq otishni bilasizmi?

- Men siyosiy arbobman. Vitaliy Sergeevich, hali meni jangga solmoqchimisiz?

- Veniamin Samoylovich, uyoqdan uchib kelgan o'q kim arbob, kim jangchi, deb surishtirib o'tirmaydi. Yaxshisi bejanjal ortga qaytaylik.

- Endi qo'rqityapsizmi? - dedi Xmarin zarda bilan. - Qarorimiz shu: olg'a yurish. Kerak bo'lsa, jangga kiramiz. Ha, Vitaliy Sergeevich, men yaxshigina merganman, hisobga olib qo'ying.

Shuvalov, ilojim qancha, deganday yelka qisdi.

Kemaning jilganini ko'rgan turkmanlar qiyqirib, pala-partish o'q uzdilaru tinchidilar.

- Ana, aytmadimmi? - dedi Ushinskiy quvonib. - Bular bir po'pisa. Zambarakni ko'riboq, eslarini yig'ib olganlar.

3

Hijron dardining yaralariga tuz sepuvchi tush tugamay, tun oyoqladi. Asadulla tushida bolalarini ko'rdi. Ularni shu yerda, shu daryo yuzida ko'rdi. Udar daryoning telba mavjlarini pisand qilmay, kema orqasidan izma-iz kelardilar. Asadulla ularga yetishay deb harakat qiladi, ammo kema atrofini o'rab olgan yo'g'on arqonlarni oshib o'tolmaydi. Birdan loyqa suv yermoyga aylandi-yu, yona boshladi... Uning alangasi Asadullaning ko'kragini kuydirdi, tutuni nafasini bo'g'di. Shu alpozda uyg'onib ketdi. Kayuta ichi dimiqib qolgan - yotolmadi. Shart o'rnidan turib, sahnga chiqdi.

Tong bo'zarish arafasida. Kema sahnida daryodan ko'tarilgan shabada hukm suradi, barxanlar ortidan o't purkovchi kuch yo'q.

Qumlarning tafti ham so'ngan. Tumshug'ini qumli orolga tiragan kemani uyqusirayotgan to'lqinlar siltab-siltab qo'yadi.

Asadulla quyruq tomonda o'tirgan odam qorasini ko'rib, dastlab tanimadi. Bag'rini shabadaga tutib turganda G'ulomqodir qo'zg'aldi-da, unga yaqinlashib salom berdi.

- Ha, inim, uyqu qochdimi? - dedi Asadulla, uning salomiga alik olgach.

G'ulomqodir javob bermay yelka qisib qo'ya qoldi.

- Uyingizni sog'ingandirsiz. Hademay yurtigingizga yetasiz. Halovat topasiz.

- Halovatni qo'msaganim yo'q.

Tundroq yuruvchi afg'on yigitning bu gapidan Asadulla sezdi-ki, uning qalbida bir tosh bor. Odatda bunday tosh qo'zg'alsa, alam daryosi to'lqin urib qirg'oqdan toshib ketadi. Balki bu tun bir nima sabab bo'lib tosh qo'zg'algandir. Balki yigit alamlari otashida qovjirayotgandir. Balki uning ham dardi ayriliqdandir. Shunday bo'lsa, ayriliq og'rig'ining qalbdagi kuchi, larzasi Asadullaga begona emas.

- Siz nimadandir qattiq alamdasiz, - dedi Asadulla hamdard odamning ovozi bilan.

G'ulomqodir: "Qanday sezdingiz", deganday savol nazari bilan tikildi.

- Alamsiz odam bormi? - dedi u picha sukutdan keyin.

- Istasangiz ayting, ko'nglingiz yoziladi.

- Gapingiz g'alati, sohib, men erkakman, alamini baham ko'rgan erkakni ko'rganmisiz?

- Ma'qul aytdingiz, inim, erkak nomini olish uchun o'g'il bola bo'lib tug'ilish kifoya emas, dardlar bandiligiga dosh berib, yengish ham lozim. Tan jarohatidan yurak jarohati yomon. Siz yoshsiz, bu azoblarga bardosh bera olasiz.

- Sohib, men bilan bular haqda gaplashmang.

- Xohishingiz...

Asadullaning shunday deb jimib qolganini ko'rgan G'ulomqodir, terslik qilganini fahmlab, izza bo'ldi.

- Ma'zur tuting, sohib, ijizat etsangiz bir so'rog'im bor edi.

- So'rang.

- Yurtimni hali borib ko'rasiz. Fuqaro nochor. Amir, nazarimda, sizlarga ko'z tikib edi, yordamga mahtal edi. Sizlar esa... o'zim

ko'rdim, bizday nochor ekansiz. Bizning boruvimiz, sizning keluvingizdan nima naf?

- Nochorligimiz haq. Bizni urushlar yedi, inim, hozir ham urush tingani yo'q. Ilgari faqir ming uqubat ila bitta non topsa, o'ziga bir tishlamgina qolardi. Endi topgan nonimni o'zim yeyman, desa urushib yotishibdi. Hademay urush tugaydi, faqirning noni butun bo'ladi. Sizning yurtingiz ham luqmasini Inglitonga bermaydi. Bunga yetishish uchun qo'shnilar inoq, ahil, tinch bo'lishi kerak. Biz shuning ahdlashuviga bormoqdamiz.

- O'ruslar noningizga sherikmasmi?

Sahnga kema darg'asi chiqib, Asadulla savolga javob bera olmadi, suhbatlari uzildi. Kema pishqirib, siltanib, qum orol changalidan qutula boshladi. Birin-sirin uyg'onganlar sahnga chiqaverishdi. Shuvalov darg'aga xaritani ko'rsatib, nimanidir aniqlab olgach, barchani to'pladi.

- Agar kechagi cholning gapi rost bo'lsa, bugun yana turkmanlarga duch kelamiz. Besh-olti soatdan keyin daryoning tor yeriga yetamiz. Pistirma uchun bundan bop joy yo'q. Ehtiyotdan shay bo'lib turishimiz shart.

Pistirmaga yetishni istamaganday kema tez-tez qumga tiqlaverdi. Bundan darg'a ham, xizmatchilar ham holdan toyishdi. Shuvalov aytgan joyga besh-olti soatda emas, kun peshindan oqqanda yetishdi.

Olg'a yurishganlari sayin sohil asta ko'tarilib, daryoni ikki tomondan siqib kela boshladi. To'lqinlarning bevoshligi ortdi. Kema tor, chuqur o'p'qon sari kirib borganday bo'laverdi. Ana shu paytda har ikki qirg'oqdagi tepaliklar ustida odamlar ko'rindi. Dam o'tmay har ikki qirg'oqdan o'q do'li yog'a boshladi.

Shuvalovning buyrug'i bilan vakola hay'ati va afg'on a'yonlari pastga tushib, kayutalarda jon saqlaydigan bo'lishdi. Qolganlar tepada jang boshladilar.

- Bular ogohlantirib ham o'tirishmadi, demak, kuchlari ko'p, o'zlariga ishonishadi.

- Vahima qilmang, o'rtoq Mira'lamov, o'tiring, - dedi Ushinskiy zarda bilan.

Asadulla unga javob bermay, tik turganicha yuqoriga quloq tutdi: zambarak uch-to'rt o'q uzib, jimib qoldi. Nima bo'ldi?

Barjadagilar qirilib bitishdimi? Pulemyot ham bir me'yorda otmayapti. "Bema'nilik, bu holda jangga kirmoqlik mutlaq tentaklik.

Kema tayyor nishon-ku? Bu yoqdan otilgan o'q tuproqqa sanchiladi, behuda ketadi. Nahot Shuvalovning fahmi shunga yetmasa?"

Kema imillab olg'a boradi, o'q do'lining tinishidan esa darak yo'q.

- Nikolay Zaxarovich, eshityapsizmi, turkmanlarda kuch ko'p. Orqaga qaytish kerak.

- Tor o'zandan chiqib olsak, ular bas kelisholmaydi.

- Ungacha odamlarimiz nobud bo'lib ketishadi.

- Vahima qilmang, azizim, o'tiring. Odam bunaqa paytda o'zini qo'lga ola bilmog'i kerak.

Shu payt kayuta eshigi zarb bilan ochili, ichkariga afg'on sarbozi yiqildi. Sinelnikova qonga belangan yigitni ko'rib qo'rquvdan qichqirib yubordi. Ushinskiy dovdirab qoldi. Avval Asadulla, keyin Xmarin sarbozga yordam berish uchun shoshilishdi.

Sarbozning o'ng bilagi o'qdan titilib ketgan, og'riqdan gapirishga qurbi yetmasdi.

- O'rus sardor o'ldi, - dedi ingrab.

Asadulla o'zi ham bilmagan holda yuqoriga intildi.

- Mira'lamov, qayting! - deb buyurdi Xmarin.

- Yaradorga qaranglar! - Asadulla shunday deb eshikni yopdi.

Yuz-ko'zi qonga belangan Shuvalov toy paxtaga suyanganicha harakatsiz o'tirardi.

- Vitaliy Sergeevich! - dedi Asadulla, uni yelkasidan ushlab.

- Tirikka o'xshayman, Mira'lamovich, - dedi Shuvalov ingrab, - qara, kenglikka chiqdikmi?

- Yo'q.

- Qaytish kerak.

Asadulla paxtadan bir siqim yulib olib, Shuvalovning yuzidagi qonni artidi. O'q peshonasini yalab o'tgan ekan.

- Bog'lab qo'y, Mira'lamovich, to'ygacha tuzalib ketadi.

- Bunaqada to'yni ko'rmasligimiz ham mumkin. Kayutaga tushing.

- Sen tushib ayt, orqaga qaytishga ruxsat bersin.

Shu payt kema bir siltanib, to'xtadi.

- Qumga tiqildi, - dedi Asadulla asabiylashib. - Endi yem bo'lishimiz tayin. Zambarak nimaga jim?

- Otilmayapti.

"Ish yurishmasa bulamiq1 dandon sindiradi, degani shu", deb o'yladi Asadulla, keyin darg'aning yoniga yugurdi.

- Kenglikka qachon chiqamiz? - dedi u baqirib.

- Bu ahvolda ikki-uch soatsiz chiqib bo'lmaydi, - dedi darg'a otishayotganlarga ishora qilib.

- Orqaga haydang, qaytamiz, - dedi Asadulla qat'iy. Bu qat'iylikdan o'zi ham hayron bo'ldi.

Kema siltanib-siltanib qum changalidan qutuldi-da, ortga qayta boshladi. Saldan so'ng kayuta eshigi qiya ochilib, Xmarinning boshi ko'rindi.

- Nima gap? - dedi tahdidli ohangda.

- Qaytyapmiz, - dedi Asadulla. - Qarang, o'tish mumkin emas.

Xmarin tashqariga chiqmadi. Shuvalovning ahvolini ko'r-di-yu, indamay eshikni yopdi.

Turkmanlar ularni ancha yergacha ta'qib etib bordilar. Oqim iziga tushgan kema tezlashib ketdi.

Omon qolgan askarlar yarador sheriklarining jarohatlarini bog'lashdi. To'rt kishining jasadini kemanding quyruq tomoniga qo'yib, ustiga mato tashlashdi. Barjada ham uch odam harakatsiz yotardi.

Yarasi yuvilib, malham qo'yib bog'langach, Shuvalov kayutaga tushdi.

- Valentina Nikolaevna, malol kelmasa, yaradorlarga qarasangiz, - dedi Asadulla.

Xmarin bosh irg'ab "boring" degach, Sinelnikova norozi kayfiyatda chiqib ketdi.

- Yetti kishi halok bo'ldi. O'ttiz ikki odam yaralangan, og'irlari ham bor, - dedi Asadulla horg'in ohangda.

- Bunga Buxoro amiri javob berish kerak, - dedi Ushinskiy.

- Veniamin Samoylovich, Buxoro amiri o'liklarni tiriltirib berolmaydi.



- Vitaliy Sergeevich, siz harbiy odamsiz. Shuni bilar ekansiz, nimaga qattiq turmadingiz, bizni ishontirmadingiz?  
- Veniamin Samoylovich, - dedi Xmarin asabiylashib, - iltimos, bunaqa bema'ni bahsni bas qiling. Axir o'rni emas, nahot tushunmasangiz?

Kayuta eshigi taraqlab ochilib, G'ulomqodir ko'rindi.

- Sohib, sizni yo'qlashyapti, - dedi u Asadullaga.

- Kim?

- Mirzo Qandilxon sohib. Said G'afforbek sohib og'irlashib qoldilar.

G'ulomqodir shunday deb eshikni ohista yopdi.

- Nima deyapti? - dedi Ushinskiy.

Asadulla aytdi. Shuvalovning yarim yumuq ko'zi shart ochildi.

- Tez chiqing, - dedi u.

Afg'onlarga ajratilgan kayutada ko'kraklari bog'langan Said G'afforbek hansirab yotardi. Asadullaning kirganini bilib, Mirza Qandilxonga "chiqinglar" deb iltimos qildi. Unga itoat etdilar.

- Asadulla afandi, men Rafiqman, - dedi u o'zbekchalab.

- Bilaman. Sizga... bu yerda... qanaqasiga o'q tegdi?

- Xudo uraman desa, joy tanlamas ekan. Bir qaray deb edim...

- Menda gapingiz bormi?

- Gunohimdan o'ting meni.

- Shuginami?

- Toshkentga qaytsangiz, Xudo xohlasa qaytasiz, sizdan bir o'tinchim bor: O'qchidagi uyimga boring. Ko'chadan kirishda o'n bir qadam, ayvondan ko'chaga o'n uch qadam yurib, so'ng qiblaga to'rt qadam qo'yasiz. So'ng odam beli barobar qazisangiz bir xum chiqadi. Tillolarning yarmi, yo'q, uchdan ikkisi sizga, roziman, oling. Qolganini zavjamga berib, bolalarim bilan Buxoroga yetkazing. Buxoroda akam bor, zavjamni nikohiga olib, bolalarimga otalik qilsin. Vasiyatim shu.

- Toshkentga nima uchun borib edingiz? To'g'risini aytisangiz, vasiyatingizni bajo keltiramiz. Tillolaringiz menga kerak emas. Said G'afforbek ko'zlarini yumdi. Nafas olishi tezlashdi.

- Moskvaga yetganda elchini o'ldirmagim lozim edi.

- O'zingizga yarashmagan hunarni tanlagan ekansiz. Qotillikdan ko'ra xoinlik durust emasmi sizga?

- Gapirmang... Xudo urdi meni.

- Qaytishingiz sababi nima?

- Moskva yo'li berk... Valixonga boshqa odam boradi. Buxoroda Xauston degan ingliz hammasining hisob-kitobini qilib bergan. U Toshkentdan odam kutayotgan edi. Kimligini bilmayman. O'sha odam kelsa, ular ham Afg'onistonga yo'l oladilar. Men... sizlarni yo'q qilishim kerak edi.

- Bir o'zingiz-a? Sherigingiz kim?

- Sherigimning kimligini bilmayman... bir odam bor yana, g'ayridinlardan... Endi vasiyatimni bajo keltirasizmi... qasam iching...

- Istagingizni oilangizga yetkazaman.

- Ilohim Toshkentga omon-eson qayting...

Asadulla tashqariga chiqdi. "Meni o'ldirishi lozim bo'lgan odam, endi omonlik tilasa?! Ajab dunyo bu..." - dedi u o'zicha.

Ko'p o'tmay afg'onlar Said G'afforbek jasadini ham quyruqdagi murdalar yoniga qo'ydilar.

Oqshom tushishi bilan kema daryo o'rtasida langarandoz qildi. Marhumlarni sohilga dafn etdilar. Tun tahlika bilan kechdi. Tong yorishar-yorishmas langar ko'tarildi. Qosh qoraymay turib Termizga yetdilar. Yaradorlarni qal'a gospitaliga jo'natgach, Xmarin Asadulla bilan birgalikda temir yo'l bekatiqiga borib nazoratchiga Ko'shka borajaklarini ma'lum etdi.

- Poezdingiz Toshkentga jo'nab ketgan, - dedi nazoratchi. - Faqat xarob vagonlarim bor.

Nazoratchi o'qlar teshib o'tgan, ayrim yerlari kuygan, derazalari singan vagonlarni ko'rsatdi. U yer-bu yerini tozalab, ertalabga tayyor qilishini aytdi.

- Asadulla Mira'lamovich, siz Ushinskiyning nomzodiga qarshi chiqqan ekansiz. Buni eshitib, milliy adovat deb o'ylagan edim, yanglishgan ekanman. Siz uni yaxshi bilarkansiz, - dedi Xmarin.

- Buni nimaga eslab qoldingiz?

- Men o'zimni oqlamayman, lekin ko'proq o'sha aybdor, uning gaplari me'damga tegdi.

- Nikolay Zaxarovich, bir-birimizni ayblamaylik. Oldinda hali uzoq yo'l bor.

- Siz hukumat a'zosisiz, shu odamni orqaga qaytarib yuborsangiz-chi?

- Haqqim yo'q, Nikolay Zaxarovich. Menga bunday huquq berilmagan. Undan tashqari u firqa guruhiga bosh.

- Mushkulimizni oson qilib bo'lmas ekan, azizim, - dedi Xmarin afsuslanib.

Asadulla unga qarab turib, dastlabki uchrashuvini esladi. O'shanda Xmarin Asadullada noxush taassurot qoldirgan edi. Ikki oy avval Turkiston Tashqi ishlar xalq noziriligiga chaqirilganda Asadulla yana Ishoqxonni jo'natish masalasida gaplashmoqchidir, deb o'yladi. Biroq xonaga kirishi bilan nozir uning qo'liga arabcha imloda chiroyli qilib yozilgan maktub tutdi.

- Afg'onistonning yangi amiri Moskvaga maktub yuboribdi. Shu yerda tarjima qilib, radiotelegraf orqali yetkazamiz. Sizga Nikolay Zaxarovich yordam beradilar. Tanishing: Xmarin, Nikolay Zaxarovich. Rossiya imperiyasining Erondagi elchixonasida mas'ul vazifada ishlaganlar. Diplomatlar ichida birinchi bo'lib Sovet Rossiyasiga xizmat qilish istagini bildirganlar. Inglizlarning tazyiqi tufayli Eronni tashlab kelishga majbur bo'lganlar.

- Siz men bilan istasangiz forsiyda, istasangiz rus tilida gaplashavering, - dedi qotmadan kelgan, orasta kiyingan, hali qirqni qoralamagan Xmarin unga qo'l uzatib:

- Forsiyni sizchalik bilmasam kerak, har holda usta ko'rmaganman, ko'p so'zlashmaganman ham, - dedi Asadulla.

Ko'z qarashlaridan kiborligi sezilib turgan Xmaringa bu gap xush yoqib, jilmaydi.

- Boshladik bo'lmasa, - dedi u Asadullani yozuv stoliga taklif qilib. - Xo'-o'sh, amirning birinchi gapi shunday, - Xmarin oyoqlarini chalishtirib olgancha og'zaki tarjima qila ketdi. Asadulla esa yozib bordi. Maktub yarimlaganda Xmarin maktubni Asadullaga uzatdi. - Bir chekib olay, o'zingiz ermak qisib turing.

- Shu yerda chekavering, Nikolay Zaxarovich, - dedi nozir kuldonni u tomon surib. Xmarin minnatdorchilik bildirib, papiros tutatdi-da, ko'zini sal qilib, Asadullaga razm soldi.

Asadulla uning nayrangini fahmlab, ichida kulib qo'ydi-yu, sir boy bermay ishni davom ettirdi. "Podsho xizmatida bo'lgani uchun nozir unga ishonqiramay, meni chaqirtirgan. Bu dimog'dor janob haligi gapimga ishonib, endi meni sinab ko'rmoqchimi?..

"Asadulla xat mazmunini yaxshi tushunsa-da, so'zlarni ruschada qiyomiga yetkazib ifoda etishga qiynaldi. Shuning uchun tarjimoni daf'atan boshlay olmadi. Xmarin unga e'tibor bermaganday xotirjam papiros tutataverdi. Asadulla uzoq o'ylab, maktub tarjimasini davom ettirdi.

"... Oliy hazratlari, mening buyuk va qadrlil do'stim, Buyuk Rusiya davlatining prezidenti! Siz insoniyatning do'stlari bo'lmish o'z yo'ldoshlaringiz ila baqamti adolatli va oliyjanob vazifani - odamlarning farog'ati hamda farovonligi xususida qayg'urmoqni zimmangizga olganingiz boisi va dunyodagi yurtlar, dunyodagi xalqlarning ozodligini, teng huquqliligini ovoza etganligingiz uchun men mustaqil va ozod Afg'onistonning shu do'stlik xatini taraqqiyot yo'liga intilmish afg'on xalqi nomidan ilk bora sizga yubormagimdan sarfarozdirman.

Sof yurakdan bildirgan hurmat-ehtiroimim buyuk do'stim tomonidan lutfan qabul etilajak, deb hohish bildiraman va chin yurakdan ishonaman.

Hijriy sanasining 1337 yili, rajab ul murajaba oyining 6-kuni, ya'ni nasariy sanasining 1919 yili, 7 apreli.

Sizning do'stingiz Omonullo".

Asadulla xatni nozirga uzatdi. Nozir ko'zoynagini burniga qo'ndirib, tezgina o'qib chiqdi.

- Demak, uchinchi maktubimiz hali ularga yetib bormabdi. Lekin... niyatlari yaxshi, juda yaxshi. Nihoyat, mustaqillik nima ekanini anglashibdi.

Xmarin Asadullaning tarjimasini o'qishga oshiqsa ham sirtiga chiqarmadi. Stol ustidagi ikkinchi xatni olib, ko'z yugurtirdi.

- Bunisi "umrlari uzoq bo'lgur tashqi ishlar ministriga", "umrlari uzun bo'lgur amirning" pok niyatlarini tasdiq etuvchi noma.

Horijiya noziri Mahmud Tarzi imzolagan. Sharqliklarning odati shunaqa. Har bir so'zi takallufga to'ydirilgan, gaplari yolg'onmi, chinmi ajratib bo'lmaydi. Umuman... diplomatiya tiliga juda mos.

Bu gap Asadullaga malol kelib, manzirat qilib o'tirmadi:

- Janob Xmarin, - dedi u norozi ohangda, - buni Yevropada aytsangiz yarashardi.

- Ha, ha, Nikolay Zaxarovich, - dedi nozir uning gapini bo'lib, - kesatiqlaringiz o'rinsiz.

- Kesatayotganim yo'q, meni kechiring, - dedi Xmarin o'rnidan turib. - Chindan ham diplomatiya tili takallufga boy bo'lishi kerak.

Qoidasi shunaqa. Umuman... diplomatiyada soxtalik mavjud. Genri Uolten degan diplomatning bir gapi bor: "Elchi o'z davlati manfaatlarini yo'lida boshqa mamlakat ahlini ustalik bilan aldash uchun horijga yuboriladigan rostgo'y, halol odamdir", deydi. Jan Labryuyer esa: "Diplomatning vazifasi o'zi aldanmagani holda boshqalarni alday olishdan iborat", deydi. Satou esa...

- Janob Xmarin, qo'ying bu gaplarni. Kim o'zi ularingiz?

- Ularmi? - Xmarin nozirga qarab, yelka qisdi. - Ular mashhur diplomatlar. Biri ingliz, biri frantsuz...

- Ana ko'rdingizmi, o'zgalarni aldash ularga yarashadi, bizga emas.

- Siz, Asadulla Mir... kechirasiz...

- Mira'lamovich, deb eslatdi nozir.

- Ha, Mira'lamovich, diplomatiya siyosatidan bexabar bo'lsangiz kerak. Har bir davlat, kim boshqarishidan qat'i nazar, o'zga davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga majbur. Diplomatik aloqalarning ea o'z qonun-qoidalari bor.

- Aldashni asos qilib olgan qoidalarimi? Yo'q, bu bizga to'g'ri kelmaydi. Eski dunyoning bunday diplomatiyasi bizga to'g'ri kelmaydi.

- Yangisi, ma'quli bormi?

- Unisini bilmayman. Lekin... bo'lishi kerak, bo'ladi. Bir-birini aldash bilan qanaqa do'stlik o'rnatish mumkin, hech tushunolmayapman.

- Bu haqda keyinroq bafurja mulohaza qilamiz, - dedi nozir, ularni murosaga keltirish niyatida. - Hozir Tarzining maktubini tarjima qili beringlar. Shu bugunoq Moskvaga yetkazishimiz kerak.

Asadulla Turkiyroqo'm majlisida Xmarin nomzodini eshitganida, bir narsaga hayron bo'lgan edi: shu paytgacha podshoga astoydil xizmat qilgan, kimlardir asos solgan diplomatiya qoidalarini to'g'ri deb biluvchi bu odamga shunday vazifani qanday ishonib topshirishdi ekan? Faqat shaxsiy taassuroti emas, balki mana shu mulohazalar paydo bo'lgani uchun ham Xmarin nomzodi Asadullada ikkilanish uyg'otgan edi. Tal'at maqsumning, so'ng Rafiq Irisovning gaplaridan keyin bu ikkilanish qayta uyg'ondi. Karki sari yurishga o'zi buyruq bergani holda aybni o'zga yuklashi esa shubha eshigini ochib yubordi...

Tunni kemada o'tkazdilar. Kun yoyilganda "majruh" vagonlarga joylashib, "qaydasan Ko'shk", deb yo'lga chiqdilar. Shuvalovning yarasi xavfli emas ekan, doktorlar uning safarga chiqishiga monelik bildirmadilar.

4

Ko'shk yo'li bexatar bo'lsa-da, Asadullaning yurak-bag'rini ezib yubordi. Yo'l chetlarida urush dahshatidan darak berib turuvchi kuygan uylar, qoraygan o'choqlar, so'ppayib qolgan mo'rilar, yaqin-yaqin yerdagi inson mozorlari, hayvonlarning o'limtiklari... Go'yo bu qumlik ulug' mahshargoh ko'rinadi. Mana shu kuygan uylar odamlarning baxti edi. Bu uylarga ham qaldirg'ochlar bahor keltirar edilar. Bu uylarga ham qaldirg'ochlar oz bo'lsa-da baxt, oz bo'lsa-da shodlik olib kirar edilar. Endi uylar kuygan. Endi qaldirg'ochlar yo'q. Insonlarning notinchligi beozor qushlarni ham to'zitgan. Qayg'uga bandi bo'lganda ko'zga tor ko'ringan bu uy baxti chechagi kulganida olam qadar keng, olam qadar go'zal ko'rinardi. Endi bu odamlar qayda? Tirikmi ular? Yo mozoristonni makon qilganmilar? Yo ayriliqning temir tirnoqlari orasida nola chekib, bu yerlardan bosh olib ketganmilar? Bunday qaldirg'ochlar qayda? Qay yerlarda osoyishtalik izlab charx urayotgan ekanlar?

Asadulla shu o'ylar girdobida turib, o'z uyini esladi. O'sha qorayib, tutayotgan uyini, supa ustini, supada jizg'anagi chiqib yotgan xotini, unga yopishgan kenjasini esladi. Ko'z oldidagi hamma narsa ayqash-uyqash bo'lib ketdi. Xarobazorlar yerdan uzilib, vagon bilan yonma-yon chopayotganday, "menga qara, mendan ko'z yumma, meni unutm", deb nola qilayotganday bo'ldi. Xarobalar "yugura-yugura" charchaganday, ortda qolib ketdi. Ana shunda... bolalari ko'rindi. Shod, chaq-chaqlab o'ynayotgan bolalari emas, kuygan azoblangan bolalari ko'rindi. Ular tinmay yugurishadi. Nimadir deb baqirishadi. Asadulla eshitmaydi. Poezd g'ildiraklarining taraqturuqidan boshqa tovush qulog'iga kirmaydi. G'ildiraklar esa bir me'yorda, "Bu nimasi? Bu nimasi?", deb ovoz chiqarayotganday...

Asadulla anchagacha shu tuyg'ularga bandi bo'lib turdi, keyin o'zini bosib, fikri tiniqlashgach, xayoliga sattrlar quyilganini o'zi ham sezmad:

Gullar xazon o'lmish, tikoni qolmish,  
Bog'lar barbod o'lmish, xazoni qolmish.  
Zolim falak bu ellarga qahr etmish,  
Xonavayron, singan qozoni qolmish...

Ko'pdan beri, ayniqsa, uyi yongandan beri xayoliga she'r kelmagan edi. Dahshatli manzaralar uni kutilmaganda she'rga qaytardi. Lekin bu oniy holat uni tezda tark etdi. Ko'krigidagi og'riq qo'zg'alib, ko'zlarini yumdi. Shuvalovning maslahatiga ko'ra, yaxshi kunlarni, baxtli damlarni eslashga harakat qildi. Dahshatga tirik guvoh bo'lib turganingda quvonchli damlarni eslashga urinish bachkana tuyularkan. O'zining harakatidan o'zi nafratlanib, ko'zini ochdi: ro'parada Zikriyo afandi ko'zini yumib yotardi. Pastki o'rindiqa boshi bog'loqliq Shuvalov o'yga tolgan. Ushinskiy tirsagiga tayanib, nigohini tashqariga tikkan. "U ham xarobazordan dahshatga tushganmikin? Indamay qolgani qiziq. Axir temir emas, odam-ku, yuragiga nayza botgandir, jim ketishi shundandir. Yo boshqa sababmi? Rafiq aytgan g'ayridin shu emasmi? Shuvalov asosan shundan shubhalanyapti. Ushinskiy Karki yo'lidan boramiz, deb turib olganidan keyin shubhasi yana ham ortdi. "Boz gardad ba asli xud hama chiz, zari sofiyu nuqrau arziz"1, deyishlari bejizmas. Mana, Said G'afforbek - Rafiq Irisov so'nggi nafasi oldida asliga qaytdi-ku? Ushinskiy asl qiyofasini qachon ko'rsatadi? Agar Shuvalovning shubhasi to'g'ri chiqsa, ko'p vaqt niqobda yurmaydi, safar oyoqlamay o'zini o'zi fosh etishga majbur bo'ladi. Balki u dushman odami emasdir? Bu ahvolda qancha yuradi? Yurt boshiga musibat tushgunchami? Ha, bunaqalar musibatning ilk daqiqasidayoq boshqa tomonga o'tishga mamnuniyat ila shay turishadi. Eng xavfli ham shu - ko'zingning yog'ini yeb yuradi, suyansam suyanchig'im, yopinsam yopinching'im, deganingda ham suyanchiqsiz, ham yopinchiqsiz qolasan. Ushinskiy lip-lip o'tayotgan yo'l chetidagi xarobazorga ko'zlarini tikib o'tirgan bo'lsa-da, xayoli boshqa yoqda edi.

"Mira'lamovning fe'lini bilardim, bularga qo'shilmaligim kerak edi. Sodiqligimni ko'rsataman, deb topshiriqqa bo'ysunishim - mening kaltabinligim. Sodiq odamdan qachon minnatdor bo'lishibdi? Sodiq odamning qismati bir - bevaqt sharafsiz o'lim. Bular safiga o'tgan edim, menga kim qo'yuvdi sadoqatni ko'z-ko'z qilishni. Sadoqatlilarning o'n to'rttasi yotibdi yer tishlab. Shularni ko'rib ham aqlim kirmabdi-ya. Umuman, o'yindan chiqishim kerak edi. Payt poylashim kerak edi. Endi kech... Manavi jandarmandan ehtiyot bo'lishim kerak. Menga kun bermaydi endi..."

Shuvalov ko'zlarini yumib yotgani bilan uyg'oq edi. U Orenburgni, unda qolgan xotini, bir o'g'il, bir qizini o'ylardi. Oilasini Moskvaga jo'natolmay qoldi. O'rtoqlari va'da berishgani bilan ko'ngli notinch. Agar Dutovning odamlari sobiq jandarm Shuvalovning bolshevik ekani, hozir Turkiston ChKsida xizmat qilayotganidan xabar topishsa oilasini omon qo'yishmaydi. U oilasini Moskvaga, undan Tulaga, otasining huzuriga jo'natmoqchi edi. Yo'lning xatarga to'la ekanini bilardi, ammo o'zga chorasi yo'q edi. Shuvalovning ham qalbida ayriqliq jafosi bor edi, shu sabab Asadullaning dardini eslasa, oilasi yodiga tushaveradi. Nazarida bolalarini ataman Dutov tiriklayin o'tga tashlaganday bo'ladi. Hozir ham xayolini shu mash'um fikr yoritdi. Seskanib, shart ko'zini ochdi.

- Kuningiz xayrli bo'lsin, - dedi Ushinskiy, xuddi uning uyg'onishini poylab o'tirganday, - yaxshi tushlar ko'rdingizmi? Shuvalov yomon xayolini haydamoqchi bo'lganday, boshini silkib, kerishdi.

- Bunaqa shohona vagona faqat shohona tush ko'riladi. Agar lozim bo'lsa, aytib berishim mumkin.

- Vitaliy Sergeevich, piching qilmang.

Shuvalov uning ko'ziga tikilib, yovuzlik uchqunini ko'rmadi. Xayolida kutilmaganda uyg'ongan gap o'ziga ma'qul kelib, soxta jilmaydi.

- Piching qilayotganim yo'q, Veniamin Samoylovich, tushimda izimizga tushgan ayg'oqchini naq peshonasidan otib tashlabman. Mening tushim hamisha o'ngidan keladi.

- Ayg'oqchi? - Ushinskiy sarosimalandi. Barmoqlari yengil titradi. Buni Shuvalov ham, tepada kuzatib yotgan Asadulla ham sezdi.

- Ichimizda ayg'oqchi bor ekanmi?

- Kim aytdi? - dedi Shuvalov uning ko'ziga tikilib.

- O'zingiz, hozir aytdingiz-ku?

- E, omon bo'ling, men tushimni aytdim sizga.

Shuvalov shunday deb kuldi-da, Ushinskiyning yelkasiga ohista urib qo'yib, dahlizga chiqdi.

Asadulla ularning suhbatiga aralashmadi.

Ko'zini yumib yotgan Zikriyo afandi bo'lib o'tgan suhbat tubida og'ir tosh yashiringanini sezdi. "Oralarida ixtilof bor. Ushinskiy deganlari boshqacha odam. Shuvalovning turgan-bitgani sir. Xmarin, kiborligi demasa, bama'ni, bilimdonga o'xshaydi.

Xonimchanning sirli qarashlari, nozli kulishlari g'alati, bu Ovrupo odamlari uchun g'ayritabiiy emas, ammo sharqliklarga hazm bo'lishi qiyin. Safarga ayolni olib nima qilardi. Shuni deb g'alva chiqmasa edi. Ixtilofga barham bera olishmasa, oqibat nima bo'ladi? Yurt ahvoli nima kechadi?"

Zikriyo afandi yo'lga chiqqanida Kobulga yetib borishni, Hindiston muvaqqat hukumati a'zolariga vakola hay'atini tanishtirishni orzu qilgan edi. Bularning ahil emasligini sezib, ko'ngliga g'ulg'ula tushdi. Biri bir g'oyani, ikkinchisi ikkinchi g'oyani aytib tursa, hukumat a'zolari nima deyishadi?

Poez xarish bo'lgan bedavo otday sudralardi. Vagon dam-badam silkitganda chalqancha yotgan Sinelnikovaning ko'kraklari yupqa ko'ylakni titratadi. Qo'llarini bolish qilib olgan bu zebo ayol eshik o'rniga tortilgan pardaga ko'z tikkan. Kimningdir, kim bo'lsa mayli, kirib kelishini kutadi. Avvaliga Asadullaning kirib kelishini istadi. Beva erkak ayol imosiga ilhaq bo'ladi, lekin bu Mira'alamovichdan sado chiqmaydi. Shoir bo'lib sevgi haqida she'r bitmagan erkak erkakmi? Sinelnikova shuni o'ylayverib, boshi qotib ketdi. Oxiri Asadulla haqida o'ylamaslikka qaror qildi. "Bu erkak bilan zerikkan mahalda faqat adabiyot haqida suhbatlashish mumkin", deb qo'ydi. "Veniamin Samoylovich - tayyor pishgan osh. Istasam yeyman, istasam chaynab, tupurib tashlayman, istasam itlarga beraman... Bunaqa shilta, arzon-garov odamlarni itga bergan ma'qul. Ungacha silab-siypab turish kerak. Muhojirning ishi oson. Nafasim tegsa, boshi aylanib, tiz cho'kkanini o'zi ham bilmay qoladi. Chekist - chaqilmaydigan yong'oq. Unga qip-yalang'och ro'para bo'lsang ham, avval hujjat tekshiradi. Bunaqalardan uzoqroq yurgan ma'qul. Xmarin... O, u mening sodiq qulim bo'lishi kerak. Hozir go'yo men sichqonu u qorni to'q mushuk. Nima ham qilardik, mushuk janoblarning qorni ochar, keyin izimdan emaklab qolarlar..."

Shundoqqina qo'shni xonada Xmarin oyoqlarini chalishtirib yotgan holda papiros tutatardi. Siniq derazadan kirayotgan iliq shamol papiros tutunini bir onda to'zitib, ko'zdan yo'qotardi. "Biz ham tutunga o'xshab qoldik, - deb o'yladi u, - Rossiya to'zib ketdi.

Bechora Rossiya. Shunday qudratli mamlakatning parokanda bo'lishi mumkinligi g'alati hol. Aqlga sig'maydigan hodisa. Tarixning qaltis xatosi. Imperator-ku, ildiziga qurt tushgan, chirib ado bo'lgan daraxt edi. Kerenskiy hukumati-chi? Nimaga anqovsiradi?



Nima uchun hokimiyatni boy berib qo'ydi? Na siyosatdan, na davlat yuritishdan xabari bo'lgan odamlarning qo'li baland kelsa?! Ushinskiy deganlarini elchixonaga farrosh qilib olmas edim. Endi menga aql o'rgatmoqchi. Nodon! Unga faqat Shuvalov bas keladi. Har holda dvoryan dvoryan-da. Muomalasidan bilinib turibdi. Bolsheviklarga nimaga aralashib qolgan ekan bu? Yana ChKga... Mira'lamov pokiza odam ekan. Unga diplomatiyani o'rgatmasa ham bo'ladi. Sharqli ziyolilar muomalasining o'ziyoq diplomatga xos. Boshiga og'ir kulfat tushsa ham bildirgisi kelmaydi. Bu odam loydan emas, toshdan yasalgan bo'lsa kerak. Muhojirning fe'li ham Mira'lamovga o'xshaydi. Buning xomxayolligiga hayronman. Hindistonni Angliya changalidan tortib olib bo'larkanmi? Hindiston - Angliyaga bir umrga berilgan ne'mat. Afg'oniston ham uzoqqa bormaydi. Bu urinishlari avvalgi buyuk Rossiya davrida naf berardi. Bolsheviklar inglizlarga qarshi nima qila olishardi? Diplomatlar vagonining ahvoli bu. Yaxshi hamki shu vagonlarda Kobulga kirib bormaymiz. Yo'qsa... E, Tangrim, Rossiyada nima qasding bor edi? Men nima gunoh qilgan edim. Men sargardonlikni emas, saroylarda viqor to'kib yurishlarni umid qilib edim-ku? Yuragim kechagina to'lgan kosa yanglig' edi. Bugun egasiz bo'sh yotoqqa aylandi. Goho ravshan, goho xira bu olamdagi dabdabalar momaqaldirroqday o'tkinchi ekan-da, a? Rossiyaning qudratini qaytarib ber, Tangrim. Iso Masixning jonini qaytarib bergansan-ku, uning ummatlariga ham ishonchni, qudratni qaytar...! "Xmarin xayolidan shu gaplar o'tib beixtiyor o'rnidan turdi-da, shoshilib cho'qinib qo'ydi. U xudojo'y emas, cho'qingan onlari kamdan-kam bo'lardi. Hozirgi ishi bir ozdan so'ng o'ziga ham nasha qilib, achchiq kulimsiradi. "Asablarim charchabdi. Bu odamlar bilan muomala qilish uchun temir asab kerak. Yaxshi ham Valyushani yonimga oldim. Lekin... xonimning ko'z suzishlari sal boshqacha bo'lyapti. Ogohlantirib qo'yishim kerak... "Imro'z bukush chu metavon kusht. Otash chu baland shud jahon so'xt"1, deganlari rost..."

Xmarin shu qarorga kelib, o'rnidan turdi.

Qo'shni vagon afg'onlarga berilgan, G'ulomqodir eshikka yaqin bo'lmada, uch sarboz bilan birga edi. Yuragiga gap sig'may, sarbozlar gurungiga qo'shila olmagan G'ulomqodir vagon eshigini ochib, zinaga o'tirib oldi. Iliq shamol uni yalab-yulqay boshladi. Kemada Karki tomon yo'lga chiqishganda u xotirjam edi. Hatto pistirmaga duch kelganda ham o'zini yo'qotmadi. Lekin Ko'shk - Hirot orqali Kobulga borilajagini bilib, bezovtalandi. Kobulga agar Hazora yo'li bilan ketilsa, Choraymoqni bosib o'tishadi. Demak o'sha yerda... uning kuni tugaydi. Kindik qon to'kilgan ochofat yerga endi yurak qoni to'kiladi. Uning gunohlari behisob ko'paydi. Ollohning marhamatiga umid yo'q. Sersoqolni otganda ko'zi tindi. Ilgari hech bunday bo'lmagan edi. Begunoh odamni otib, Xudoning qahrini keltirdimi? Olloh shuning uchun uni Karki yo'lidan qaytarib, Hazora yo'lga ro'para qildimi? Choraymoqda kimning qilichi qonsiragan ekan? Uning jonini kim olar ekan? Peshonasida shunday sharmandali o'lim borligini bilsa, bunchalar sargardonlikka ko'narmidi... G'ulomqodirning yozug'i faqat shumi?.. Shu gaplarni xayolidan o'tkazgan sovar ko'zlarini chirt yumib, ingrab yubordi.

Vagon to'rida, alohida bo'lmaga joy qildirgan Mirza Qandilxon xayoli kemadagi voqealar bilan band edi. Buxoro amirining istagi bilan qo'shilgan Said G'afforbekning xatti-harakati, halokati unga sir bo'lib qoldi. Buxoro yerida otish ochganlarga amir nomidan so'z aytmagani bir sir, otishda o'zini tutmay, to'pponcha bilan tashqariga chiqib, oqibatda o'q yeb pastga qulashi o'n sir, "bolshevik sardor"ga gap aytgani yuz sir edi. Eng alam qiladigani - bu sirlarning birontasiga ham uning tishi o'tmas edi. Kemadan poezdga emas, sirlar qanotidan alam qanotiga o'tganday bezovta edi u.

... Poezd imillab yo'l bosadi.

Vakola hay'ati, afg'onlar, askarlar... har biri o'z xayoli, umidi, ilinji, o'z tashvishi, hijroni, dardini ortmoqlab Turkiston hududiga tobora yaqinlashar edi.

5

Chillaning uchinchi kuni Ko'shk ularni otash nafasi bilan qarshiladi. Qizigan tosh ustida tuxum tugul kabob pishirsa ham bo'lguli edi. Tog'u tosh tabiiy istehkom vazifasini o'tovchi bu qadimiy tilsimot qal'aning buloqlar otilib turgan soya yerida jon saqladilar. Asadulla, Shuvalov va qal'a komendanti ichkariga kirib, Toshkent bilan bog'landilar. Karki yo'lidagi voqea shundan so'ng oydin bo'ldi: polkovnik Lamkard Karkini o'rab olib, qal'ani topshirishlarini Asxobod hukumati nomidan talab qilgan, Karki yo'lida uchragan zotni qirib tashlagan edi.

- Hammasi puxta reja bilan qilingan, - dedi Shuvalov, telegraf tasmasini o'qir ekan. - Qirg'inni boshlashlari bilan ovullarga xabar ketgan. Turkmanlar haqiqatni anglashga ulgurmaganlar.

- O'rtoq Shuvalov, - dedi komendant, - kecha menga g'alati xabar yetkazdilar. Shahar atrofida qalandalarmi, shayxlarmi, paydo bo'lib, aholini Afg'oniston ixtiyoriga o'tishga chorlayotgan emish. Bu yerlarni ruslar bosib olishgan, endi Afg'onistonga deyishayotganmish.

- Bugunoq ularni qo'lga oling.

- Axir ular qalandarlar... xalq norozi bo'ladi.

- Bizga shu qalandarlar kerak, - dedi Shuvalov qat'iy ohangda.

Komendant tushunmaganday yelka qisib qo'ydi.

Bu paytda yoniga sarbozlarni olib yo'lga chiqqan Mirza Qandilxon Afg'onistonning sarhad hokimiga ro'para bo'ldi. Yo'ldagi sarguzashtlarni bayon qilib, vakolaning Kobul sari yurmagi uchun lozim bo'lgan ot-ulov ro'yxatini berdi. Sarhad hokimi Hirot noibiga hoziroq chopar jo'natajagini ma'lum qilib, yo'l bosib horigan birodarlariga dasturxon tuzadi.

Inglistonning muhoribani bas qilgani haqidagi xushxabar shu dasturxon ustida aytili. Barcha shukrlar aytib, bir-birini muborakbod etganda G'ulomqodirning ichini mushuk tatalaganday bo'ldi. Yo'q, u xushxabardan norizo emasdi, bil'aks, yurtga omonlik musharraf etilganidan mamnun edi, ammo burchini, qasamini ado etolmaganidan, muhoribadan yiroq yerlarda o'zga yumush bilan band ekanidan, endi qasos umidi so'nggi nafasiga qadar armon bo'lib qolishidan afsusda edi. Umri tobora qisqarib borayotganini sezgani uchun emas, armonda ko'z yumajagini bilgani uchun fig'on chekardi. Uning nolayu fig'onlariga begona birodarlari esa ham xushxabardan, ham yurt tuprog'iga eson-omon yetib kelganlaridan sarmast edilar...

Ular qosh qorayganda yotoqlariga qaytishdi. Kechki salqinda bahri-dili yayragan Xmarin ularni ko'rib, gap qotdi:

- Mirza Qandilxon, bizni tashlab Afg'onistonga o'zingiz jo'navordingizmi, degan xavotirda edim.

Mirza Qandilxon tabiatan hazilga tobi toqati yo'qroq edi. Ustiga-ustak no'noq hazil bilan qarshilanib, dami ichiga tushib ketdi.

Yomon gap aytib yuborib, baloga qolmay, deb tilini tishladi. Xmarin esa buning holatini tushunmay: "G'alati kishi ekan-ku", deb hayron bo'ldi.

Yo'l azobi kuchini ko'rsatdi, tong beozorgina, jimgina bostirib kirib, qushlarni uyg'otdi, ammo ularni uyg'otmadi.

Shuvalovning buyrug'ini bajarib, qalandarni boshlab kelgan komendant ularni uyg'otgisi kelmay, buloq bo'yida anchagacha o'tirdi.



Birinchi bo'lib Xmarin uyg'ondi. Yarim-yalang'och holda yuvingani chiqqan elchi daraxtga suyanib, oyoqlarini bahuzur uzatib o'tirgan qalandarni, undan sal narida miltiq ushlagan askarni ko'rib, ajablandi.

- Kim bu? - deb so'radi komendantdan.

- Qalandar... Teskari tashviqot bilan shug'ullanayotgan ekan.

- Qiziq... qiziq... - dedi Xmarin, - qalandarlar ham siyosatchi bo'lib ketishibdimi? Bu yerga nima uchun olib keldingiz?

- Buyurilgan, - dedi komendant, gapni qisqa qilib.

- Qiziq... qiziq diplomatlarning ham ishi o'zgarib ketgan shekilli?

- Xmarin shunday deb uy tomon qarab baqirdi: - Vitaliy Sergeevich, sizni kutishyapti!

Xmarin yuvinib olgunicha ichkaridan boshqalar ham chiqib, qalandar suyanib o'tirgan chinor oldida to'planishdi.

- Mira'lamovich, so'rab ko'r-chi, turkmanlarni nimaga avrashyapti ekan?

Asadulla tarjima qildi.

- Afg'oniston muhoribadan aziyat chekyapti, yovqur sarbozlar kerak. Turkman birodarlarimizning ko'magiga muhtojmiz, - dedi qalandar.

- Yerlariga-chi? Yerlariga muhtoj emasmisizlar?- dedi Asadulla.

Qalandar yelka qisib qo'ydi, ammo javob bermadi.

- Menga qarang, - dedi Xmarin qalandarga, - qachondan beri askar to'plash qalandarlarga qolgan?

- Biz pirimizning istaklarini bajo keltiryapmiz.

- Piringiz kim?

Qalandar o'ylab o'tirmay, kallasiga kelgan nomni aytdi.

- Urush tugagandan keyin askar to'plashi qiziq bularning, - dedi komendant.

- Ha. Bularning maqsadi faqat askar to'plash emas... - dedi Shuvalov. o'ychan holda. - Nikolay Zaxarovich, buni eslab qoling.

Bularning boshqa da'vosi borgan o'xshaydi.

- Bu tabiiy, azizim, - dedi Xmarin. - Ikki qo'shni mamlakat aloqa o'rnatayotganda albatta chegara masalasi ko'tariladi.

- Chegara masalasi? - dedi Ushinskiy hayron bo'lib. - Biz afg'onlarning yeriga da'vo qilmaymiz.

- Bunaqa narsalarni yo'lga chiqmay o'rganish kerak edi, azizim Veniamin Samoylovich, - dedi Xmarin. - Diplomatik aloqa o'rnatish oson emas. Amirning maslahatchilari uni turli maqomga solishlari mumkin. Bunaqa gaplarga shay turishimiz lozim.

Karki yo'lini to'sganlar amir bilan do'st tutinishimizga osonlikcha ko'na qolishmas. Ularning bir nayrangi, mana, oydin bo'lib turibdi. Ular daryoning bu betini so'rashsa kerak. "Ahvolimiz tang, xalq och, unumli yerlarga muhtojmiz" deydi, u deydi, bu deydi, xullas, ming bahona ro'kach qilishadi. Bu qalandaringiz shunga poydevor hozirlayapti, ishonavering. Diplomatiya tarixida bunaqa o'yinlar ko'p bo'lgan.

- Buni nima qilamiz unda? - dedi Shuvalov ikkilanib.

- Nimaga tuttirdingiz? So'roq qilish uchunmi? So'roq qiling.

- Nimani so'rayman, ma'lum-ku?

- Ma'lum emas, azizim, bu odamga yaxshiroq qarang: qalandarga o'xshamaydi. Jandani yaqinda kiygan. Yuzlariga qarang: oftobda kuymagan. Bu oyoqlar ko'p piyoda yurmagan. Qalandarlarni bilmas ekansiz.

- Qaydan bilaman... Rahmat sizga, Nikolay Zaxarovich... Mira'lamovich, unga tarjima qil: to'g'risini aytsa aytsin. Nimaga yuborilganini bilamiz. U bilan pachakilashib o'tirmaymiz, harbiy holat qonuniga ko'ra shu yerda otib tashlaymiz.

Asadulla tarjima qildi. Shuvalov to'pponchani g'ilofdan chiqardi.

- Bunday qila ko'rmang, - dedi Ushinskiy.

- Jim bo'ling, - dedi Shuvalov zarda bilan, keyin bir-ikki qadam oldinga bosdi.

Qalandar birpas javdirab turdi-da, so'ng ikki qo'lini ko'tarib, tiz cho'kib, jonholatda gapira boshladi. Shuvalovning tavakkal bilan yuritgan ishi kutilgan samara berdi.

- Pirining nomini aytdi: kobullik Qodir og'a hazrat ekan, - dedi Asadulla.

- Yaxshi. Pirining oldiga biz bilan birga boradi. So'rab ko'r-chi, bu amirning farmoni emasmikin?

Bu savolga javoban qalandar bosh chayqadi.

- Komendant, ketgunimizcha qamab qo'ying. Boshingiz bilan javob berasiz. Mira'lamovich, sen afg'onlar bilan gaplashib ko'r-chi, bu pirning saroyda mavqei bormikin?

Komendant bilan askar qalandarni olib ketdilar.

Xuddi Neva sohillarida sayr qilish uchun otlanganday kiyinib olgan Sinelnikova ularga yaqinlashib, nozli ohangda dedi:

- Sirlil majlisingiz sizlarga ovqat o'rnida o'tar, ammo men nonushtani afzal ko'raman. Veniamin Samoylovich, siz-chi?

Bu savoldan Xmarinning g'ashi kelib, teskari qarab oldi. Aytgan edi-ya, bu xonimchaga, erkaklarga suykalma deb, yo atayin g'ashiga tegyaptimi?

Ushinskiy Sinelnikovaning savoliga javobni hayallatmadi.

- Ha, o'rtoqlar, xonimning tanbehlari o'rinni, - u shunday deb oldinga tushdi. Sinelnikova uni qo'ltiqlab oldi.

- Ertalabdan nima g'alva, Veniamin Samoylovich, bir ta'viya o'tiruvdi anavi yerda, birovni o'ldirmoqchi ekanmi?

- E, yo'q, shunchaki bir qalandar. Pirining gapiga kirib bu yerlar Afg'onistonga o'tishi kerak, deb tashviqot qilib yurgan ekan.

- Shunga shunchami, endi uni otsalar kerak, a?

- Yo'q, Valentina Nikolaevna, biz bilan birga ketar ekan.

- Shu yetmay turuvdi.

- Siz aziyat chekmang, afg'onlarga qo'shib qo'yamiz. O'zlari olib borishadi.

- Veniamin Samoylovich, sut ichganimiz yo'g'-a?

Sinelnikova shunday deb gapni ustalik bilan chalg'itib yubordi.

Ushinskiy izma-iz kelayotgan Xmarin ko'zidagi g'azabdan bexabar, Sinelnikovaning iyib qolganidan o'zida yo'q xursand edi...

Ko'shk ularni ipsiz bog'ladi. Ular Hirotdan darak, nafaqat darak, ot-ulov yetib kelgunga qadar kutishga mahkum edilar. Kutish hammadan ham Xmarinni ezib yubordi. U kotibasining qiliqlaridan xavotirga tushdi. Nazarida bu dunyoni alanga olib bo'lgan, endi o'chirish amrimahol edi. Xmarin oxirgi chorani qo'llab, "Toshkentga qaytarib yuboraman", deb po'pisa qilgach, Sinelnikova picha insofga kirdi. Shunda ham Xmarinning ko'ngli tinchimadi.

Ipsiz bog'lanishning uchinchi kuni, oqshom mahalida ularning qarorgohiga o'nga yaqin ruslar kirib kelib, baravariga ta'zim

qilishdi.

- Kelinglar, mehmonlar, - dedi Xmarin ularga peshvoz chiqib. Ko'nglidan esa, "mujiklarning shunday ta'zim qilishi qanday yaxshi", degan gap o'tdi.

- Biz shu yerlik dehqonlarmiz, janob, - dedi qoruvli, tepakal odam. - Bilishimcha, afg'on amirining vakili bor emish.

- Ha, bor, nima edi?

- Arz bilan keldik.

- Nima, siz Afg'oniston yerida yashaysizmi?

- Yo'q, janob, lekin afg'onlarga arzimiz bor.

Mirza Qandilxon chinor yonidagi supaga to'shalgan ko'rpachada yonboshlab, chilimni g'urillatib tutatardi. Xmarin uni ko'rsatdi.

- Amirning vakili o'sha odam. Sizlarga... tarjimon kerakdir?

- Yo'q, janob, minnatdormiz sizdan, biz forsiyda gaplashaveramiz. Umrimiz shu yerlarda o'tyapti, tilini o'rganib olganmiz.

Dehqonlar supaga yaqinlashib, Mirza Qandilxonga egilib ta'zim qildilar. Xmarin qiziqib, ular ortidan bordi.

- Sardor, - dedi qoruvli, tepakal dehqon, - sizga arzimiz bor.

- Mengami? - Mirza Qandilxon ajablanib, Xmaringa qaradi.

- Sizga, sardor, - dedi mehmon, - arzimiz shuki, Afg'onistondan qaroqchi bosyapti. Jamshidiy degan bir qabila bor ekan. Ular bu tuproqqa o'tib, mollarimizni afg'on tuprog'iga haydab, shuyla o'g'irlik ila kasbi maishat qilyaptilar.

- Jamshidiylarmi? Kim aytdi sizga?

- Birovini tutdik.

- Qani u?

- Jamshidiylarni insofqa keltirishga va'da bersangiz, uni sizga topshiramiz, yo'qsa, o'zimiz chorasini ko'ramiz.

- Men sarhad hokimiga, undan o'tib, Hirot noibi ul hukumasiga arzingizni aytaman. Siz tutgan odamni noibga yetkazaman.

Ikki dehqon to'pdan ayrilib, dam o'tmay aflari momataloq bo'lib ketgan bir qo'lli odamni boshlab kelishdi.

- Yurtni sarafkanda qilyapsanmi, qo'ling chopilgani kam edimi, mal'un, endi boshing ketgay! - Mirza Qandilxon shunday deb gunohkorni tepdi. Bir qo'llik odam chekindi-da, o'zini o'nglay olmay, gursillab yiqildi, anchagacha o'ziga kelolmadi.

- G'ulomqodir! - deb qichqirdi Mirza Qandilxon, joyiga qaytar ekan, - Oyoq-qo'lini bog'la, Hirotga eltgaymiz.

"Safimiz ikki kishiga ko'payibdi-da", deb ko'nglidan o'tkazdi Xmarin.

Kechki ovqatdan so'ng, choyxo'rlik qilib o'tirishganda Xmarin daf'atan Mirza Qandilxonga gap o'tib qoldi.

- So'zlaringiz e'tibori bormi o'zi, uch kundan beri tiriklay mixladingiz-ku, yo amirning o'zi bunga kelmoqchimi?

Mirza Qandilxonning piyola o'shlagan qo'li bir zum muallaq qoldi. O'zicha bir nima deb g'o'ldiradi, biroq so'z aytmadi. Piyolani do'q etib dasturxon ustiga qo'ydi-da, o'rnidan turib ketdi. Ushinskiy bilan Shuvalov ular orasida nima gap o'tganini tushunishmadi.

Shu sababli Asadulla Xmaringa forschalab dedi:

- Nikolay Zaxarovich, o'rinsiz ta'na qildingiz. Axir afg'onlar bizni bu yerda kutishmagan-ku? Hirotga temir yo'l bo'lsaykan, poezdga chiqib ketaversak. Uch-to'rt kishi bo'lsak ekan, uch-to'rt ot bilan yo'lga tushsak. Xabar borib, to ot-ulov hozirlanguncha chidaymiz-da. Shuni boshqalar aytsa ham siz aytmaligingiz lozim edi. Siz bu yerlarning sharoitini yaxshi bilasiz.

- Men hazillashmoqchi edim.

- Hazilingiz qo'polroq chiqdi. UZR so'rasangiz chakki bo'lmas.

- Menmi? - Xmarin hayratlandi. Keyin bir oz hovurdan tushdi. - Yaxshi...

- Nima bo'ldi o'zi? - dedi Shuvalov, Xmarin o'rnidan turib ketgach.

- Shunchaki... - dedi Asadulla, - shaxsiy gap bu.

Nonushtada Mirza Qandilxon ko'rinmadi. Garchi Xmarin uzr so'ragan bo'lsa-da, shomda aytilgan gap kechasi bilan unga tinchlik bermay, tong-sahar uyg'otib, sarhad hokimiga yetakladi. Peshinga yaqin ancha chiroyi ochilgan holda keldi.

- Marhamatli sohib, - dedi u Xmaringa yengil qulluq qilib. - Afg'oniston tufrog'i sizlarning poyi qadamlaringizga mahtal. Hirotidan minmagingiz uchun sara otlar, yo'lda tikmak uchun haymal, har xil asbob-taomlarni yuklab ketmoqg'a ulov, sizlarni aziz jonlaringizni muhofaza etib ketmoqg'a oz bo'lg'onda ellik askar yo'lga chiqib, kechi bilan ertaga Ko'shkda bo'lur2.

Daryodagi azoblar, majruh vagonlardagi safardan so'ng otda yo'lga chiqish ko'pchilikka surur bo'lib ko'rindi.

Mirza Qandilxon aytganday, ot-ulov ertasiga peshinda yetib keldi. Bu hashamni ko'rib, boshqalar u yoqda tursin, diplomatiya dabdabalaridan boxabar Xmarin ham hayratga tushdi. "Bunaqa shohona safar tushimga ham kirmagan edi", dedi u Asadullaga.

"Shundan bilingki, bizga ilhaq ular", dedi Asadulla.

Uchinchi qism - Kuzdagi bahor nafasi

Birinchi bob - hirot

1

Mirkomil hojining bir odati bor: agar boshlagan ishi haddan tashqari silliq ketsa, xavotirga tushadi. U: "Siyosat bobidagi ishmi yo tijorat yumushlarimi to oxiriga qadar silliq bitmaydi. Qaerdadir qoqiladi", deb qattiq ishonadi. U, mardlik bilan ish yurituvchi boy, bir narsadan - ko'z tegishdan hayiqardi. Buxoroga oppa-oston kelishi, Tal'at maqsumning odamlari bilan tuzoqqa ilinishi, nihoyat, Said Olimxon huzuriga kirib, amir bilan tez til topishishi uni sergaklantirdi. Mirkomilboy Buxorodan Afg'onistonning Mazori Sharifiga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tguncha turli xayollar girdobida azob chekdi.

Ba'zan qum barxanlari ajdahoning panjasiday bo'lib ko'rinadi. Ajdahoning o'ziga, olov purkovchi og'ziga qachon ro'para kelar ekanman, deb ko'ngli g'ash bo'ladi.

Mazori Sharifga omon-oston kirib kelganida sal hayron ham bo'ldi. Na g'ananim, na qanotidagi Muhiddin boshliq chapanilardan zahmat ko'rdi. Kutilgan yerlarda ajdaho uchramadi. Nahot u afg'on yerida poylab yotgan bo'lsa?! Xauston afg'on yerlarida ziyon-zahmat yetmasligiga kafolat berib edi...

Mirkomilboy - uzoq vaqt ko'rmagani, hamshahri Xasanxon hazrat bilan quchoqlashib ko'rishayotganda ham ko'nglining bir uchi xijil edi. Toshkentday shaharda e'tibori katta bo'lgan, Qo'qon muxtoriyatiga oham so'zini o'tkaza oladigan Xasanxon hazrat - jussasi kichkina, serjahl qariya Mirkomilboyni chindan sog'inganmide yo ko'ngil uchun shunday qildimi, har holda hamshahrini bag'ridan darrov bo'shatmadi. Qo'qondan Toshkentga qaytmay, Afg'onistonni mo'ljal qilib jo'navorgan Xasanxon hazratning e'tibori bu yerda ham yomon emasdi. Mazori Sharif noibiki, uning hurmatini o'rinlatyaptimi, demak, hazrat bu yerlarda bekor yurmagan.

Mazori Sharif noibining saroyiga o'sha kuni toshkentlik aziz mehmon bilan birga xunuk darak ham yetib keldi. Bu xabarni keltirgan chopar baraka topmadi. Xuddi bolsheviklarning elchilarini uning yolg'iz o'zi atayin qo'ldan chiqarganday noibdan tepki yedi. Rus elchilarning Karki yo'lida qurolli pistirmaga uchrab, izlariga qaytib ketishlari Xauston uchun ham, noib, Xasanxon hazrat uchun ham noxush bir hol edi. Ular daryo o'zani toraygan bu yerda elchilarning mahv etilajagiga to'la ishonar edilar. Elchilarning Chorjo'yga qaytishi, ayniqsa Xaustonna garang qildi. Endi yangi reja tuzish kerak, tuzish ham bir gap bo'lar, uni amalga oshirish-chi? Xaustonning joniga noib ora kirdi.

- O'rusiya saforati ahlini Hirotida kutib olmaq lozim, - dedi u. Xauston: "Xo'sh, undan keyin-chi?" - degan ma'noda qarab, so'zining davomini kutdi. Noib, fikrini to'la bayon etishga shoshilmadi, Xaustonning toqati toq bo'layozganda yana tilga kirdi: - Ular Mazori Sharif sari yurishlari mumkin. Ular shu yo'lida azroil changaliga tushadilar.

Xaustonning xayoliga ham shu fikr kelgan edi-yu, ammo ikkilanayotgandi. Kobulga yana ikki yo'l bo'lsa-da, Mazori Sharif orqali boriladigani ular uchun bexavotirroq edi. Karki yo'lida bir o'limdan qolgan elchilar endi ehtiyotkor bo'ladilar va eng xavotirsiz yo'lni tanlaydilar. Noib Xaustonning fikrini tasdiqladi. Shu bilan birga yaxshi taklif ham aytdi:

- Hirotga ishongan odamlar yuborilmog'i lozim. Saforat ahli orasidagi odamingiz biz yuborgan yigitlar bilan muloqotda bo'lsa bas. Xauston noib xizmatiga suyansa-da, unga to'la ishona olmas edi. U hammadan xavotirlanardi va bu odati ko'p holda uni qiyin ahvoldan olib chiqardi. Shu bois noib ajratgan odamlar orasiga Muhiddin bilan uning besh yigitini ham qo'shdi. Bu bilan noibning odamlariga o'ziga xos qo'riqchi yasadi.

Xasanxon hazrat Kobulga oshiqardi. Shu sababli bu o'yinga qiziqish bildirmadi.

Noibning odamlari bilan Muhiddin va uning chapanilari saharda jo'nadilar. Xauston Muhiddinga anchagina gap tayinladi.

Mirkomilboy ularni beriroqda kuzatib, ichidan qirindi o'tardi. Bosh silkib-silkib qo'yayotgan Muhiddinga tikilib, aytilayotgan gap mazmunini uqmoqchi bo'lardi.

2

Sarhad. Xaritada yurtlarni yurtlardan, xalqlarni xalqlardan, taqdirlarni taqdirlardan ayirib turuvchi ingichka, ilonizi chiziq.

Qog'ozda shunday jonsiz. Sarhadni bosib o'tgan odamgina bu chiziqning qudratini his etadi. Kobuldan Toshkentga qadar borgan, Toshkentdan xatarnok, tahlikali yo'llar bilan yurtga qaytayotgan afg'onlar otlaridan tushib, Yaratganga tavallolar qilib, yerni o'pdilar. Bu damda Asadulla va uning birodarlari bag'rida o'zga his uyg'ongan edi. Ular sarhadni bosib o'tishlari hamon, boshqa mamlakatga emas, go'yo boshqa olamga, qaytish mushkul bo'lgan borsa-kelmas yurtga qadam qo'yganday his qildilar o'zlarini. O'sha ko'zga tanish tuproqli yo'llar, toshli so'qmoqlar davom etayotgan bo'lsa-da, xaritada ingichka chiziq ularning qalbini shart ikkiga ayirib, yarmini bu tomonda olib qolganday, ayrilgan qalb bo'laklari faryod bilan potirlab bir-biriga talpinayotganday edi. Shu hislar o'z hukmini o'tkazgani uchun ham ancha yerga qadar gap-gapga qovushmadi. Ustiga-ustak, otda safar qilish sururi sarob ekani ma'lum bo'lib, ba'zilarning ona sutlari og'izlariga keldi. Jinga chaqa tanga childirma bo'lib ko'ringanday, hayma, idish-tovoq, oziq-ovqatga moslangan taraqa-turuq aravalar ular ko'ziga taxtiravonday ko'rindi. Mirza Qandilxon ularning ahvolini ko'rib, ikki aravani yukdan bo'shlatib, joy qilib berdi.

Chordara, Milol manzillari ortda qoldi. Parvonaga yetishsa, u yog'i Hirot...

Tog' yo'llari ularni chilla o'tobida qovjirayotgan cho'lga olib keldi. "Bizning Mirzacho'lga o'xsharkan", dedi Asadulla chor atrofga boqib borarkan.

Uzoqda gumbaz qorayib ko'rinib, karvon yo'lni o'sha tomon burdi. Pishiq g'ishtdan ishlangan sardoba yonida besh-o'n chog'li odam karvonning yaqinlashishini kuzatib turishardi.

- Turkmanlarmi? - dedi Shuvalov, ular tomon ajablanib qarab.

- Shunaqaga o'xshaydi, - dedi Asadulla. - Shu yerlik turkmanlardir.

- Qurollangan-ku?

- Bu yerdagilar qurolsiz yurmaydi, - dedi Zikriyo afandi, - yo'q deganidan xanjar topasiz.

Karvon sardobani gir aylanib o'rab, hamma o'zini muzdek suvga urdi. Asadulla suvdan to'yib ichgach, gumbaz soyasida xotirjam o'tirib olgan turkmanlarga yaqinlashib, salom berdi.

- Qarasam, turkmanga o'xshaysizlar, nechuk siz afg'onlar orasida yuribsiz yo makoningiz shu yermi? Sizlar ne vaqt bu yerlarga keldingiz? - deb so'radi yoshi ulug'roq kishidan.

- Makonimiz shu yer, yoshulli. Vaqtiki Eron shohlaridan Nodirshoh turkmanlarni taxti idorasiga olgandan so'ng, turkmanlardan askar yasab, Afg'onga hujum qilib, bu yurtni ham taxti himoyasiga olgan vaqtida bir ming uyli turkmanlarni ko'chirib kelib yerlashdirmish. Bizim kindik qonimizda buraya to'kilmish. Sening yumushing nadir, buraya na maqsadda kelibsan?

- Toshkand degan shahri azimni eshitibmidingiz?

Turkmanlar bir-birlariga qarab, yelka qisishdi.

- Turkiston turkmanlaridan narida, azim shaharlar bor. Biri Toshkand, Turkistonning poytaxti. Shundan Kobulga xayrli salom yetkazmagimiz darkor.

- Yumushing savob ekan. Yo'lingda hamhudud turkmanlarnida ko'rding?

- Ko'rdim.

- Ahvollari nechuk?

Asadulla tayinli javob berishni bilmay, ikkilandi. Turkmanlarning javob kutib, unga ko'z tikishlaridan ayonki, ular ahvolni biladilar, savol berishdan maqsadlari - eshitganlarini yanada oydinlashtirib olish.

- Turkistonda yurt og'alari bo'lak bo'lgan, eshitganmisiz? Yurtni amir ham, bek ham emas, chorikor, ishchi, hunarmandlar so'raydi. Bu beklarga xush kelmay, sho'rish boshlaganlar. Turkmanlarda bu sho'rish azobidan aziyat chekdilar.

- Eshitmish edik... Sho'rish tugab murodga yetdilarimi?

- Yo'q hali.

- Murodga yetilsa ne bo'lg'usi, turkmanlarga nalar berilgusi?

- Yer, suv, ayog'li mollarning bari...

- Beklarnikimi?

- Ha.

Turkmalar afsus deganday bosh chayqadilar.

- Nomaqbul yumush, - dedi yoshi ulug'rog'i.

- Sabab?

- O'lohdan bandalarini sinamoq uchun biriga mo'l, biriga oz vermish ekan. Yangi amir bizgada yer vermish edi, tuya vermish edi, olmaduk, birovning haqqi...

Bu gapni eshitib Asadullaning ko'z oldiga Kalasdagi mo'ysafid keldi: "Taqdirlari buncha o'xshash bo'lmasa bularning, - deb o'yladi u, - hatto ozodlik onlari ham bir vaqtda ko'z ochsa. Lekin... bizim el ozodligi o'zga. Bunda... bugun amir yer bergan bo'lsa, erta tortib olishdan tap tortmas yo birovga in'om etib yuborar. O'xshash taqdirlar shu nuqtada ayri-ayri bo'lib ketmaydimi? Ozodlik muqbil va muvaqqat deb shu jihatdan ajralmaydimi?.."

- Qochoqlarmi?

Asadullaning fikri uzilib, yonida paydo bo'lgan Ushinskiyga qaradi.

- Yo'q, yuz yillar ilgari ajdodlarini haydab kelishgan.

- O... bechoralar. Bizdagi turkmanlarga ozodlik berildi. Bular ham yerlariga qaytishlari mumkin. Tushuntirib qo'ying.

- Haqqimiz yo'q bunday qilishga. Bular Afg'oniston fuqarolari. Shu yerlarga o'troqlashib qolishgan.

- Yoshulli, - turkman shunday deb ularning suhbatini bo'ldi, - muddaong savob emish, bizga qo'noq bo'lib o't.

- Iltifotingizga qulluq. Ammo bizim ixtiyor afg'on mehmondorida.

- Qayda mehmondor?

Asadulla sardoba og'zida turib, xizmatkorlarga ish buyurayotgan Mirza Qandilxonni ko'rsatdi. Turkman borib, unga nimalardir deb tushuntirdi. Ammo u qat'iy bosh chayqayvergach, turkman avzoyi buzilib, iziga qaytdi. Bir oz o'ylanib turdi-da, enli belbog'ini yechib, kumush sopli xanjarini oldi.

- Yodgorlik senga, - dedi xanjarni uzatib, - turkmanlar haqida yomon so'ylamading. Yo'lda yarog'siz yurma.

- Rahmat sizga, mushkullaringiz oson bo'lsin, - dedi Asadulla tortiqni qabul etib.

- O'lohdan ziyoda qilsin, - turkman shunday deb sheriklariga imo qilgan edi, ular chaqqon turib, gumbaz chetidagi meshlarni otlarga yuklab, yo'lga tushdilar.

- Xanjarni nimaga berdi? - dedi Ushinskiy, ular ortidan qarab.

- Yo'lda yarog'siz yurib bo'lmas emish. Siz ham u-bu olvoling, - dedi Asadulla.

- Umuman... to'g'ri taklif, - dedi Ushinskiy, uning kinoyasini tushunmay.

Oqshomda Parvona degan rabotga tushdilar. Bu yerga ilgariroq yetib kelgan xaymadorlar chodirlarni tikishga, xizmatkorlar o'choqqa olov yoqib, qozon osishga ulgurgan edilar.

- Bu yerning asli nomi Farg'ona ekan, - dedi Zikriyo afandi chodirga kirib joylashar ekan. - Bundan avval o'tganimda rivoyat eshitib edim. Qadimda Farg'onadan bir mo'ysafid kelib bino qilgan ekan bu yerni. Shu bois ba'zilar Farg'ona ota deb ham yuritadilar. Menga o'xshab yurtga sig'may, bu yerlarga kelib, ildiz otib ketibdi. Musofirlikda o'tsa ham joyni obod qilib, nomini qoldiribdi. Unga havas qilaman. Mendan nima qoladi bu dunyoda...

- Zikriyo afandim, sizning xizmatlaringiz rabot qilishdan ulug'roq. Siz kelgusini aql ko'zi bilan ko'rib, oydinlik yo'lini ochmoq qasdida joningizni tikkansiz.

- Shu yo'lni ochishga qurbimiz yetarmikin, shu kunlarni ko'rarmikinmiz, bu harakatimiz xomxayol emasmikin, deb ko'p o'ylaga tolaman.

- Mening ortda qolgan o'ylarim bu. Xomxayollar jilmayib bersa, dunyo xandon urib uyg'onadi. Dunyoning uyg'ongani ayon-ku.

- Ilinjim ham shundan, zora bir kun uyquli baxtimiz uyg'onsa.

- Bu endi o'zingizga bog'liq, afandim. Xalqingiz g'aflat boshiga mushtlab, jaholat jomasini irg'itar ekan, baxtning uyg'onishdan o'zga chorasi yo'q.

"Odam quyoshga o'xshab o'zidan nur - mehr nurini, yaxshilik nurini tarqatib turishi kerak. Chunki atrofdagilar bunday nurga muhtoj bo'lishadi. Asadulla afandi shunday odam. Shunday o'g'lonlar mavjudligi xalqing baxti", deb o'yladi Zikriyo afandi, uning gaplarini jimgina tinglar ekan.

Chodir og'zida Shuvalov ko'rindi:

- Joylashib oldinglarmi, choy tayyormish, - dedi u ichkariga bosh suqib.

Tashqariga chiqib, Sinelnikovaga ajratilgan chodir yonidan o'tishayotganda ichkaridan Xmarinning asabiy ovozi, keyin Ushinskiyning to'ng'illagani eshitildi. Zikriyo afandi ovozlarga e'tibor bermaganday o'tib ketdi. Asadulla bilan Shuvalov esa bir-birlariga ma'noli qarab qo'ydi.

- Xonimchanning noz-firoqlari menga yoqmayapti, - dedi Shuvalov.

- Parvo qilmang. Bir o'zi bo'lgani uchun shunaqa. Hali unga, hali bunga suziladi. Sherigi bo'lganda gapdan bo'shamas edi.

- Senga ham ko'z suzyapti shekilli, a? Ba'zi sergap bo'lib qolyapsanlar?

- She'riyat shaydosi ekan, Pushkindan ko'p o'qiydi.

- Senga shaydo bo'lmasa bas, she'r o'qisa o'qiyversin.

- Shaydo bo'lishiga arzimaymanmi?

- U arzimaydi senga.

Shuvalovning ustalik bilan chap bergani Asadullaga ma'qul kelib, kulimsirab qo'ydi.

Daryodagi tahlakali kunlar uzoqlashgani sayin Ushinskiy gap kelganda Xmarindan shubhalanayotganini qistirib o'tadigan odat chiqardi. Bugun ham Xmarin Sinelnikova chodiridan avzoyi buzilib chiqib, tobi yo'qligi, charchaganini bahona qilib, ovqat yemay, turib ketgach, elchining yurish-turishi tobora shubhali bo'lib borayotganini aytdi. Bu gapga Asadulla ham, Shuvalov ham e'tibor berishmagani uchun jim qoldi.

Bu yo'llar Zikriyo afandiga tanish bo'lganidan Asadulla otda u bilan yonma-yon borardi. Xmarin bilan Shuvalov orqaroqda, Ushinskiy bilan Sinelnikova esa aravada edi. Oldinda - sovarlar orasida G'ulomqodir qaddini bukibroq borardi.

- Shu yigit ancha so'lib qoldi, sezdingizmi? - dedi Asadulla unga imo qilib.

- Sezdim, dardi borga o'xshaydi. Dardi boru dardkashi yo'q. Bundan og'ir azob yo'qdur odamga. Nazarimda, ba'zan sizning yo'lingizni poylaydi shu yigit. Sizni holi topmaydi yoinki dardini aytishga kuch yo'q.

- Dardini aytmaydi, kemada suhbat qurganmiz.



- Bular sofko'ngil, mard, o'ta mag'rur bo'lishadi. Bo'yin egishdan ko'ra o'zlariga o'limni ravo ko'rishadi.

- Bu ham yigit kishining husni, - dedi Asadulla.

Parvonadan chiqib, bir oz yo'l bosishgach, cho'l tugab, tog'lar boshlandi. Tog' orasidan chiqishgach, ko'zlariga minoralar yarq etib tashlandi.

- Hirotga yetdik, - dedi Zikriyo afandi. - Ana, to'qqiz minora...

Minoralariga yaqinlashganda Asadulla otdan tushdi.

- Shularning bir qismini Shohruh, bir qismini Mir Husayn bino qilgan deb so'ylaydilar. Bunday madrasalar zamonaning dorilfununlari bo'lgan, - dedi Zikriyo afandi.

- Imoratlari qani?

- Madrasa qo'rg'on tashqarisida ekanidan inglislilar Abdurahmonxon zamonida buzdirib tashlashgan ekan.

- Nima sababdan?

- O'ruslar Ko'shkdan bostirib kelishsa, qo'rg'on himoyasiga xalal berar ekan.

- Yo alhazar! - Asadulla shunday deb yoqa ushladi. - Savod chiqarmaganni johil desam, bu inglislilar... johil ekanlar, bag'oyat darajada johil...

- Vahshiy deyavering. Buning qadriga yetmaganga o'zga nom yo'q.

Har birining balandligi ikki yuz, aylanasi yigirma gaz kelib qoladigan minoralar mash'umliklarga guvoh bo'laverib, yemirilish pallasini boshlab yuborgan, naqshlaridan nur ketib, xatti ko'fiy ila yozilmish oyatlar anglab bo'lmas darajaga tushgan edi.

Asadulla minoralariga anchagacha tikilib turdi.

"Bu yerlar qachonlardir gavjum bo'lgan. Qachonlardir Shohruh mirzo, Ulug'bek mirzo, Mirzo Husayn Boyqarolar as'asayu dabdabalar bilan o'tishgan bu yerlardan. Minoralarning sovuq g'ishtlari balki mir Alisherning, Mirzo Boburning og'zidan uchgan g'azallarni singdirib yuborgandir... Minoralarning biri "g'urbatda g'arib shodumon bo'lmas emish", desa boshqasi: "O'z yurti qo'yub, Hind sori yuzlandim. Yo Rab, netayin, ne yuz qarolik bo'ldi", deb nola ila aks-sado berar... "Jomiydek, Navoiy, Boburdek ahli donish qadami yetgan bu muborak madrasalar bir johilning, bir vahshiyning xayolxonasiga kelgan xavotir tufayli, buzuq fikr tufayli vayron etilsa?!" Asadullaning bo'g'ziga bir nima tiqildi: bu g'azab cho'g'imi yo alam yig'isimi - o'sha topda o'zi ham bilmadi. Faqat... ko'zlari onamlanganini sezdi. "Bu minoralar nima sababdan ko'kka bo'y cho'zgan, - deb o'yladi u. - Go'zallik izlabmi yo haqiqat izlabmi? Minoralarning boshi bulutga yetib nima ko'rdi? o'Chaqqoqlarnimi? Battol shamol uning boshiga ne g'uborlarni yog'dirmadi? Ne adovatlar, ne kulfatlar, ne alamlar haqida darak yetkazmadi? Endi poyidagi imoratlardan, gumbazlardan ayrilib, kekkayib qolgan bu minoralariga urilgan shamol nimalar deyapti ekan?.."

Karvon minoralarni aylanib, ilgari qolgan edi. Zikriyo afandi Asadullaning ruhiyatiga tushungani uchun uni yurishga undamay, tek turdi. Ammo karvondan bir o'tliq ayrilib chiqib, ularga qarab kelaverdi.

- Sizlarni kutishyapti, sohib, - o'tliq shunday deb, ortiga burildi.

Asadulla otni yetaklab, minoralardan picha uzoqlashgandan keyingina uzangiga oyoq qo'ydi.

Hiri ro'd nahri bo'yiga, atrofini tog' o'ragan ajib bir vodiya, saljuq turklari tomonidan bino qilinib, ikki qat devordan qo'rg'on yasalgan, handaqlar bilan himoyalangan qadim shahar, tabarruk shahar - Hirot dunyo ellari ichida Afg'onistonni ozod, mustaqil deb tan olgan yurt vakillarini zo'r dabdabalar ila qarshilamoqda edi.

Hirot noib ul hukumasi, noibi salor, saf tortgan bir ming qadar sarbozu sovar vakola hay'atini Tuproqqo'rg'onida kutdilar. Yetti marotaba to'p otilib, aziz mehmonlar sharaflandi.

Oldinda Xmarin bilan Asadulla, sal orqaroqda Ushinskiy bilan Shuvalov mezbonlarga yaqinlashdilar.

- Buyuk Rossiyaning yangi hukumati nomidan Buyuk Afg'onistonning yangi amirini, shuningdek, amirga sadoqatli noiblarini, barcha afg'on fuqarosini muborakbod etmoq sharafiga muyassar etilganimdan bag'oyat xursandman. Biz Afg'oniston tuprog'iga qutlug' niyatlar ila qadam bosdik, - dedi Xmarin balandparvoz ovoza.

- Nekqadam azizmonlarimiz niyatlarini Olloh ziyoda qilg'ay, - dedi noib ul hukuma, sharqona lutf bilan.

- Hamhudud ellar totuvli, birodarli ne'matiga erishib, mustabidlar zulmidan xalos bo'lib yashamoq baxtiga yetishmog'i bizning yakkayu yagona umidimiz, - dedi Asadulla.

- Umidlari muborak bo'lg'ay.

Rasmiy muborakbod, tanishuvdan so'ng, qal'adan chiqib, ikki chaqirimcha yiroqdagi "Bog'i shohi" nomli noibning bog'iga boshladilar. Farahbaxsh bog'ning janub tarafiga sharq usulida ikki qavatli imorat tushgan, to'rt botmon chamasi mevazor, gulzor baland paxsadevor bilan ihota qilingan edi. Imorat qarshisida to'rt marmar hovuz bo'lib, tiniq suvda qirmizi baliqlar ohista suzib yurardi. Taom vaqti yetgani uchun istirohatga berilmay, dasturxon atrofida davra qurdilar.

3

Nonushtadan so'ng Mirza Qandilxon ikki foytun bilan Bog'i shohiga kirib keldi. Foytunlarning biriga Xmarin, Shuvalov (Xmarinning taklifi bilan), Sinelnikova, Mirza Qandilxon, ikkinchisiga Ushinskiy, Asadulla va Zikriyo afandi o'tirdilar. Oldinda G'ulomqodir bilan yana uch sovar, ortda esa o'n chog'li sovar kuzatuvda shahar ko'chalariga chiqdilar.

Bozorga olib boruvchi yo'l manzilga yetmay torayib, foytun yurolmaydigan bo'lib qoldi.

- Bozor oralash maylingiz bo'lsa, otga minamiz, - dedi Mirza Qandilxon.

Sovarlar otdan tushib, jilovni ushladilar. Sinelnikova foytundan tushayotganda Mirza Qandilxon Xmaringa:

- Xonim bunda o'tira tursinlar, - dedi.

- Valya, biz tezda qaytamiz, - dedi Xmarin, Qandilxonning maqsadini anglab.

Sinelnikova yolg'on jilmayish bilan joyiga qaytib o'tirdi.

- Mira'lamovich, payqadingmi, kotiba forschani bilmasmikin? - dedi Shuvalov, uning harakatini kuzatib.

- Bilmasa kerak.

- Hozir afg'on Xmaringa bir narsa devdi, xonim to'xtab qoldi. Tushundi shekilli.

- Vitaliy Sergeevich, nahotki...

- Sen men bilan bahslashma-yu, gap orasida bir sinab ko'r, xo'pmi?

Foytun oldida to'rt sovar qolib, boshqalar jinko'cha oralab bozorga kirib bordilar. Keng ishton, uzun ko'ylak, kalta nimcha kiygan erkaklar kaftlarini peshonalariga qo'yib, salom berib, yo'l bo'shatardilar. Yuziga oq ipdan to'qilgan parda tortgan ayollar esa devor tomon o'girilib, o'tliqlar o'tib ketguncha qilt etmasdan turardilar.

Bozor deganlari ham tor, ham betartib edi. Rastalar Turkiston bozorlaridagi kabi batartib, muntazam bo'lmay, chapaqay kalishday poyma-poy edi. Bir rasta chitfurush, yonida kavushfurush, uning yonida attor, so'ng baqqol, so'ng yana chitfurush... - aralash-quralash joylashgan edi. Yo'llar sihatga zid, badbo'y, issiq kunda ko'ngilni g'oyat behuzur qilar edi.

Unda-bunda otiqlar ham uchrar: oldinda jilovdor, ikki taraf uzangilarning yonida rikobdorl yurishidan ularning amloqdor ekani ayon edi. Bundaylar bozorda kam - to'rt-beshdan oshmas, aksar piyodalarning kimligi liboslaridan ma'lum, ular orasida to'qdan och, tuzuk liboslisidan juldur kiyimlisi bisyor edi. Mehmonlarnig bozorda paydo bo'lganini avval gadolar ilg'ashdi. Qo'llarini cho'zib, tavallo aytib, ularga peshvoz chiqa boshlashdi.

Mirza Qandilxon ikki sovarni oldinga o'tkazib, otni orqaga burdi-da, Xmarin yo'lini to'sdi:

- Qaytmog'imiz lozim, sohib.

- Bir oz aylanaylik, balki ul-bul olarmiz, - dedi Xmarin, uning qilig'iga tushunmay.

- Chetdan kelgan kishilar, kim bo'lsin, bozordan mol oladurg'on ekan, avval noib sohibdan ijozat so'ramog'i shart.

- Taajjub, - Xmarin shunday deb otini burdi.- Janoblar, jannatda ko'rmoq boru yemoq yo'q deyishardi. Biz jannatda ekanmiz.

Foytunga qaytganlarida Tuproqqo'rg'on tomonidan do'l-nog'oralar ovozi keldi.

- Qal'aga boramiz, - dedi Mirza Qandilxon.

- Nim bo'ladi u yerda, tomoshami? - deb so'radi Xmarin, hafsalasizlik bilan.

- Yo'q, sohib, Ko'shkdan olib kelganimiz, jamshidiyning boshi kesiladi.

- A? Darrov-a?

- Avvalgi o'g'riligi uchun bir qo'li kesilgan edi. U shariat bo'yicha hukm qilindi.

Xmarin uning gapini oxiriga qadar eshitmay, Sinelnikovaga yuzlandi.

- Valya, qiziq tomosha, bir qo'llik o'g'rining boshi kesilar ekan.

- Nikolay Zaxarovich! - Sinelnikova shunday deb yuzini burdi. - Dahshat... taklif qilgani uyalmadingizmi?

- Valya, axir bu yer sharq. Bundan battari ham bo'lishi mumkin.

- Nimaga to'xtab turibmiz? - dedi Ushinskiy, Xmaringa yaqinlashib.

Xmarin Mirza Qandilxonning taklifini aytdi.

- Yo'q, yo'q, Nikolay Zaxarovich, bizni bu azobdan qutqaring, iltimos, - dedi Ushinskiy Sinelnikovaga bir qarab olib.

- Bizning ishtirokimiz mutlaq noo'rin, - dedi Shuvalov uni quvvatlab.

- U holda boqqa qaytamiz, kechki ziyofatga qadar bo'shmiz, - dedi Xmarin.

- Mening Mirza Qandilxondan bir o'tinchim bor, - dedi Asadulla.

- Bosh ustiga, sohib.

- Men hazrat mir Alisher Navoiy qabrlarini tavob etmog'im shart. Abdurahmon Jomiy, Abdulla Ansoriy xoki turobini-da, ziyorat etmog'im lozim. Buning uchun noib sohibdan ijozat olmoq zarurmi yo sizningda ijozatingiz kifoyami?

Keyingi gap Mirza Qandilxonga ma'qul kelib, yayrab jilmaydi:

- Savob yumushlarga alohida ijozat joiz emas. Hoziroq boshlab boraman.

- Veniamin Samoylovich, Vitaliy Sergeevich bu yerda ulug' odamlarnig maqbaralari bor. Istanangiz, borishingiz mumkin.

- Men boraman, - dedi Sinelnikova qat'iy ohangda.

- Men ham borishim mumkin, - dedi Ushinskiy.

- Veniamin Samoylovich, siz men bilan bog'da qolsangiz, iltimos, kechki ziyofatda so'zlaydigan nutqimni bamaslahat tayyorlasak, - dedi Xmarin.

Ushinskiy o'zi kutmagan qopqonga bexos tushib qoldi.

Ularni Bog'i shohida qoldirgach, foytunlar Alisher Navoiy maqbarasi tomon yo'l oldi.

- Navoiyni eshitganman, ammo she'rlarini bilmayman, - dedi Sinelnikova.

- O'ruscha o'gurmasi yo'qdur-da, - dedi Asadulla. U hozir suhbatlashadigan ahvolda emasdi. Nazarida maqbarani ziyorat qilgani emas, balki Navoiy bilan yuzma-yuz uchrashishga borayotganday edi.

- She'ridan o'qib bering.

Asadulla darrov javob bermadi. Ayol ham uni shoshirmadi.

- Bitta baytini aytib beraman:

Bu gulshan ichraki yo'qtur baqo guliga sabot,

Ajab saodat erur, chiqsa yaxshilik bila ot.

- Bu nima degani?

- Bu deganiki... dunyoda abadiy narsa yo'qdur, hech narsa boqiy emas, yaxshilik bilan nom qoldirishgina abadiydir.

- Dono gap ekan, - dedi Shuvalov, uning so'zlarini diqqat bilan tinglab.

- Siz o'zingizga sodiqsiz, Asad Mira'lamovich, shu yerda ham falsafiy she'r aytdingiz. Nima, Navoiyning ishqiy she'rlari yo'qmi?

- She'rlar nima ekan, dostonlari bor, - dedi Zikriyo afandi suhbatga qo'shilib.

- Qani ayting-chi...

- Asadulla afandi turganlarida... meni ma'zur tutasiz.

Asadulla bu xonimdan qutula olmasligiga aqli yetib, bir bayt aytdi:

Agarchi ishq aro bo'ldi mubaddam kufr ila dinim,

Ne g'am, chun poklik rasmidurur bu ishda oyinim...

Sinelnikova bayt tarjimasini eshitib, kulimsiradi.

- Ishqiy she'r, ammo bari bir, falsafasi kuchliroq.

- Siz ishq bilan falsafani ayri-ayri qo'yasizmi?

Shuvalovning bu xilda nozikta'b bilan savolga tutishi Sinelnikovani sal gangitib qo'ydi.

- Nimaga endi, - dedi u Shuvalovga jilmayib qarab. - Sevgi - eng murakkab falsafa. Chaqilmagan yong'oq, uni hamma ham chaqavermaydi.

Shuvalovning savoli Sinelnikovani chalg'itib, Asadullaning joniga ora kirdi.

Foytun maqbaradan ancha berida to'xtadi. Asadulla pastga tushib, maqbaraga tikilganча harakatsiz qoldi. Keyin hamrohlariga e'tibor bermay, bir-bir bosib yurdi.

Zikriyo afandi unga ergashmoqchi bo'lgan Sinelnikova bilan Shuvalovni to'xtatdi.

- Nima, bu yerga ham kirish mumkin emasmi? - dedi ayol norozi ohangda.

- Mumkin, xonim, faqat keyinroq boraylik. Aftidan, Asadulla afandi sehrilanib qoldilar, xalal bermaylik.

Asadulla nuray boshlagan maqbaraga yaqinlashib to'xtaganini, keyin tiz cho'kkanini o'zi ham sezmay qoldi. Uning ko'zlari sag'nada edi: nahot buyuk bir odam shu sovuq tosh ostida yolg'iz yotgan bo'lsa, nahot bu sovuq toshlar suyaklarini ezib turgan bo'lsa... Shu xayoldan eti seskandi.

Bolaligida g'aroyibotlar, sehrgarlar haqida ko'p ertak eshitgan edi. Bu g'aroyibotlar, bu sehrgarliklar haqiqat emas, xayolot mahsuli ekanini bilsa-da, hozir ko'ngli shunday bir sehrgarlik istadi. Uning nazarida buyuklarning bu holda jonsiz yotishi insofdan emas. Qani o'sha sehrgar hozir paydo bo'lsa, bu toshlarni uloqtirib tashlasa, shoirga jon bersa, o'sha baqo gulshanidan tashvishli dunyoga qaytarsa...

"Ajab saodat erur, chiqsa yaxshilik bila ot..."

Shunday boqiylik egasi jonsiz yotsa... qanday bedodlik bu!..

Asadulla alhol barcha narsani unutgan edi. U uchun hozir faqat bir inson - Alisher Navoiy mavjud edi.

4

Kechki ziyofat chog'ida noibning bir tomonidan Xmarin, ikkinchi tomonidan Asadulla joy olgach, ularga lutfu karamlar ko'rsatildi. Taomlar keti uzilib, choyga navbat kelgach, noib Asadullaga yuzlandi.

- O'g'ri qatl etildi.

- Xabarim bor, noib sohib, qo'lingiz shariat hukmida qattiq ekan.

- Mahbusingizni so'roqqa tutdim. Qodir og'a hazratning ayg'oqchilaridan ekani aniq. Uni Kobulga yetkarmoq istagidamisiz? Men rizoman.

- Tashakkur, noib sohib. Ijzatingiz bilan so'rog'imni so'rasam... Qodir og'a hazrat... amir saroyida e'tibori zo'rmi?

- E'tiborimi?.. Sizga aniq javob qaytarmoqqa ojizman. Hazratning rahmatli amir Habibulloxon zamonida e'tibori baland edi.

- Badniyat emasmi?

Noib ul hukuma bu savolga javob berishdan bo'yin tovlab, suhbat mavzuini boshqa yoqqa burib yubordi:

- Safaringiz xatarnok bo'libdi, menga aytdilar. Endi sizlarni qaysi yo'ldan yo'llasam ekan? Kobulga uch yo'l mavjud.

- Bu sizning ixtiyoringizda, noib sohib.

Noib qalin, moshguruch soqolini silab, ancha o'ylandi. Keyin birdan qarsak chalgan edi, ziyofat ahli jim bo'ldi.

- Yo'zuq dasturxonli uy - kuni doim to'y. Azizmonlarga dasturxonimiz hamisha yo'zuq, kunimiz faqat to'y. Biroq bularga Kobulda ilhaqlik ila ko'z tikkanlarki, yo'lga uzutuvdan o'zga choramiz yo'qtur. Ma'lumingizkim, Hirotidan Kobulga uch yo'l bo'lub, biri Kandahor yo'lidurki, ellik olti rabot bo'lib, masofatan ming sakkiz yuz qirq olti chaqirimdur. Yana biri Hazora yo'lidurki, o'ttiz bir rabot bo'lub, masofatan ming chaqirimdur, uchinchi Mazori Sharif yo'lidurki, masofatan ming besh yuz ellik olti chaqirimdur, qirq olti rabotdur. Ko'rdingizki, Hazora yo'li eng yaqin, biroq azizmonlarni bu tog'liq xavfli yo'lga yo'llashga ko'nglum chopmaydur. Yiroq bo'lsa bo'lsun, azizmonlar beshkast yetmoqlari uchun Mazori Sharif yo'lini tanladim. Oллоh azizmonlarning yo'llarini oq qilub, o'z panohida asragay, omin. Tong bilan chopar yo'lga chiqub, Mazori Sharif noibiga nomai muboragimizni yetkazgay. Ertasi kuni nonushtadan so'ng vakola hay'atini noib yo'qlatdi. U Chorbog'dagi xonasida yolg'iz edi. Shundan bildilarki, noib faqat o'zini qiziqtirgan muammolar xususida suhbat yuritmoqchi. Noib suhbatdan qanoat hosil qilmadi. Chunki ko'p muammolar, xususan, Rossiyaning bermagi mumkin bo'lgan yordamlari faqat amirga aytilgusi, faqat amir bilangina hal etilguchi muammolar ediki, noibga bularni bildirib, to'ydan oldin nog'ora qoqmoqqa haqlari ham yo'q edi, lozim deb ham bilmadilar.

Bog'i shohiga qaytishgach, bir ozdan so'ng, Xmarin Asadullaning xonasiga kirib keldi:

- Muhojir qani? - dedi u asabiy tarzda.

- Men siz bilan birga edim.

- Muhojir ham, Valya Sinelnikova ham yo'q. Qayoqqa ketgan bo'lishlari mumkin?

Savol javobsiz qoldi.

Zikriyo afandi bilan Sinelnikova hech qaerda yo'q edi. Ular tushlik taom vaqtida ham ko'rinmadilar.

- Bir yoqqa ketishga bo'lsa tushlikka yetib kelishadi, - dedi Xmarin, so'ng Mirza Qandilxonga borib, voqeani bayon qildi.

Ularning chiqib ketgan-ketmaganidan sarbozlar ham bexabar edilar. Birpasda hammayoq taloto'p bo'lib ketdi.

Boshi tosh bilan urib majaqlangan Zikriyo afandining jasadini, ko'yaklari poralangan, tomoqlari tishlanib, rangi bir ahvolga tushgan Sinelnikovani oqshomga yaqin olib kelishdi.

Tuni bilan ko'zlariga uyqu ilinmadi.

Tongda Zikriyo afandini, Vatan hajrida o'rtanib yongan, sargardonlik zahridan bag'ri kuyib, adoyi tamom bo'lgan, yurti saodati abadiyasiga bir ishonib, bir ishonmay yurgan hind inqilobchisini Hirot tuprog'iga qo'yidilar. Bu, ayniqsa, Asadulla uchun musibatli va alamangiz bo'ldi.

Qabrga tuproq tortilib, odamlar tarqay boshlaganda ham Asadulla harakatsiz turardi. Asadulla Zikriyo afandi bilan bir necha haftagina hamsuhbat, hamroh bo'ldi. Ana o'sha birgalikda o'tgan kunlar ikki pokiza dilni bog'ladi. Zikriyo afandi Asadullaga Hindiston haqida, oilasi, birodarlari haqida so'zlab bergan edi... Bu so'zlarni Asadulla keyinroq, Zikriyo afandini o'ylagan kezlari eslaydi. Hozir, qabr yonida, marhumning kuyinib aytgan gaplari qulog'i ostida jaranglaydi.

"Men ko'p narsani da'vo qilmayman. Yurtim ozod bo'lsa bas. O'zim osmonni sevsam deyman. Yerni, so'ng shu tuproqda yurgan barcha odamlarni, bor beg'uborligi, bor fazilatlarini, hatto bor qusurlari bilan sevsam deyman. Boshqa ilinjim yo'q mening..."

Dafn marosimidan qaytishgach, Sinelnikova bor gapni aytib berdi: Zikriyo afandi uni bozorga borishga ko'ndiribdi. "Kecha bozorni ko'rmay qolgan edingiz, men ham ul-bul xarid qilishim kerak", debdi. Bozorni ko'rolmay qolgani Sinelnikovaga alam qilgan ekan, ko'nbidi. Bozor yo'lidagi jinko'chada ularning yo'lini uch-to'rt afg'on to'sibdi... Zikriyo afandi chorasiz qolibdi...

Afg'onlarning ma'lum qilishicha, voqea sodir bo'lgan uy tashlandiq emish. Buni eshitib, Shuvalov o'ylanib qoldi: "Bu tasodifmi yo yo'l poylashganmi?"

Shu voqea sabab bo'lib, yo'lga chiqishlari yana bir kunga kechikdi.

Kobul sari yurib, ikkinchi rabotga qo'nishganda shakl-shamoyili, fe'l-atvori afg'onlardan butkul farqlanuvchi, yuz tuzilishi Turkiston qirg'izlarini eslatuvchi odamlarni uchratib, Asadulla ajablandi. Asli mo'g'ul bo'lib, Bobur zamonida ham mo'g'ul tilida gaplashgan, keyinchalik forsiylashgan bu xalq to'g'risida eshitgan edi. Lekin ular Mazori Sharif yo'lida emas, o'z nomlari bilan ataluvchi Hazora yo'lida yashashlarini ham bilardi. Uch-to'rt hazora bilan gaplashgach, Shuvalovni ogohlantirdi.

19 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

19 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Uzsmart.UZ

Kitoblar olami

SEVER.UZ

Ka4ka.UZ

Original Mp3 To'plami

- Demak, noib ham bir nimadan hadixsiragan. Kimlarnidir chalg'itmoqchi bo'lgan, - dedi Shuvalov. - Demak, hali ham xatarda ekanmiz.

Erta saharda afg'onlar besaranjom bo'lib qolishdi. Kun yoyilay deganda rabotga G'ulomqodir kirib keldi. Otga o'ngargan odamni xuddi uloq tashlaganday Mirza Qandilxon oyog'i ostiga tashladi.

- Qochgan ekan, sohib, kimdir birov arqonlarni kesibdi, xanjar ham beribdi qo'lga, - u shunday deb kumush sopli xanjarni uzatdi. Asadulla uni tanidi: Parvona yo'lida turkman bergan xanjar...

Xanjarni Ushinskiy ham tanib, Asadullaga savol nazari bilan qattiq tikildi.

Qalandar o'ziga kelib qimirladi. G'ulomqodir uni yelkasidan changallab, qaddini ko'tardi.

- Nimaga qochding? - dedi Mirza Qandilxon, unga o'qrayib. Aftidan, tepkilaydigan ishtahasi bor edi-yu, mehmonlar izzatini qilib, o'zini bu ishdan tutayotgan edi.

- Sohib buyurdi, - dedi qalandar, unga qo'rquv bilan javdirab qarab.

- Qaysi sohib?

- Qalandar o'girilib, Xmaringa tikildi.

- Ana u...

Hamma yalt etib Xmaringa qaradi. Xmarin avvaliga tushunmadi. Keyin birdaniga rangi quv o'chib ketdi. Lablari titradi. Qalandar tomon bir-ikki qadam bosdi. So'ng to'xtab, Mirza Qandilxonga o'qraydi.

- Bu ne tomosha, Mirza Qandilxon?! - dedi baqirib.

- Bu ne tomosha ekani menga- da, ayon emas, sohib, - dedi Mirza Qandilxon g'azabini yashirmay.

- Shundaymi?.. - Xmarin qalandar ustiga bostirib bordi. - Sen nimasan o'zing, qalandarmisan, ayg'oqchimisan yo alayhilla'namisan, seni kim qochirdi, kim xanjar berdi, ayt!

Qalandar bir oz hadixsiragan holda Xmaringa qarab turaverdi.

- Ayt! - dedi Xmarin, jonholatda qichqirib.

- Siz, sohib...

- Shundaymi... xo'sh, nimaga qochirdim?

- Mazori Sharif yo'lidan adashganimizni yetkaz, dedingiz.

- Nima?! - Xmarin Mirza Qandilxonga savol nazari bilan qaradi: - Qaysi yo'ldan boryapmiz?

- Hazora yo'li bu, sohib.

- Bu qanaqasi!!! Bu qanaqasi, deyapman?!

- Sizlarni Kobulga beshikast yetkazmoq maqsadida bo'ldi bu.

Asadulla Xmaringa yaqinlashib, uni bilagidan ushladi:

- Nikolay Zaxarovich, yuring, gaplashib olaylik,- Asadulla shunday deb Mirza Qandilxonga qaradi. - Biz kengashib olmog'imiz shart. Qalandarga biror kori hol bo'lmasin. U yolg'on so'zlayapti.

Chodir og'zida paydo bo'lgan Sinelnikova qalandarga ajablanib qarab qoldi. To'rtovlon ayolga e'tibor bermay Shuvalovning chodiriga kirdilar. Asadulla qalandarning gapini bayon qildi.

- Bir narsaga hayronman, - dedi Ushinskiy, - xanjar sizniki edi shekilli, Asadulla Mira'lamovich?

- Ha, meniki edi. Lekin men uni Nikolay Zaxarovichga hadya qiluvdim.

- Qiziq.. hadya birovga oshirilmas edi shekilli?

- Men iltimos qildim, - dedi Xmarin, uning gapini shart bo'lib. - Men noyob qurollarga o'chman. Toshkentda yigira uch xanjarni qoldirib kelganman. Asadulla Mira'lamovichni tinch qo'ying, agar o'sha la'nati qalandarning gapiga ishonsangiz, mana, meni jazolang.

- Nikolay Zaxarovich, jazolash haqida gap bo'lmayapti-ku? - dedi Shuvalov bosliqlik bilan. Uning xotirjamligi majlis ahlidagi botiniy asabiylikning portlab, zohirga chiqishiga yo'l qo'ymadi.

- Afg'onlar Hazora yo'lidan borajagimizni atay yashirishgan, - deb davom etdi Shuvalov, - buning uchun ulardan o'pkalash kerak emas.

- Siz bilarmidingiz? - deb so'radi Ushinskiy.

- Kecha ma'lum bo'ldi, Mira'lamovich aytdi, yo'lovchilar bilan gaplashib bilibdi.

- Demak, faqat ikkovingiz bilgansiz... Qiziq... Nikolay Zaxarovich, yo'lga chiqadigan kunimiz nima uchun noibga uchrashdingiz?

- Noibning o'zi yo'qlatuvdi. Yo'qlamagan taqdirda ham borar edim. Diplomatiya rasmi shunaqa.

- Shunaqami? Noib nima dedi?

- Oq yo'l tiladi... tashviqot yurgizmanglar, dedi. Rossiyadagi ishchi-dehqon qo'zg'oloni haqida gapirishni man qildi.

- Nima uchun buni o'sha vaqtda bizga aytmadingiz?

- Aytganim bilan boshqacha tushunardingiz.

- Nikolay Zaxarovich, iltimos, chodiringizda bo'lib tursangiz. Firqa guruhi kengashib olishi kerak.

- Qaytib ketishga tayyorlanaveraymi?

- Nikolay Zaxarovich, - Shuvalov shunday deb, uni yelkasiga qo'lini qo'ydi. - Yosh bola emassiz-ku, a?

- Vitaliy Sergeevich, elchiga juda mehribon bo'lib ketibsizmi? - dedi Ushinskiy, Xmarin chiqib ketgach.

- Veniamin Samoylovich, biz afg'onlar yeridamiz. Har bir harakatimiz ularning kuzatuvida. Har bir so'zimizga quloq tutishadi. Oramizdagi ixtilofni sezishsa, safarimizdan durust natija chiqishi qiyin.

- Janob Xmarinning xatti-harakatlari boshidayoq menga shubhali ko'ringan. Hamma shubhalar tasdiqlandi: avval Karki yo'lga boshladi, pistirmaga duch keldik, keyin mana bu voqea. Men uni elchilikdan chetlashtirishni taklif qilaman. Bolshevik sifatida unga ishonchsizlik bildirishimiz zarur.

- Taklifingizga qo'shilmayman, - dedi Asadulla, - uni elchilik huquqidan mahrum qila olmaymiz. Yorliq uning nomiga yozilgan. Moskvadan favqulodda muxtor elchi yetib kelguncha Afg'oniston amiri bilan faqat shu odamgina Rossiya hukumati nomidan gaplasha oladi.

- Veniamin Samoylovich, shubhangizga ham, taklifingizga ham qo'shilmayman. Karki yo'lidan borishga siz ham undagansiz,



esingizdami? Qalandarning gapiga kelsak... U sizni yoki meni ham ko'rsatishi mumkin edi. Nikolay Zaxarovich qaysi yo'ldan ketayotganimizni bilmay turib, qanaqasiga uni Mazori Sharifga yuboradi? - dedi Shuvalov.

- Bilgan bo'lsa-chi? - deb bo'sh kelmadi Ushinskiy.

- Bilmagan. Bunga ishonaman. Xo'p, deylik, u bizni yana pistirmaga ro'para qilmoqchi bo'lgan. Bu unga nima uchun kerak? Avvalo atrofimizda o'zimiznikidan tashqari afg'on askarlari ham ko'p. O'zimizni himoya qila olamiz.

- Yengil o'ylamang, Vitaliy Sergeevich, hamma narsa bo'lishi mumkin. Shuning uchun taklifimni kun tartibidan olmayman.

- Xohishingiz. Ovozga qo'ying bo'lmasa.

- Ovozga qo'yaman: demak, ikki kishi qarshi... Yaxshi. Ilojim qancha. Ziyraklikni yo'qotib qo'yibsiz o'rtoqlar, ogohlantiraman.

Elchining begunohligini isbotlash uchun qalandarni so'roq qilishingizni qat'iyan talab qilaman.

- Veniamin Samoylovich, buni afg'onlarga qo'yib beraylik. Bizga bari bir aytmaydi.

- Sizning beparvoligingiz meni hayratga solyapti, chekist bo'lganingizga ishongim kelmay qolyapti.

- Men vazifamni unutganim yo'q. Ichimizda sotqin yo'q ayg'oqchi bo'lsa mendan qochib qutulolmaydi, ishonavering.

Kengash shu tarzda tez va besamar yakun topdi. Ushinskiy chodirdan norozi qiyofada chiqib ketdi. Asadulla bilan Shuvalov qo'shni chodirga kirishdi.

Xmarin xanjarni jomadondan kim, qachon olgan bo'lishi mumkinligini bilolmay boshi garang ekanini aytdi.

- Nikolay Zaxarovich, kotibangiz... forschani tushunadimi?

- Valentina Nikolaevnami?.. Yo'q, nima, siz undan shubhalanyapsizmi?

- Yo'q, shunchaki so'radim. Ha, yana bir narsani so'rasam: Valentina Nikolaevnani ko'pdan bilasizmi?

- Ha. Petrogradga tanishganman. Bama'ni oilaning farzandi. Otasi injener. Bu oila siyosatga aralashmas edi. Valyani Toshkentda uchratib qoldim. Otasining izidan kelgan ekan, otasi qo'zg'olondan keyinoq uyiga qaytgan ekan. Moskva yo'li berkilgach, Valya chorasiz qolib, Tashqi ishlar nozirligida ishlayotgan ekan. Safarga uni men taklif qilganman. Undan shubhalanishingiz... qiziq, o'zi bu ahvolda bo'lsa-yu... U yengiltak ham emas, ishoning. Faqat Ushinskiy xiralik qilib joniga tekkan. Men nafratlanaman bundaylardan. Rossiyaning sharafini bulg'ashadi bular.

- Nikolay Zaxarovich, bu ishni sizningcha kim qilgan bo'lishi mumkin? Har holda qalandar qochgan, endi sizga tuhmat qilyapti.

Maqsadi nima?

Xmarin: "Rost gapiryapsizmi?" - degan qarash bilan Asadullaga tiqildi.

- Ha, tuhmat bu, - deb ta'kidladi Asadulla, - unga ishonchimiz yo'q.

- Rahmat, janoblar... Meningcha bu... afg'onlarning ishi ham bo'lishi mumkin.

Shamol bulutni, bulut yomg'irni haydab kelganidek, muammo muammoni boshlab kelaverdi. Muammo osmonini timqora bulut bosdi - yomg'ir yog'adimi, do'lmi, qormi, noma'lum edi. Bulutning tomchi tashlamay o'tib ketishiga ham umid bor edi.

Asadulla tashqariga chiqib, G'ulomqodirni izladi. Chodirlar ortida otga yem berayotgan sovarni topib, gapga soldi. G'ulomqodir ot kishnashidan uyg'onib ketganini, keyin uzoqlashayotgan chavandoz sharpasini ilg'ab, izma-iz quvganini gapirib berdi. Shundan so'ng Asadulla Mirza Qandilxonga uchrab, qalandar so'zlari tuhmat ekanini, elchidan bunday nopok xatti-harakat gumon qilishning o'ziyoq gunoh ekanini aytdi.

Mirza Qandilxon "qalandarning qornini yorib bo'lsa ham, haqiqatni oydinlashtirishga" va'da berdi.

Asadulla chodiriga qaytayotganida ko'kragida qo'qqis og'riq turib, nafasi siqildi. Ko'z oldi qorong'ilashib, boshi aylandi. Chodir qozig'iga uzatilgan qo'l muallaq qolib, behol yiqildi.

Ko'zini ochganda o'zini chodirda ko'rdi. Shundaygina yoniga afg'on tabib chordana qurgan. Sal narida vakola hay'ati - bari jam bo'lgan.

- Ollohga shukr, dard forig' bo'ldi, - dedi tabib, - sohib, andak horigansiz, hordiq chiqarmog'ingiz darkor ekan.

Asadullaning betobligi sabab bo'lib, o'sha kuni rabotda qolishdi.

Erta tongda afg'onlar yana taloto'p ko'tarishdi: kimdir qalandar saqlanayotgan chodir orqasini kesib kirib, "Ollohning sevgan bandasi" bo'g'ziga pichoq sanchibdi. Bundan nafaqat soqchi, balki gunohkor bandaning o'zi ham g'aflatda qolgan ko'rinadi.

Ikkinchi bob - ayriliq va diydor

1

Asadullaning boshi aylanib turgani uchun uni taxtiravonda ketishga ko'ndirishdi. Taxtiravon deganlari ko'rinishidan ancha xunuk - Turkistonning o'lik ko'taradigan anbarini eslatar edi. Bu arobaning bo'yi ham, eni ham bir yarim gaz bo'lib, ichiga tushgan inson bolasi oyoq uzatib yotish rohatidan mahrum, ustiga-ustak, bu arobaning oldi bilan ortiga ikki ot qo'shilib, "ravon" qilinar ekan.

Mabodo otlar yo'rtib qolsa ichidagi sog' odam og'rib, og'riq bo'lsa u dunyo safariga tadorik ko'rib qolishi hech gap emas ekan.

Asadulla bu "rohatijon maofa"da uzoq yurolmay, tavba-tazarrular bilan yana ot minib yurmoqqa majbur bo'ldi.

Turon degan rabotga qo'nishganda Asadulla ancha holdan toyan edi. Shu bois kechki taomdan so'ng gurunglashib o'tira olmay, chodiriga kirdi. Yarim kechada sharpa sezib, cho'chib uyg'ondi.

- Sardor sohib, gunohimdan o'ting, halovatingizni buzdim.

- G'ulomqodir, sizmisiz? Asti xijolat bo'lmang, keling, o'tiring.

- Siz yaxshi odam ekansiz, sohib, ko'rib, sezib yuribman. Afsus, bizim urug'dan emassiz.

- Bu afsusingiz chakki. Bani basharning bari bir-biriga qarindosh-urug'.

- Dono odamsiz, sohib.

- G'ulomqodir, sizga nima bo'ldi, ruhingiz past?

- Vidolashgani kirdim, sohib, bu tun Choraymoqqa jo'nayman.

- Mirza Qandilxon yuboryaptimi?

- Yo'q, sohib. Bundan kunbotar sari yurilsa, mening urug'im yerlari boshlanadi. Men bu yerlardan bosh burib o'tolmayman.

Urug'dan chiqar chog'imda menga marhamat qilgan edilar, qasos oluvimga imkon berib edilar, men uddalay olmadim.

- G'ulomqodir, so'zlaringizdan hech nima anglamadim?

- Choraymoqqa borishim kerak, vassalom. O'zga narsalarni so'ramang, sohib. Kiruvimning boisi bo'lak: Karki yo'lida, Said

G'afforbek ko'z yummay turib, sizni yo'qatgan edi, eslaysizmi?

- Ha, esimda.

- Kim edi u? Birodaringiz emasmidi?

- Bir vaqtlar birodar bo'lganmiz...
- U holda... - G'ulomqodir tiz cho'qdi, - gunohimdan o'ting.
- Nimalar deyapsiz?
- Sohib, uni men otganman.
- Siz?
- Ha...
- Nimaga?
- U avval o'rus sohibni otdi. Keyin siz chiqib, paxta bilan uning qonini artar mahalingizda nazarimda sizni nishonga olib edi. Men... adashibman, birodaringiz ekan-ku...
- Adashmagansiz. U badniyati ila bizga qo'shilib ekan. Sizning zarracha gunohingiz yo'q.
- Mendan rozi bo'ling, sohib.
- G'ulomqodir, ketmang.
- Sohib, jo'nashimni birovga bildira ko'rmang, Xudo umringizni ziyoda qilsin..
- G'ulomqodir Asadullaga yaqinlashib engashdi-da yuzini yuziga qo'yib xayrlashganicha chodirdan chiqdi.
- Asadulla nima qilarini bilmay, gangidi. Yumshoq to'shak ustida emas, tikanaklar ustida yotganday bezovtalanaverdi. Tashqarida nonushta hozirligini boshlagan xizmatkorlar sharpasi eshitilgach, o'rnidan turdi. Mirza Qandilxonning chodiriga borib, ovoz berdi. Mirza Qandilxon Asadullani ovozidan tanib, "yana tobi kelishmadimi", deb o'yladi. So'ng, G'ulomqodir voqeasini eshitib, ko'zlaridan uyqu qochdi.
- Umri qisqa ekan-da, - dedi bosh chayqab, - afsus, yovqur edi...
- Uni o'lim kutyaptimi? Boshqa chora yo'qmi?
- Begunoh qon to'kkan bo'lsa, qasos olishadi. Choraymoqni bilaman. Qoidalari ayovsiz.
- Bunga yo'l qo'yimaslik lozim. Siz amir nomidan borsangiz-chi?
- Huquqim yo'q.
- Biz borsak-chi? Gunohini so'rab olsak-chi? Balki xun to'larmiz?
- Choraymoqqa begonalarning so'zi o'tmaydi.
- Ijizat bering, o'zim boray.
- Xiyla o'jar ekansiz, sohib. Besamar yumushni bo'yningizga olmang.
- Yosh umrga rahm qiling, uvol ketmasin. Amirning maktubini yetkazib, xayrli ish qilgan sovarni o'limga topshirib ketuvingiz gunohi azim emasmi?
- Amirning maktubini eslab, Mirza Qandilxon o'yg'a soldi. Darhaqiqat, bu sovar maktub eltgan edi. Uni Tirmizda sardor Muhammad Valixon safga qo'shgan edi. Unga bu mas'ul yumush topshirlagan ekan, demak, chakana sovar emas... Mirza Qandilxon aniq qarorga kelib, xizmatkorni chaqirdi.
- Otlar egarlanib, o'n chog'li sovar uzatuvida Asadulla bilan Mirza Qandilxon yo'lga chiqishdi.
- Otlarga tinim bermay, kun yoyilganda Choraymoq joylashgan qishloqqa kirib borishdi. Urug' oqsoqoli - yelkalari keng, qirraburun, ko'zlari o'tkir, ovozi jarangli odam - ularning niyatlarini bilib, bosh chayqadi.
- G'ulomqodir mening mana shu yelkalarimda ulg'aygan, - dedi u. - Choraymoqda uning o'ldiga tushadigan yigit yo'q.
- Nadomatkim, gunohga botdi. Uni olib ketib, jonini qiynamang. Qonga qon bilan xun to'lashi lozim. Hali-zamon qizning heshlari keladi. Xalal bermangiz.
- Uning gunohi nima? - dedi Mirza Qandilxon.
- Bilmaysizmi? - ajablanti oqsoqol. - Aytmadimi? Ma'lumingiz bo'lsinkim, G'ulomqodir zavjasining jonini olgan. Ammo zavjasiga qo'shilgan erkakni qo'ldan chiqargan. Ayolini begona erkak ila o'ldirganda edi, gunohdan forig' bo'lardi, undan xun talab etilmas edi. Choraymoqning qonuni - shu! Puxtun valalni buzmoqqa hech bir kimsaning haddi yo'q!
- U amirning sovari... - dedi Mirza Qandilxon e'tiroz ohangida.
- Bu menga ma'lum, - dedi oqsoqol uning gapini bo'lib. - Choraymoqqa bir ingliss kelib edi. Tijorat yumushlari bilan kelib turguchi edi. Shul zot zavjasini zo'riganmi yoinki ayol o'z xohishi ila qo'shilganmi, bu bizga qorong'i. Bizga ayoni shuki, ingliss qochgan. Uni topish mushkul vazifa. Amir inglissga qarshi lashkar to'plamoqda deb eshitib edik. "Muhoribaga bor, shahid ketsang rozimiz, omon qaytsang, gunohingdan kechamiz", deb edik. Unga ot berib edik, yarog' berib edik. Muhoribaga nasibasi qo'shilmabdi. Joni shu yerda olinadi. Yozug'i shu ekan bolamning. Bu ham uning saodati. jasadi begona tuproqqa qo'yilmaydi.
- Amir uni muhoribadan ayirib, mas'ul... savob yumush bilan sarhadga yo'llagan, - dedi Asadulla suhbatga qo'shilib. Oqsoqol unga tikildi.
- Siz kimsiz? Bizim a'yonlarga o'xshamaysiz.
- Asadulla kimligini, vazifasi, niyatini aytdi.
- G'ayriyurt bo'laturib, G'ulomqodirga nechuk kuyinyapsiz? - dedi oqsoqol, uning so'zlarini eshitib.
- U bizning jonimizni asrab qoldi.
- Buni o'zi aytdimi?
- Asadulla Mirza Qandilxon oldida Said G'afforbek o'limini eslashni lozim topmay, yolg'on gapirdi:
- Yo'q, o'zimiz ko'rdik. Yo'lda yov bizga hujum qildi. G'ulomqodir misoli sher olishdi. Jonini ayamadi.
- Haq rost bu, - dedi Mirza Qandilxon, uni quvvatlab.
- Yov... ingliss edimi? - deb so'radi oqsoqol.
- Inglisni o'zimiz ko'rmadik. Ammo... yovni ingliss yo'llagani aniq.
- Oqsoqol o'yg'a soldi.
- Biz kengashib ko'ramiz, - dedi bir ozdan keyin.
- Oqsoqol chorlagan kengash ko'p cho'zildi. So'ng qishloq ahli maydonga to'plandi. Oqsoqol qarorini shunda ma'lum qildi. O'limni bo'yniga olib, bir chetda ma'yus turgan G'ulomqodir amir xizmatiga qaytishi lozimligini bilib, baqirib yubordi. Qo'llarini ko'tarib, tiz cho'kkancha sudralib, oqsoqolga yaqinlashdi-da, uni tizzalaridan quchdi.
- Jonimni qiynamang meni, xunxo'rlarga topshiring. Topshiring xunxo'rlarga!
- Oqsoqol uning yolborishiga e'tibor bermadi.
- Sening xuningni amir sohib hazrat to'laydi. Shundaymi? - Oqsoqol Mirza Qandilxonga qaradi. Bu kutilmagan savoldan Mirza

Qandilxon gangib qoldi. Yaxshiki oqsoqol undan javob talab qilmadi. Yo'qsa, nima deyishi o'ziga ham qorong'i edi. G'ulomqodir onasi bilan rozi-rizolik tilashib, tark etgan edi bu qishloqni. Uni hech yerda o'lim bag'riga olmadi. Jon berishni istab kelib edi, bu yerda ham o'lim undan qochdi. Endi yana onasi huzuriga kirdi. Rozi-rizolik tilab kirdi yana. Yuzlari onasining ko'z yoshlaridan jiqqa ho'l bo'ldi. Yuragi onasining nolalaridan poralandi. Ko'z oldini alam, hijron pardasi to'sdi. Tomog'ini ayriliq panjasi bilan bo'g'di. Uyidan chiqib, kutib turgan sovarlar sari yurdi. Asadullaga ro'para kelib, to'xtadi. Unga mungli nigohini qadadi. Asadulla bu nigohga dosh berolmay, ko'zlarini olib qochdi.

- Sizdan rozi emasman, sohib...

G'ulomqodirning sekin aytgan bu gapi darani gumburlatib yuborganday, atrofini aks-sado tutib ketganday tuyuldi Asadullaga. "Sizdan rozi emasman, sohib... Sizdan rozi emasman..."

Asadulla uning dardini tushunib turardi. Lekin shunday yosh yigitni nodon o'lim qo'liga topshirib keta olmas ham edi. Rabotdagilar bularni sovar izidan ketganini bilib, qalandarni o'ldirgan odam topilibdi-da, degan xayolga borishgan edi. Bunday bo'lmaganini eshitib, hammalari ajablanishdi.

2

Kobulda elchilarni intiqlik bilan kutayotgan bo'lsalar-da, karvon oshiqmas edi. Vakola hay'atini tog'li-toshli yo'llarda urintirib qo'ymaslik uchun mehmondor karvonning ildamlashiga yo'l qo'ymasdi. Kun yoyilmay bir rabotdan yo'lga chiqib, kun botarda ikkinchisiga qo'nib, asta-sekinlik bilan Kobulga yaqinlashar edilar. Bosib o'tgan rabotlarining barchasi bir-biriga o'xshash: bir suratda, bir qolipda, bir usulda ishlangan: biridan ikkinchisiga ko'chib borgan kishi avvalgisidan bunisini ayirmog'i uchun o'tkir zehn sohibi bo'lmog'i lozim edi. Rabotlarga amir tomonidan tayin etilgan arboblarning karvonni oqshom chog'i ehtirom ila kutib olishar, sabohda esa lutflar ko'rsatib uzatardilar. Shu zaylda karvon Hirot viloyati chegarasini bosib o'tib, Kobul viloyatiga qadam qo'ydi.

Chilla chiqib, kun ancha salqinlashdi. Ayniqsa kechalari izg'irin turib, Asadullannig ko'krigidagi og'riq bot-bot azob bera boshladi. Ayniqsa, kunda olti-etti tosh masofani otliq bosib o'tish mashaqqati ham holdan toydira berdi.

Bugun yo'l ancha tekis bo'lganidan ildamroq yurishganmi, har holda Panjob rabotiga oqshom tushmay yetib kelishdi. Besh tomondan besh irmoq kelib qo'shiluvchi yerga qurilgan rabot atrofi benihoya manzarali edi. Shu manzarasi bilan ham uni o'zgalardan darhol farqlash mumkin bo'lardi.

Taom hozirlangunga qadar Asadulla rabotdan tashqariga chiqib, tiniq irmoq bo'yida bir oz hordiq chiqarmoqchi bo'ldi. Irmog'ning tomon yurdi-yu, katta xarsang ustida kunbotarga boqib o'tirgan G'ulomqodirni ko'rib, avvaliga to'xtadi. Unga xalal bergisi kelmadi. O'sha kundan beri necha rabot bosib o'tsalar-da, G'ulomqodir undan o'zini nari tutadi. Biroq, bu hamiyatli yigitni shu ahvolga solib qo'yaverish ham insofdan emas. Jismoniy o'lim changalidan tortib olib, ma'naviy o'limga - uzoq davom etadigan azobga yem qilish - o'taketgan berahmlik, badkirdorlik ekanini Asadulla bilar edi. Shu uchun ham yigitni o'z holiga butkul tashlab qo'ya olmasdi.

U beixtiyor G'ulomqodir tomon yurdi. Yigit sharpani sezib, orqasiga o'girildi. "Nimaga kelyapsiz?" - deganday Asadullaga bir nafas tikildi-da, so'ng yana burilib oldi. Asadulla indamay kelib, uning yonidagi kichikroq toshga omonat o'tirdi. Irmog' adog'iga, yigit tikilib turgan yoqqa qaradi: kun qizarib botyapti. Go'yo ufq qonga belangan, go'yo irmog' qorli emas, qonli cho'qqidan boshlanadi, go'yo bu irmog'dan suv emas, qon oqadi, so'ng kela-kelguncha tinib, suvga o'xshab qoladi...

Asadulla engashib, kaftiga suv oldi. "Bu yigitning qalbi shu suv kabi toza, tiniq. Shafaq suv yuziga rang berib, ko'zni aldayapti. Bu yigitning ham ko'ngil ko'zi aldayapti. Shafaq ketsa, aldanchi rang yo'qoladi. Ammo ko'ngil ko'zidagi rang pardani qanday yo'qotish mumkin?..."

G'ulomqodir yonida o'tirgan Asadullaga qaramadi ham. Ufqqa tikilib o'tira-o'tira, o'rnidan turdi. Asadulla ham qo'zg'aldi.

- Inim, mendan ranjiganingiz nojoiz.

G'ulomqodir bu gapga dastlab parvo qilmadi. Ammo uch-to'rt qadam bosgach to'xtab, o'girildi:

- Siz mening jonimni asrayman, deb jonimni qiynoqqa solib qo'ydingiz, sizdan rizo emasman, - dedi u sovuq ohangda.

Bu safar uning gaplari toshlarga urilib, aks-sado bermadi, aksincha muz bo'lib, Asadullaning vujudini titratdi.

- Men sizning joningizni emas, imoningizni asradim. Bejanoza ketishdan asradim sizni, - dedi u.

- Bu nima deganingiz?

- Siz xunxo'rlarga joningizni in'om etmoqchi edingiz. Hech bir olishuvsiz, ko'ksingizni xanjarga tutib berardingiz. Shundaymi? Ha, shunday. Bu esa inim, o'z-o'zini o'ldirmoq ila barobar. Bundaylarga janoza o'qilmaydi, to'ng'iz qavmida ketadi. Bu dunyoingiz kuygani kammi edi, u dunyoingizni ham kuydirdingiz.

G'ulomqodir birdan bo'shshadi. Sovuq boqayotgan ko'zlari mo'ltillab qoldi.

- Rostmi shu? - dedi u qult etib yutib.

- Shariat hukmi bu. Bundaylar ahli muslim yotgan qabristonga ham qo'yilmaydi. Yakka-yolg'iz, bir chetga qo'yiladi. Men buni sizga ravo ko'rmadim. Aybim shu.

G'ulomqodir boshini xam qilgan xarsangga qaytib o'tirdi.

- Men o'limni istayman, sohib, u mendan ne uchun qochdi? - dedi xo'rsinib.

- O'limni o'ylashingiz chakki. Sizga zehn, idrok ne uchun berilgan, kuch-quvvat ne uchun berilgan, nodon o'limga bo'yin egish uchunmi! Yo yurtga omonlik keltirsin, ne'matlardan to'yib-to'yib, quvonib-quvonib bahramand bo'lsin debmi? Siz yashashingiz, ortingizda zurriyod qoldirishingiz lozim.

- Asadulla yigitni shu gaplari bilan ovuntirganday bo'ldi.

Rabot tomonda yana bir karvon ko'rindi.

Asadulla yigitni yolg'iz qoldirishni ma'qul ko'rib, iziga qaytdi.

Rabotga kichik karvon qo'ngan edi. Rabot arbobining pitirlab qolganiga qaraganda baobro' odamlar kelgan ko'rinadi. Hovli sahniga ko'rk berib turgan chinor yonida Xmarin ikki a'yon bilan gaplashib turardi. Asadullani ko'rib, chaqirdi.

Asadulla Mir'alamovich, buyoqqa keling.

Ikkala a'yon ham Xmarin murojaat qilgan tomonga o'girildi. Biri uzun bo'yli, qotma, yonoqlari bo'rtib chiqqan afg'on edi. Yana biri... o'rta bo'y, to'la, qo'yko'z, kalta soqol-mo'yilab... yopiray... tushimi yo o'ngimi bu?!

- Toshkentga borayotgan elchilar bilan uchrashganimizni qarang. Amir ketma-ket ikkinchi vakolani ham otlantiribdi. Tanishing:

general mirzo Muhammadxon, maslahatchilari va tarjimonlari Mamatsharif...

Xmarinning gaplari elas-elas qulog'iga chalindi. Asadulla, ko'zlarini Mamatsharifdan uzmay, qulochini yoyib, qadamini tezlatdi.

- Mir'alam o'g'li, sizmisiz?

Taqdir panjalari ayirib, noma'lum tomonlarga, begona yurtlarga itqitib tashlagan hamfikrlar, bir-birovini ko'rish umidi xira tortgan birodarlarning tilidan boshqa gap uchmadi. Ayriqliqlarni ko'raverib zada bo'lgan yuraklar bu kutilmagan diydordan larzaga tushdi.

Xmarin bu uchrashuvdan unchalik ajablanmagan sardorga savol nazari bilan qaradi.

- Mamatsharif o'zbek. Hamyurtini uchratdi shekilli? - dedi sardor.

"Ko'rinishlariga qaraganda faqat hamyurtga o'xshamaydi", deb o'yladi Xmarin.

- Musofirlikda diydor ko'rishish peshonamizga yozilgan shekilli? Bir Bokuda ko'rishsak, bir bu yerda? - dedi Asadulla birodarini bag'ridan bo'shatib.

- Mir'alam o'g'li, siz aytmang, men kuymay. Bu ne shodlik bo'ldi, diydor ko'rishdik, bu ne g'amki, yana ayriliqlardan bag'rimiz yonsa?

- Ayriqliqdan gapirmang. Diydor ko'rishuvimizning o'zi bir saodat.

Kechki taom chog'i ikki vakola bir dasturxon atrofida davra qurdi. Dasturxonga taom tortilmay turib, Asadulla do'stini tanishtirdi:

- Mamatsharif ma'rifatparvar shoirlarimizdan. Jaholatga, zulmga qarshi xo'b va ko'p yozganlar. Vitaliy Sergeevich, bu kishining she'rlari hatto Orenburg gazetalarida ham bosilgan.

- Unda men bilishim kerak. Taxalluslari nima edi?

- Taxalluslari... bir oz g'ayritabiyyoq... zulmni la'natlab yozganlari uchun ko'proq "Vahshiy" deb imzo chekardilar.

Shuvalov bilmas ekanman, deb bosh chayqadi. Gapni uning o'rniga Sinelnikova ilib ketdi:

- "Vahshiy"? - U Mamatsharifga ajablanib qaradi. - She'riyatda bunday nom bilan chiqish... Nafosatga bunday nom bilan kirish?..

- Bunda ramziylik bor, Valentina Nikolaevna. Hammayoqni siyosatga bostirib yuborsanglar... go'zallik qayoqqa qochib jon saqlaydi?

- Go'zallikning qochishiga yo'l qo'ymaymiz, - dedi suhbatga aralashmay turgan Mamatsharif rus tilida burro qilib.

Gapga og'iz juftlagan Sinelnikovani Ushinskiyning savoli to'xtadi:

- Aytinch, Mamatsharif, Turkistonga qanday maqsad bilan boryapsizlar?

- Amir farmoniga binoan tijorat ishlarini yo'lga solmog'imiz lozim. Turkiston hukumati bilan shu xususda muzokara yuritmoq niyatidamiz. - Mamatsharif shunday degach, berilgan savolni va o'zining javobini elchiga tarjima qilib berdi.

- Turkiston bizga nima sotishi mumkin? - deb so'radi Muhammadxon Xmaringa yuzlanib.

- Buni Toshkentga borganingizda batafsil bilib olasiz, - dedi Xmarin.

- Bu yil g'alla mo'l bo'ldi. Biz g'alla sotishimiz mumkin.

- Juda yaxshi... - dedi Ushinskiy, ammo Xmarinning norozi qarashini anglab jim bo'ldi.

- Buni ham Toshkentda bafurja kelishib olasiz. Bir rabotda uchrashgan ikki elchining vazifasi bu emas, bil'aks, taomni mahtal qilmaylik.

Muhammadxon Xmarinning sharqona nozik qochirimini anglab, jilmaygan holda uning fikrini tasdiqladi.

Yo'l azobi kuchini ko'rsatib, asta-sekin oromga berildilar. Diydor bodasidan mast ikki shoir, ikki hammaslak, ikki ma'rifatchi, bu kecha yo'l azobini unutdi. Barglari shabada qo'lida mayin siyapanayotgan chinor ostidagi supada baqamti suhbat qurdilar.

Irisovning xiyonatidan so'ng Mamatsharif Qo'qonga, undan yurti Chustga, u yerda ham iziga tushishgach, sarhad hatlab, xorijga bosh olib ketgan edi. Asadulla surgundan qaytgach, ayniqsa Qo'qonda ish yuritgan kezlari birodarlarini so'rab-surishtirgan, ammo darak topmay armonda yurgan edi. Hozir ana shularni esladi. Irisovni, Said G'afforbek libosida ko'z yumgan sotqinni esladi.

- O'zgarishlardan xabar topdim. Qanotim bo'lsa uchar edim, biroq bu yurti tashlab ketolmadim, - dedi Mamatsharif afsus bilan. - Afg'oniston og'ir kunlarimda menga boshpana berdi, bu yerda yangi usul maktab ochdim. Kobuldagi yagona gazitda ishtirok etuvimga monelik qilishmadi. Mahmudbek Tarzidek oqil inson bilan fikrlashmoq baxtiga muyassar bo'ldim. Bu baxtga erishuvim evaziga yurtning xizmatini ham qilishim lozim edi. Esingizdami, kimki xalq manfaati yo'lida qadam qo'ysa, uni tunu kun bad duo qilar edilar. Shu kunlarni ko'rib, bu yurtga kelganimda bag'rimga oftob tekkanda jo'nab qolishim insofsizlik bo'lmasmidi?

Asadulla javob bermay, bosh irg'ab qo'ydi.

- Bilishmicha, Turkiston notinch emish?

- Sizlar faqat tijorat sababi bilan emas, shuni ham bilib kelgani boryapsizlar, shundaymi?

- Amir atrofida turli niyatli odamlar bor. Uning chalg'ishi tabiiy.

Asadulla Turkistondagi ahvolni muxtasar tarzda bayon qildi.

- Men yo'l-yo'lakay razm solib kelyapman, afg'onlarning ahvoli biznikidan yaxshi emas. Qayoqqa qarasang xarobalik, jaholat izlari. Shia-sunniy qirg'inlari, qabilalar aro sho'rishlar oqibati...

- Fuqaro ahvoli og'ir, ko'zlari g'afolat, jaholat uyqusida. Bizning dehqonlar qanday talansa, bularga ham shu qadar zulm o'tkazdilar. Bu yerda ham shayxlar - sayyod, saydi - johil bandalar.

- Amir tuzumi bularga barham beruviga imoningiz komilmi?

- Amir g'oyatda dono, ma'rifatparvar, insonparvar.

- Savolimga chap berdingiz? Nazarimda ishonmaysiz. Tarixda oqilu dono podshohlar ko'p o'tgan, ammo hech biri xalqqa to'la ozodlik bermagan, hech biri xalqni jaholat botqog'idan tortib olmagan.

- Mira'lam o'g'li, alhol bunday xulosa vaqti emas.

Mamatsharif shunday deb o'ylandi: oradagi yillarmi yo oradagi yiroq yo'llarmi, ta'sirini o'tkazibdi: maslakdosh birodarlar fikrlarida farq sezilibdi.

- Biz siz bilan uzoq vaqt ko'rishmadik, - dedi Asadulla xuddi uning xayolidagi gapni uqqanday. - Faqat odam emas, olam o'zgarib ketdi. Zulmga, nifoqlarga, urushlarga... faqat jaholat sabab, xalq savod chiqarsa hammasi barham topadi, degan aqidamiz, u qadar to'g'ri emas ekan. Xalqni birov zulmdan ozod etmas ekan, birov nifoqlarga barham berolmas ekan. Qo'lga qurol olib, kurashib, jon berib erishilar ekan bunday saodatlarga. Siz bu aqidalardan yiroqda yurdingiz, hozir hazm qila olmassiz. Borib ko'rarsiz, amin bo'larsiz.

Mamatsharifning istagi bilan birovlar Kobul voqealaridan gapirsa, birovlar Toshkent voqealaridan hikoya qilib, tong ottidilar.

Kun yoyilmay turib, karvonning biri Kobulga, biri Toshkentga yo'l oldi.

Qisqa diydorning umri tugab, ikki birodar uchun yana ayriliq oni yetishdi.



Mamatsharif xoriyya noziri Mahmudbek Tarzi nomiga maktub bitib, do'stini ta'riflab berdi. Vakola hay'atining taklifiga ko'ra, Asadulla Turkiston Markazijroq'o'miga mana bu xatni yozib berdi:

"Sana 1919 milodiy, 13 avgust, tufrog'i Afg'oniston, rabot Panjobda yozildi.

Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasiga.

Muhtaram o'rtoqlarga ma'lum etaramki, ushbu zot shavkat ma'ab mirzo Muhammadxon sardor Afg'oniston amiri sharafi oliylaridan buyuk vakolat ila bizim Turkistonga tashrif buyurajaklar.

Muhtaram o'rtoqlar, har holda bu zotning ehtiromlarin yerina yeturingizga aminman.

Ma'lumingiz bo'lsinkim, bizim vakola hay'ati Afg'oniston tufrog'inda beshikast yo'l bosib Kobulga yovuqlashmoqdadir. Biza ko'rsatilish lutfu karamlardan ayonkim, afg'onlar do'stlik aloqa bog'lanuvidan astoydil manfaatdorlar va ularning samimiy istaklariga inonmoq lozim.

Rusiya Ijtimoiy Sho'rolar jumhuriyatining Afg'oniston vakola hay'ati".

3

Karvon rabotlarni, yo'l bo'yidagi yuzlab mozorlarni ortda qoldirib, tobora Kobulga yaqinlashardi. Kobulga yaqinlashgani uchunmi, yo'l ancha jonlanib, serqatnov bo'lib qoldi. Askarlar qurshovidagi katta karvonni savdogarlar hadik bilan kuzatadilar. Sero't yerlarga ko'chayotgan qabilalar esa qiziqish bilan qarab turishadi.

Vakola hay'ati orasida qalandarning o'limidan keyin sovuqchilik vujudga keldi. Ayniqsa Xmarin serjahl, odamovi bo'lib qoldi. Bir rabotda Ushinskiy Sinelnikova chodiriga kirib, unda tunab qolgach, somonxonaga yetishgan buzoqday bo'ldi-qoldi - Xmarinni gapirmay ham qo'ydi.

Zikriyo afandining o'limidan so'ng Asadullaning Shuvalovdan bo'lak suyanchig'i yo'q edi. Bugun ham ular yonma-yon borishyapti. Yo'l chetiga sanoqsiz qo'y-qo'zi, uloq, yilqi, qoramolni yoyib asta jilayotgan qabilaning harakatini kuzatib bir voqeani ko'rishdiki, oqibatda buning dahshatidan anchagacha o'zlariga kelolmay yurishdi.

Qabrlari ustiga qo'chqor shoxlari qo'ndirilgan, butalarga oq-ko'k lattalar bog'langan mozoristonda yigirmaga yaqin erkagu ayol faryod chekib, yuzlarini yulib turardi. O'rtada eti ustixoniga yopishgan, yoshini aniqlash amrimahol bo'lgan odam oyoq-qo'lini uzatib yotar edi. Asadulla avvaliga uni murda deb o'yladi. Bir vaqt yerda yotgan odam qo'li harakatga keldi, faryod urayotganlarga nimadir dedi. Shundan so'ng ular atrofdan tosh olib kelib, tirik odam ustiga tera boshladilar.

- Nima qilyaptilar, ko'myaptilarmi? - dedi Shuvalov hayratlanib.

- Shunaqaga o'xshaydi, - dedi Asadulla odamlardana ko'z uzmay.

Bu dahshatli manzarani oxirigacha ko'ra olmay, ikkovi xuddi kelishib olgan misol baravariga otni niqtab oldinga intilishdi. Mirza Qandilxon ularning gaplarini beparvolik bilan eshitdi.

- Bemordan umid bo'lmasa shunday qilishadi, - dedi.

- Balki tabibingiz yordam berar?

- Bularning odatiga aralashmagan ma'qul. Hammaning o'z udumi bor. Begona bosh suqsa yoqtirmaydi.

Shuvalov, "dahshat, dahshat", deb pichirlab, otning jilovini bo'shatdi. U asta-sekin ortda qola boshladi. Asadulla bir qancha vaqt Mirza Qandilxon bilan yonma-yon bordi.

- Bu holda bemorlarni ko'mib ketaverishsa, qirilib bitishadi-ku? - dedi Asadulla.

Mirza Qandilxon uning kuyinishiga kiprik ham qoqmadi.

- Ollohning irodasi, - dedi u bepisandlik bilan.

- Erkaklarning kamligi... balki shundandir?

- Yo'q, bundan emas. Erkaklar muhoribada...

Mirza Qandilxonning bu holda, bu ohangda gapirishi Asadullaning g'ashini keltirdi. Jilovni tortib, otini to'xtatdi. Mirza Qandilxon: "Nima bo'ldi?" - deganday unga bir qarab qo'yib, yo'lida davom etaverdi.

"Qishda qor yog'ishiga, yozda o'tob chiqishiga odamlar ajablanishmaydi, - deb o'yladi Asadulla. - Xuddi shuning kabi inson bolasining xoru xaroblik ila o'lishiga, besabab, bemaqsad qirilishiga ham ajablanishmasa, ajablanish nima ekan, dahshatga tushishmasa, faryod urishmasa..."

Erkaklar muhoribada... Butkul yumushlar shu kasalmand, shu ayol, shu bola-baqra bo'ynida. Oila boshlig'i ne sababdan ketdi, bilishmaydi. Odam odamga yov, qabila qabilaga, yurt yurtga... Qachon barham topadi bu? Bola otasi bilan, juvon eri, ona o'g'li bilan shod-shodon yashaydurgon davru davronlarga yetishuv baxti qachon yuz ochadi?.."

Toshli yo'lda ot tuyoqlaridan chiqqan ovozlari aks-sado beradi. Asadullaning nazarida bu dara, bu toshlar odamlarga faryod bilan murojaat qilayotganday: "Ey, muxtalif odam bolalari, - deyayotganday go'yo, - na uchun siz bu qadar bir-biringizga dushman bo'ldingiz? Tokaygacha bir-biringizga dushmanlik va haqorat nazari ila boqajaksiz. Tokaygacha hayoti ijtimoiyaning yo'llariga darbadar bo'lajaksiz?! Yo'q, bu fikringizdan qaytingiz. Bu hobgohlaringizdan chiqingiz, bu mutaassiblik, bu jaholatingiz chodirin uloqtiringiz! Bir kun kelur, bu qilmishingiz, badkirdorlig'ingizdan pushaymon bo'lajaksiz. Lekin so'ng o'ngaajagingiz foyda bermas.

Na ko'rди dunyoda inson buzuq bu ixtilofindan,

Tug'ildi turli sho'rishlar maishat ixtilofindan.

Bo'lib bir-birga dushman kun kechurdi, ko'rmadi rohat,

Qirildi, mahv o'ldi, kechdi ulfat ittifoqindan.

Oyildi molu sarvatdan xarif o'ldi shaqovatga,

Yiroq ketdi adolatdan hama millat xilofindan..."

Toshlar tuyoqlar zarbidan jaranglaydi. Go'yo faryod qiladi. Tili bo'lganda edi bu toshlarning. Faryodiga inson bolasi chidash bera olarmidi? Ne qirg'inlarni, ne adolatsizliklarni ko'rmagan bu toshlar. Afsuskim, ularning zaboni yo'q. Bo'lganda edi, shubhasiz, Asadulla xayolidan o'tgan gaplarni aytardi. Balki undan ziyoda qilib, inson bolasining yuragini poralaydigan qilib aytardi. Afsus, ming afsus, tili yo'q...

Agara bu yo'llar harb-zarb emas, faqat xolis niyatli elchilar yo'li bo'lsa edi, olamning kulgisi, qahqahasi o'zgacha yangrardi. Bu toshlar faryodining unini o'chirib, bag'riga singdirib, yashirib yuborardi.

Tahlikali, tog'li-toshli yo'llarni ortda qoldirgan karvon shunday birodarlik, yaxshilik yo'lini ochib borayotgan bo'lsa ne ajab!

Uchinchi bob - tahlila va umid

1

Lord Chelmsford Ravalpindidagi sulh natijalarini batafsil eshitib, jahl bilan qo'l siltadi.

- Sharmandalik, - dedi u bo'g'ilib, - bu sharmandalik tamg'asi uzoq vaqt unutilmaydi. Bu sharmandalik uchun Gamilton Grant bilan lord Chelmsfordni ayblashadi, ha, unutmang buni!

- Ser, aybnomangiz noo'rin, - dedi Gamilton norozi ohangda. - Birinchidan, avval ham Afg'onistonga ikki karra qo'shin tortib, maqsadga erisholmaganmiz. Ikkinchidan, bu sulh bundan ham sharmandaliroq bo'lishi mumkin edi. Mahmud Tarzining kelishiga norozilik bildirib yaxshi qildik. Muzokarani u yuritganda... bu sharmandalik holva edi.

- Shundaymi? - Chelmsford unga o'qraydi. - Uning qobiliyatini shu darajada yuqori qadrlaysizmi? Hind muhojiri-chi? Oti nima edi?

- Abdul G'ani.

- Ha. Uning muzokarada ishtirok etuviga qanday yo'l qo'ydingiz? U beto'xtov qamoqqa olinishi kerak edi.

- Ser, bu mumkin emas, axir u rasmiy vakola a'zosi, qolaversa, u Hindistonda g'ayri ishlarda ayblanmagan. Aksincha, Habibulloxon shunday ayb bilan qamoqqa olgan.

- Habibulloxonning fahmi yetgan ishga sizning aqlingiz kaltalik qilibdi-da?

- Ser, istagan diplomatingizdan so'rang, bu ishda biz yutdik. Hayronman, Afg'onistondan buncha qo'rqib qolgansiz?

- Qo'rqib? - Chelmsford jahl bilan teskari qarab oldi. - Siz pashshadan qo'rqasizmi, Gamilton? Ha, qo'rqmaysiz. Lekin g'ing'illashiga toqat qilolmaysiz. Afg'oniston men uchun bir pashsha, bilib qo'ying. Shunday biqinimizda g'ing'illashiga chidolmayman.

- Xotirjam bo'ling, ser, iqtisodiy qamalga Afg'onistondan kuchliroq davlatlar ham bas kelolmaydi.

- Qamal dedingizmi? Qiziq... qamal deganda chor-atrofdan o'rab olish tushunilardi. Afg'onistonning shimoldagi darvozasi langa ochiq tursa ham qamal deyilaveradimi? Yanglishmasam, rus elchilari Kobulga yaqinlashib qolganlar? Gamilton, mening gapim esingizdami?

- Esimda, ser, biz hamma choralarni ko'rdik. Elchilar aylanma yo'l bilan yurib, ko'p vaqt yo'qotishdi. Hammasi reja bilan boryapti. Biz qo'ygan odam ishni puxta yurityapti. Elchilar orasida parokandalik bor. Amir bilan bir qarorga kelisha olishmaydi. Ulardan oldinroq Kobulga yetib kelgan Turkiston arboblari amirning fikrini o'zgartirib yuborishadi.

- Gamilton, men sizga qoyilman: boshingizga kelgan har bir bema'ni orzuni haqiqatday gapira olasiz.

- Bu bema'ni orzu emas. Ani bo'ladigan ish.

- Bo'lmasa-chi?

- Unda so'nggi choraga o'tamiz. Afg'onistonga kelgan har bir elchi bu tuproqda umrbod qoladi.

- Terrormi?

- Nimaga? - Gamilton ayyorlik bilan kulumsiradi. - Afg'onistonda nima ko'p, kasallik ko'p, dordan qochgan kallakesar ko'p... Shu maqsadda Xaustonning Kobulda qolgani ma'qul. Siz uning qaytishiga ijozat bergan ekansiz?

- Kobulda qola tursin, deysizmi? Yaxshi. Qolsin. Elchilarning Kobulga sog'-omon yetib kelishi - uning ham aybi. Ayblaringni birgalikda yuvinglar. Toshkentlik boyning o'g'illari Kobulga jo'nadimi?

- Ha, ser. Ular otalari bilan Toshkentga qaytib, biz uchun ishlashadi. Xauston mana shu ishni juda yaxshi o'ylabdi.

"Mening ko'nglumki gulning g'unchasidek tah-batah qondur. Agar yuz ming bahor o'lsa ochilmog'i ne imkondir", deganlaridek, Ravalpindidagi sulhdan so'ng Mahmud Tarzining ko'ngli xuftonligicha qolaverdi. Hatto bu tong amirni yo'qlashni ham kanda qildi. Muhtasham xonasiga, xonani chirmab olgan yolg'izlikka bandi bo'lib o'tirdi. Uzoq o'tirdi. Aqlini tanib ko'rgan begona yurtlarni esladi. Qorinlari to'q edi. Muhtojlik ularga yaqin yo'lamasdi. Biroq odam bolasi jig'ildon bilangina tirik emas ekan. Uning kindik qoni Afg'onistonga to'kilmagan bo'lsa-da, yuragi shu tomon talpinardi. Otasi uni g'azal mulkiga boshlab, nuktadonlik ilmiga oshno qilaman deganda, xayoli uni o'zga olamga chorlardi. Otasi unga ko'p tanbeh berdi. U esa farangi lisonini o'rgandi. Farangi adiblarini forsiyga o'girdi. Farangi inqilobchilarini o'rgandi. Otasi g'azaliyotning nafisligini unga yuqtirmoqchi bo'ldi. U esa she'riyatga isyonkorlik ruhini olib kirdi.

Bir kuni otasi umidlari singan odam ahvolidan undan gina qildi:

- Seni nuktadon shoirlar qatorida ko'rmakni orzu qilib edim.

- Nuktadonlik oliy xislat, - dedi Mahmudbek otasiga, - ammo yurtni ko'ngil ishq haqidagi g'azallar bilan ozod etib bo'lmaydi.

Yurtni ozod etmoq uchun xalqni jaholat uyusidan uyg'otmoq kerak. Buning uchun faqat isyonkor she'r darkor...

Otasi bosh chayqadi-yu, indamadi. Yurtdan quvilgan, yurt sog'inchi vujudini kemirib tashlagan shoir o'g'lining fikri to'g'ri ekanini tushunardi. Tushunardi-yu, o'g'li tahlilali yo'l tanlaganidan bezovta edi.

Dunyo tasodiflarga to'la. Ammo quvg'in qilgan zulmkor bilan quvg'indagi bechoraning bir vaqtda olamdan ko'z yumishi kamyob hodisa. Afsus shuki, otasi amir Abdurahmonxon joni uzilganini bilmay ketdi. Amirdan bir kun, boringki, bir soat keyin ko'z yumganda ham armoni qolmas edi bu dunyoda.

Mahmud Tarzi jon talvasasidagi otasining mo'ltillagan ko'zlarini, so'nggi nafasida bu ko'zlardan chiqqan ikki tomchi tiniq yoshni unutmaydi. Bu - armon, bu - ayriliq, bu - hijron ko'zyoshlari edi. Bu yosh ko'zdan emas, balki yurakning tub-tubidan, yurt sog'inchi yashiringan yeridan chiqqan edi. Bu ko'zyoshlari o'shanda go'yo cho'qqa aylanib Mahmudbekning qalbiga to'kildi. O'shandan beri bu tomchi-cho'g'lar bot-bot uyg'onadi, uni qiynoqqa soladi.

Ravalpindagi sulh natijasini eshitib shu ko'yga tushdi.

Hojib kirib, amir yo'qlayotganini aytganda ham o'rnidan turgisi kelmadi. Bari bir borishi lozimligini bilib, noiloj xonasidan chiqdi.

- Bunday saodatli tong kunda otavermaydi, - dedi amir gina ohangida. - Sizning muborakbod etmagingizga zor bo'ldik.

- Uzrliman, amir sohib, - dedi Tarzi undan ko'zini olib qochib, - tobim yo'qroq...

- Olloh saqlasin, - amir shunday deb, qaynotasini ikki yelkasidan ushlab, ko'ziga tikildi. - Dilingiz bir nimadan aziyat chekdimi?

- Ha, amir sohib... Xudodan yashirmaganni bandadan yashirmayman: sulhdan ko'nglimga aziyat yetdi.

- Sulhdan? Ajab... Ingliston bizga yon bosdi, bundan quvonmoq o'rniga...

- Amir sohib, fikri ojizimcha, Ingliston bizni chalg'itgan, laqillatgan. Hamonki sarhadlarimizni o'zimiz belgilamas ekanmiz, ozodligimiz, mustaqilligimiz qayda qoldi? Ular afg'on amirlari taxtga o'tirar choqlarida bir oz erkalik qiladilaru, yana oyog'imizga bosh urib keladilar, deb ishonib qolishgan. Bu uchun sizga olti oy fursat berishibdi. Nahot anglamadingiz?

- Men olti oydan so'ng bosh urib borarkanmanmi? Men-a?!

Amir xona bo'ylab asabiy yura boshladi.

- Yov makrini yolg'on yashiradi. Sulhga ishonmaslik kerak. Hindistondagi g'alayonlarni bostirib, so'ng yana bizga hujum qilmaklari aniq.

- Bu fursatda biz qaddimizni o'nglab olajakmiz. O'rusiya orqali Farangistonga chiqamiz. Almoniyaga yetamiz. Ingliston hali ko'p pushaymon yeydi, ha!

Omonulloxon shunday deb, yana qaynotasi ro'parasida to'xtadi:

- Sho'ravi Rusi yo'llagan vakola qachon yetib keladi?

- Bir haftalik yo'l qoldi chamamda.

- Bir hafta... Menga yetkurgan daraklariga inonsam, ular orasinda noittifoqlik mavjud emish. Bir-birlariga-da izzat yo'q emish?

- Ular mashaqqat ila olis yo'l bosib kelmoqdalar. Bunday ahvolda yaqin xesh-aqrobalar orasinda ham nizo ko'tarilmog'i mumkin.

Xulosa chiqarishga oshiqmang. Bil'aks, ular bilan qay holda muzokara yuritmoqni fikrlang.

- Turkistondan tashrif buyurmish a'yonlar vakolasi ila muzokaralarni boshlasam-chi?

- Zinhor! Bunday qila ko'rmang, amir sohib. Avval chin vakola so'zlariga quloq tuting. Turkiston a'yonlari vakolasi hokimiyatga erisholmagan, yuragi zada. Ko'ngulda qoralik mavjud bo'lishi ehtimol. Ular sizni haq yo'ldan og'dirishi mumkin.

- Dono fikr. Men ular bilan... bir vaqtda muzokara boshlayman. So'ng bir vaqtda tarozi pallasiga qo'yaman.

Tarzi Qodir og'a hazratning kecha amir huzurida bo'lganidan boxabar edi. Shuning uchun kuyovining bu fikriga monelik qilmadi.

Amirning milg'ida bir o'q bo'lgani holda ikki quyovni mo'ljalga olish unda xavotir uyg'otdi. Bo'lajak muzokaralarda tushunmovchiliklar, ko'ngilsizliklarga yuz berishi mumkinligini sezib, afsuslandi.

2

Qodir og'a hazrat Turkiston a'yonlari vakolasining sarvari Mirkomilboyning so'zlarini tinglab, ajablandi:

- Qalandar jonini olmoqning nima zarurati bor edi?

- Vakola ichindagi kishimizni fosh qilib qo'yimg'i mumkin edi.

- Chakki bo'libdi... Oллоh rahmat qilsin. Islom yo'lida shahid ketibdi, joyi jannatda bo'lg'ay.

- Inshaolloh... Endi muddaoga ko'chsak.

- Xo'sh?

- Amir huzuriga kirmagimiz, Buxoro amiri ila so'zlashgan so'zlarimizni yetkazmagimiz lozim.

- Nimalarni so'zlashdinglar?

- Turkiston taqdirini.

- Xo'sh?

Bu afg'onning qo'polligidan hojining ko'ngli og'ridi. Afsus, afsus, davru davronlar o'zga. Yo'qsa bu odamlar oldida past ketib o'tirmasdi-ya! Ammo na iloj: "Yovga chiqsang, yarog'li chiq, yolg'iz chiqmay, hamrohli chiq", deganlar. Turkistonning yarog'i ham, hamrohi ham shularni endi?..

- Buxoro amiri Afg'oniston amirining inglilar bilan yarashmog'ini istaydi, - dedi Mirkobilboy alamini ichiga yutib.

- Xo'sh? - dedi Qodir og'a hazrat o'sha-o'sha sovuq ohangda.

- So'ng birlashib, Turkistonni shakkoku kofurlardan tozalab, undan so'ng inglislarga bas kelmoq maqsadga muvofiq deydi.

- Amir bunga ko'nmaydi.

- Sabab?

- Turkistonni kufrdan holi etiluvidan Afg'onistonga nima naf bor?

Mirkomilboy Qodir og'a hazratning bu qadar surbetligini kutmagan edi. Inglilar Turkistonga ko'p emas, yigirma besh yil hukmronlik qilish badaliga olam-olam aqcha sarfladilar. Ular oldida bu afg'onlar nima bo'пти? Na aqchasi bor, na yarog'i. Bor-yo'g'i inglilar bilan yarashib turishi kerak, vassalom. Shunga shuncha nozu firoqmi?..

Mirkomilboy shularni xayolidan o'tkazib g'ijingan bo'lsa-da, ichidagini sirtiga chiqarmadi.

- Jannatmakon amir Habibulloxonning niyatlari bo'lak edi, - dedi u, o'zini xotirjam tutishga harakat qilib. - Farg'ona viloyatida jihodga ko'tarilgan islom lashkarlariga muruvvat ko'rsatib edilar.

- Hazrat amir Habibulloxon sarhadlarni birmuncha kengaytirmoqni orzu qilib edilar. Baqo gulshaniga barvaqt chorlandilar.

Bu gapni eshitib, hojining eti seskandi: "Ishtahalari chakki emas-ku?" deb o'ylab, g'ijindi.

- Hazrat amir Omonulloxonda bunday istak yo'qmi? - deb so'radi u zahrini sirtiga chiqarmay.

- Bu yolg'iz Oллоhga ma'lum.

Shu javob bilan amirning niyatlari boshqa ekani, hazratning saroyda mavqei baland emasligi ayon bo'lib qoldi. Shu sababli Mirkomilboy uning oldida ko'pam past ketmadi.

Qodir og'a hazrat savlati kelishgan bu odamning o'ziga pishiq-puxta ekani, Turkiston a'yonlari har narsaga laqqa tushavermasligini fahmladi. U faqat bir narsaga tushunmadi: Turkistonning Inglistonga sotilgani, bu ish o'ngidan kelmay, a'yonlarning Afg'onistonga yuz tutganlarini bilganda vakolaning tavba-tazarru, yalinish-yolvorishlar ila murojaat etmoqlarini kutgan edi. Vakola sarvarining o'zini tutishiga qaraganda ular yalinib emas, taklif bilan kelishgan. Agar chindan shunday bo'lsa Afg'onistonning xudodot yurtligi qayda qoldi? Qodir og'a hazrat yana boshqa narsaga: muzokarani arkoni din vakili emas, e'tiborli boy yuritayotganiga hayron bo'ldi.

Qodir og'a hazrat shu muammolar chohida garangsidi. Shunga qaramay, amir huzuriga yo'l olib, uni Turkiston a'yonlari vakolasi bilan muzokara yuritishga da'vat etdi: "Chiqmagan jondan umid", deb o'ziga-o'zi taskin berdi.

Kecha bo'lib o'tgan bu suhbatdan Tarzi xabar topgan edi.

Amir Habibulloxon: "Bular devor emas, quloq", deb bejiz ta'kidlamagan ekan...

Turtinchi bob - kobul

1

Bodi Osiyo, Chovg'ul, Ko'hi Hashtro' va nihoyat, Qozi qal'a... Kobulga kiraverishdagi so'nggi rabot, so'nggi manzil. Oltmish yetti xatarli kecha, oltmish yetti tahlkali kunduz ortda qoldi. Kutilmagan hodisalar, diydor va ayriliqlar, shubhalar, muammolarga boy bo'lgan oltmish yetti kun xotiraga, o'tmishga hijrat qildi. Ularni sehrlil ohanraboday o'ziga tortgan Kobul, ana, qo'l uzatsa yetguday bo'lib, ro'paralarida turibdi. Necha-necha sarkarda tig' sanchmadi bu shaharga. Necha-necha qirg'inlarni ko'rmadi bu shahar. Qilich



yalang'ochlagan sarkardalar shaharni mahv etish yo'llarini balki xuddi shu yerda turib o'ylashgandir? Hammasi moziyning qora chodiri ortiga yashiringan edi. Amirlar, sarkardalar kelaverdi, ketaverdi. Ko'hna shahar esa tirik. Har bir qonli jangdan so'ng qaddini ko'tarib, jarohatlariga xalq ko'z yoshlaridan malham qo'yib, davolab, muazzam kunlarga yetishish ilinjida yashayverdi, yashayverdi... Shaharni balki ana shu nurli umid yillarning nafasi, temir tirmoqli panjalaridan omon saqlab, shu kunlarga olib kelgandir?

Yer yuzida ko'hna shaharlar ko'p. Hammasining bag'rida urushlar qoldirgan behisob tamg'alar bor. (Bunday tamg'alari bilan kullar ostida qolib ketgan shaharlar qancha ekan?) Insoniyat vahshiyiligining ramzi bo'lmish bu tamg'alarga barham berish fursati yetmadimi? Odamzod izida faqat mozor qoldirmay, yaxshilik chechaklari unuvchi gulzorlar qoldirish pallasiga kirmadimi? Asadulla Kobul yaqinida shularni o'ylardi.

Uning yonida turgan Shuvalov esa beshikast yetib kelishganidan ham xursand, ham xavotirda edi: "Demak, amir bilan muzokara yuritayotganda boshlanadi", degan xayol uning tinchini oldi. Endi: "Safimizdagi g'anim kim ekan?" - deb bosh qotirmasdi. Uni bilardi. Ammo arqonning bir uchini ushlab, barcha g'alamisliklarni boshqarayotgan odamlar uning uchun noma'lum edi. Buni aniqlamay turib, bir ishga kirishish mumkin emasdi.

Qozi qal'aga chodir tutilmaganidan, taom hozirlanmaganidan bildilarki, bu yerda tunamaydilar. Bir oz salqinlab, tashnaliklarini bosadilar, xolos.

- Alhol foytunlar yetib kelgach, beto'xtov Kobulga doxil bo'lamiz, - dedi Mirza Qandilxon.

Ko'p o'tmay kumush bezaklar ila bezalib, zulukday otlar qo'shilgan foytunlar vakola hay'atini, qilich ko'tarib emas, yaxshi niyat bilan kelgan o'zga yurt elchilarini Kobul sari yeldirib ketdi.

Kobulning nazarga molik bog'laridan bo'lmish Mohtob bog'ida yuzga yaqin sovar mehmonlarga lutf ko'rgazib, saf tortib turar, sozandalar sozi esa avjda edi.

Kobul a'yonlari vakola hay'atiga izzat ko'rsatdi, ammo suhbatga berilmadi. To'kin dasturxon atrofida ham guring qovushmadi. Taomdan so'ng Mirza Qandilxon barchani yana foytungacha boshladi. Yana bir oz yo'l bosilgach, Bog'i Mustafoga yetdilar. Bog' o'rtasida Yevropa usulida tiklangan imorat ular ixtiyoriga berildi. Faqat imorat emas, ichkari xonalarning ashyolari ham tom yevropacha edi. Taomlarning ham yevropacha bo'lishi vakola hay'atini hayratga soldi. Xullas, uzoq davom etgan safar mashaqqatlaridan xoli bo'lmoq uchun barcha sharoit muhayyo etilgan edi.

Kechki taomdan so'ng Xmarin vakola hay'atini shiyponga to'pladi.

- Janoblar, manzilga beshikast yetib keldik, - dedi u, - endi ijozatingiz bilan, vakolaning barcha xatti-harakatini men nazorat qilsam. Yo'ldagi har bir harakatimiz, oramizdagi tushunmovchiliklar, ayniqsa Veniamin Samoylovich, sizning harakatingiz allaqachon Kobuldagi zoti oliylarining qulog'iga yetib kelganiga aminman. Shuni unutmasligingizni va barchangizning diplomatiya qoidalariga qat'iy amal qilishlaringizni so'rayman. Safar natijasi faqat muzokaraga emas, har biringizning xatti-harakatingizga ham bog'liq. Menga bugun ma'lum bo'lishicha, Angliya bilan urush yakuniga doir muzokara tugallanib, shartnoma imzolangan. Shartnoma mazmunini hozircha bilmaymiz. Amirning, saroy ahlining asl niyatlari ham bizga qorong'i, Angliya bilan imzolangan shartnomadana so'ng, amirning tashqi siyosati butkul o'zgarib ketishi ham mumkin. Biz Rossiyaning Afg'onistondagi birinchi elchilarimiz. Yurtimizga ham, tuzumga ham bizga qarab baho berishadi.

- Nikolay Zaxarovich, xavotiringizga tushunmayapman, - dedi Ushinskiy. - Nazarimda, yo'lda hech nima yuz bermadi. Axloq-odob doirasidan chiqmadik. Bahslarimiz ham o'zaro o'tdi.

- Shunday bo'lishini istar edim, - dedi Xmarin quruqqina qilib.

Ushinskiy ajablangandek qo'llarini ikki yonga yoyib, bosh chayqadi.

- Nikolay Zaxarovich, buyog'iga siz qo'mondonsiz, buyuravering, - dedi Shuvalov qat'iy tarzda.

- Afg'onlar bilan siyosatdan gaplashmanglar. Ayniqsa, siz, Asadulla Mira'lamovich, amirlik tuzumiga tegishli so'z aytman. Ba'zan gap olish, g'alva chiqarish uchun sizga biron-bir kambag'alni ro'para qilishlari ham mumkin.

Asadulla "ma'qul" deb bosh irg'adi. Xmarin yana bir oz diplomatiya qoidalaridan gapirgach, xonasiga kirib ketdi.

Nonushtadan so'ng Bog'i Mustafoga uch avtomobil kirib keldi. Mirza Qandilxon peshinga qadar Kobulni sayr etajaklarini ma'lum qildi. Sayrdan birinchi bo'lib Sinelnikova bosh tortdi. Yo'lda charchaganini, hali o'ziga kelolmaganini bahona qilib xonasiga kirdida, eshikni ichidan qulflab oldi. Vakola hay'atini hayratga qoldirib, Shuvalov ham sayrga chiqolmasligini aytdi. Mirza Qandilxon pastda kutardi, kim boradi, kim bormaydi, deb mulohaza qilishga fursat yo'q edi. Shu sababli uchovlon avtomobillar sari yurdilar. Bir tarafi tog', bir tarafi vodiy bo'lgan bu ko'hna shahar manzarasi diqqatni tortguli edi. Eski shahar ko'chalari birmuncha tor, sihatga zid bo'lsa-da, yangi shaharda bino bo'lgan ko'chalar, uylarning aksari go'zal, Yevropa usulida edi. Amir Abdurahmonxon boshlab, amir Habibulloxon kamol toptirgan, bugungi kunda ignadan tortib, zambarakka qadar Afg'oniston ehtiyojiga zarur ashyolar tayyorlaydigan moshinxonani tomosha qilib, so'ng harbiya maktabida bo'lib, keyin shaharning kunbotaridagi Bog'i Boburga ko'tarildilar.

Bog'ning shimol tomonida maqbara, janub qismida marmartoshdan bino qilingan bir masjid chinorlar panasida oftobdan yashiringan.

- Bul chinorlarni mirzo Bobur o'z qo'llari bilan ekmish ekanlar, - dedi Mirza Qandilxon mehmonlarni bog' bo'ylab boshlar ekan.

"Abadiylik shumi? - deb o'yladi Asadulla, ohista qadam tashlab borib, chinor tanasiga kaftini qo'yar ekan. - Urushlar, zulmlar ham uzoq vaqt unutilmaydi, ammo bular la'nat bilan eslanadi. Bog' qilgan, shahar bino etgan, ezgulik urug'ini sepkan odam esa shu yaxshiliklari bilan abadiy qolgusidir. Bobur, shoh Bobur buyuk saltanat qaror toptirgan inson tosh ostida yotibdi. Hayotini bag'ishlagani - barpo etgan saltanati yemirilib bitdi. Ekkan chinorlari esa tirik, bitgan g'azallari tirik, baytlariga singgan faryodlari, armonlari tirik...

Toli' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,

Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi...

Demak, inson bolasing baxti toju taxtda emas, to'kin dasturxonda emas, zebu ziynatda emas. Qo'shin tortib, yurtlarga ega chiqqan odam o'z baxtiga ega bo'lolmas ekan. Shoh Bobur emas, Andijonda qora qumg'oniga ko'z tikib qolgan, biri sira ikki bo'lmagan kambag'al yigit baxtliroqdir...

Menga oson durur bo'lsa agar yuz ming tuman dushman,



Vale bo'lmoq jahonda, ey, ko'ngul, beyor mushkuldir...

"Beyor", deb nimani nazarda tutdi ekan? Balki: "Bevatan mushkuldir", demoqchi bo'lgandir?..

- Asadulla Mira'lamovich, daraxt bilan gaplashyapsizmi, nima deyapti?

Ushinskiyning gapi uning xayolini parchaladi. Kaftini chinor tanasidan olib, hamrohlariga qaradi:

- Daraxtlarning ham tili bor, Veniamin Samoylovich, mana bu chinorning gapini eshiting: "Men shu yerga ekilib, necha yuz yildan beri shu tuproqni makon etganman. Suvsizligiga ham, ayozli sovu'g'iga ham, jazirasiga ham chidayman: serunum, sersuv tuproqni ma'qul deb ko'chirsangiz - o'laman. Meni ekkan odam makonidan ko'chirilib, ayriqliq armonida ketdi. Men kunda uning maqbarasiga qarab, shivirlab, tasalli beraman. Lekin u javob qaytarmaydi. Bevatanlik azobi ezib, nobud qildi hojamni..."

- Daraxt to'g'ri aytibdi buni sizga, - dedi Xmarin unga yaqinlashib. - Bevatanlik - eng ulug' bebaxtlik. Afsuski, buni hamma ham anglayvermaydi. Vatandan uzoqlarda yurish - mening kasbim. Baxtim esa Rossiyada. Rossiyada bo'lgan onlarimni hech nimaga alishmayman.

- Siz Rossiyaning iqboli uchun xizmat qilyapsiz.

- Bu gaplarni qo'ying, kerakmas...

Xmarin shunday deb nari ketdi. Asadulla noiloj unga ergashdi.

Bog'i Mustafoga kun peshindan oqqanda kirib kelishdi. Shuvalov shiyponda, dahanini panjaraga tirab o'tirardi. Sinelnikova ko'rinmasdi.

- Xo'sh, safarlar qalay? - dedi u o'rnidan turib.

- Ko'p narsani yo'qotdingiz, - dedi Ushinskiy.

- Ketganlardan beri o'zim ham afsuslanib o'tiribman....

Xmarin bilan Ushinskiy xonalariga chiqib ketishdi. Asadulla Shuvalovning bir nima demoqchi bo'layotganini fahmlab, shiyponga o'tdi.

- G'ulomqodiring keldi, - dedi Shuvalov joyiga o'tirib. - Bizga xizmat qiladi shekilli, yaxshi bo'libdi. Menga qara, Mira'lamovich, sen unga tayinlab qo'ysang, xonimchamizdan ko'z-quloq bo'lib tursa.

- Shaharga chiqmaganingizga shu sababmi?

Shuvalov ko'rsatkich barmog'ini labiga bosib, "jim" degan ishora qildi.

2

Oqshomda xizmatkorlar g'imirlaba qolishdi. Atrof sarishta bo'lsa-da, yana suv sepilib, supurildi. Marmar hovuz, favvora chetlari artildi. Bu harakatlarning sababi tez orada ma'lum bo'ldi. Mirza Qandilxon Xmaringa uchrab, Afg'onistonning xorijiy noziri Mahmudbek Tarzi tashrif buyurajagini aytdi.

Ular sardor Tarzi bilan shiypon oldida uchrashdilar. Oldinda Xmarin bilan Asadulla, orqaroqda Ushinskiy bilan Shuvalov.

Horijiy nozirining sharaflab aytgan so'zlariga avval Xmarin, so'ng Asadulla munosib javob berib, muhoribada g'alaba Afg'oniston tarafda bo'lgani munosabati ila muborakbod etdilar. Xmarin Mahmudbek Tarzining tabrik so'zlarga javob qilmaganidan sezdi, Angliya bilan tuzilgan shartnomadan Afg'oniston rozi emas: "Demak, siyosatlar o'zgarishsiz qoladi", deb qo'ydi o'zicha Xmarin. Tanishuv marosimi oxirlagach, shiyponga tuzalgan joydan har birlari e'tiborlariga yarasha o'rin oldilar.

Taomdan so'ng Xmarin Tarziga yuzlandi:

- Nozir sohib, odobsizlikka buyurmaysiz, vakolamiz hay'ati hazrat amir sohib bilan ko'rishuv onlarini orziqib kutmoqdalar!

Tarzi javobga shoshilmadi.

- Afsuskim, amir sohib sizlarni bir oz zoriqtirishga majburlar. Kobulda vabo paydo bo'libdur, degan xavotirdamiz. Amir sohib shu sabab ila shahardan chiqib, mavzega yuzlanganlar. Nasib etsa, iydi qurbonning uchinchi kuni diydor ko'rishuvingiz mumkin.

- Sabab faqat vabomi?

- O'zga narsadan gumoningiz bormi?

- Ingliston bilan tuzilgan shartnoma ta'siri emasmi bu?

Tarzi bu gapni eshitib, kulimsiradi:

- Xavotiringiz mutlaq o'rinsiz, safir sohib, Ingliston bizga muruvvat qilmadi. Yil adog'ida yana muhoribaga kirishuvimiz mumkin. Tahlikamiz ko'z yumgani yo'q hali. Shuni bilingki, Ingliston muruvvat qilgan taqdirda ham Sho'ravi Rusi ila o'rnatajak birodarlik aloqalaridan yuz o'girmaymiz.

Xmarin bundan mamnun bo'lib, jilmaydi.

Asadulla Mamatsharifning maktubini topshirish payti yetganini bilib, xatni uzatdi.

- Mamatsharif afandi sizga noma bitib edilar.

Tarzi xatni olib, dumaloq gardishli ko'zoynagini taqdi-da, tezgina o'qib chiqdi.

- Xo'b, bisyor xo'b, - dedi Asadullaga kulib boqib. - Saforat ahli orasida shoir mavjudligining o'ziyoq ajabtovur. Shoir - go'zallik targ'ibotchisi. Do'stlik esa eng buyuk go'zalalik. Men siz ila suhbat qurmoqdan behad shod bo'lajakman. Ma'zur tuting, bizning "Siroj ul axbor"ga bir-ikki bayt bitib bera olsangiz nur alan-nur bo'lur edi.

- Shu topdami?

- Ha, shu topda. Afg'onistonimizni u boshidan-bu boshiga yurib keldingiz, ko'nglingizda uyg'ongan gaplar bordir? - Tarzi shunday deb, Mirza Qandilxonga davot-qalam keltirishni buyurdi.

Asadullaning xayolida xomaki satrlar bor edi. Qog'oz-qalam kelguncha bu satrlarni pishitgan bo'ldi. Tarzi unga xalal bermaslik uchun Xmarin bilan gaplashib o'tirdi.

Asadulla xayolidagi o'zbekcha she'rni forsiyga o'girib yozdi-da, horijiy noziriga uzatdi.

- Hozirliksiz bitildi, aybsitmaysiz, - dedi hijolatlik bilan.

Tarzi she'rni olib, ovoz chiqarib o'qidi:

"Afg'on birodarimga

Yo'q, azizim, sen o'ksukdek bukmagin yeringda,

O'gay emas, chin farzandsan, tur baralla shu joyda.

Hayajonli hayqirig'ing fazolarga yuksalsin,

Haq ovozing kezib yursin yulduzlarda va oyda..."

- Tashakkur sizga, Asadulla Mira'lam, behad dono, zarur gaplarni aytibsiz. "Siroj ul axbor"ning ko'rki bo'luviga shubham yo'q.

She'ringizga mirzo Bedilning bir baytini ilova qilajakman:

Shohi az gulbun masrufi gulxan meshavad,  
Zindagi bo do'ston aysh ast, tanho otash ast.

- Ozod yurtning saodati, kamoli, ellar aro e'tibori beg'araz do'stlari bilan, - dedi Tarzi.

Xorijiya noziri ketar mahali amir bilan uchrashuv onining bir oz orqaga surilishi uchun uzr so'rab, shaharga chiqish mumkin emasligini eslatib qo'ydi.

Yo'l azobi - go'r azobi, deydilar. Lekin kutish azobi undan ham o'tadi. Yo'l yurganda vaqt o'tgani sezilmaydi. Bu yerda esa bog' qanchalik manzarali, mukammal bo'lmasin, uning serhasham xonalari, favvorolari, baliqlar o'ynab yurgan tiniq suvli hovuzlari, shirin taomlari... jonga tegdi.

Asadulla kunduzi odamlar bilan bo'lib, bir oz ovunsa-da, qorong'i tushishi bilan yolg'iz qolib, xotiralariga bandi bo'la boshladi. Xotini, bolalari atrofini o'rab, hol-ahvol so'rashadi. Bu tun ham shunday bo'ldi. Kenjatoyi erkalanib, soqolini silayotuvdi: "Menga ham tez soqol chiqsin", deb iyagiga iyagini qo'yayotuvdi. Xotini to'g'rida, darcha yonida jilmayib turuvdi... Bir ovoz keldi... Nima bu? Eshik g'ichirladi shekilli? Bolasi ham, xotini ham ko'kka uchdimi, g'oyib bo'ldi. Yo eshikni g'ichirlatib ochib chiqib ketishdimi? Asadullaning nafasi qaytib, yuragi to'xtab qolganday bo'ldi. Jonholatda sapchib turib ketdi. Ko'zini ochdi-yu, eshik og'zida odam qorasini ko'rib, badaniga muz yugurdi.

- Menman, sohib, aybsitmang, cho'chitib yubordimmi? - deb pichirladi odam qorasi.

- G'ulomqodir? Nima gap? - dedi Asadulla sal o'ziga kelib.

- Uyqum qochib, ayvonda o'tirib edim. Bog' tomondan bir odam qorasi kelib, xonimning xobgohlariga kirib ketdi.

- Qachon?

- Hozir.

Asadulla yalangoyoq holda tashqariga chiqdi. Xonalarga Yevropa usulida eshik-deraza o'rnatilgan bo'lsa-da, eshik tepasida sharqona darcha qoldirilib, ganjli panjara bilan berkitilgan edi. Sinelnikovaning xonasidagi maxfiy suhbat shu darchadan elas-elas eshitilardi. Avvaliga juda past ovozda gaplashganlari uchun so'zlarni anglab bo'lmadi. Keyin ayol asabiylashdimi, ovozi ni beixtiyor ko'tardi:

- Jonimga tegdi hammasi. Ayt, olib ketishsin. Chekist fahmlaganga o'xshaydi.

Sinelnikovaning buzib bo'lsa-da, o'zbekcha gapirishi Asadullani hayratga soldi.

- Oz qoldi, begoyim, chidang, mana buni taomlariga tashlang. Arafa oshiga. Bir yo'la qutulasiz.

Erkakning kimligini ovozdin tanimadi. Talaffuzidan o'zbekligi aniq edi.

- Eslaringni yedilaringmi? - aftidan Sinelnikova qo'rqib ketdi shekilli, ovozi sal titradi. - Mening vazifam erkaklarni yovlashtirib qo'yish edi. Buni bajardim, bas endi!

- Qo'rqmang, begoyim, sizdan gumonsirashmaydi. Kobulda vabo bor, vabodan ketdi deyishadi, hech kim sezmaydi. Hayit kuni sizni Hindiston tomon olib o'tishadi.

- O'zim-chi, ovqatdan o'zim ham yeyman-ku?

- Bir kun och qolsangiz hech nima qilmaydi.

- Xaustonga ayt, elchi tirik qolishi kerak. U bolshevik emas..

Asadulla G'ulomqodirga: "Ko'zdan qochirmang", deb shivirladi-da, iziga qaytdi. Shuvalovni uyg'otib kelayotganda birdan erkak kishining baqirgani, keyin qattiq ixragani eshitildi.

Sinelnikovaning eshigi oldida ikki odam bukchayganicha tipirchilar, uzun oq ko'ylakdagi ayol esa ostonada dahshatda qotib turardi. Asadulla yugurib kelib, tiz cho'kdi-da, G'ulomqodirning boshini ko'tardi. Shuvalov esa xonimni ko'krigidan ichkariga itarib, eshikni yopib oldi.

- Qimirlamang, xonim, joyingizdan jilmang, - dedi-da, qora libosli odam ustiga engashdi. Qo'lini qayirib, qonga belangan dudamani yerga tushirdi. - Sovarlarni chaqir, - dedi Asadullaga.

Bir onda hamma oyoqqa qalqdi. Mash'alalar yoqildi. Asadulla mash'ala yorug'ida notanish mehmonga qaradi. Pahmoq soqolli bu odamni tanimadi. Agar uning ko'zlari ochiq bo'lganda, soqol chandiqni yopmaganda balki o'sha mash'um voqeadan avval ijaraga boshpana qidirib yurgan odamni tanirdi.

Chap biqiniga sanchilgan xanjar azobidan bukchayib olgan bu odam - Muhiddin edi. U ko'zini arang ochib, Asadullaga tikildi. Tanidi. Bemajol qo'lini unga cho'zdi.

- Yedilaring-a, oxiri, enag'arlar, - dedi tishini g'ijirlatib. Keyin bir xirilladi-yu, jon berdi.

Yashamoqdan maqsad nima ekanini o'ylab ko'rmagan, dunyo lazzati oshiq tashlashu yutuqdan iborat deb bilgan, avval o'ziga yoqmagan, keyinroq borib esa xo'jayinlariga ma'qul bo'lmagan odamlarga pichoq sanchib bir tuki qimirlamagan bu mal'unning umri shunday tugadi. Biqiniga xanjar sanchilganda, azobdan to'lg'onganda, so'nggi nafasi chiqishi oldida xayoli ravshanlashganda nimalarni o'yladi? Otasini tuproqqa qo'ygach, och qolganlari, sarsari kezmanlarinimi? Sillasi qurib, samovarxona yaqinida sulayib o'tirganda oshxo'rlik qilayotganlarga qarab ilk marta odamzodga nisbatan nafrati uyg'onganini, marg'ilonlik qimorbozning uyidagi xizmatlarinimi, bu uydagi maishat, buzuqchilik yo to'kilgan qonlarnimi? Qo'rboshining, so'ng Xaustonning xizmatlarini ado etganimi yo Hirotda, tashlandiq uyda, hind muhojirining boshiga tosh bilan urib, so'ng oqbadan xonimchaga och bo'riday tashlanib, signalaridan tishlab-tishlab yayraganinimi, so'ng karvon ortidan soyadek ilashib bu yerga qadar kelgani, qorong'i kechalarda oqbadan xonim bilan ko'rishib turgani, ammo nafsini qondirolmaganimi, yo bu kech devor oshib saroyga tushganda: "Endi albatta aysh suraman", deb ahd qilganinimi? Ushalmay qolgan orzularinimi? Qimorda yutib olgan qizlar, yosh juvonlar bilan bo'lgan kechalarinimi? Yo'q, bularni emas. U yutuqlarga o'rganib qolgan edi. Hayotni ham qimor deb bilardi. Bu qimorda ham doimo oshig'i olchi turishiga amin edi. Nima uchun bugun omad ketdi undan. Bu o'yinga jonini tikkan edimi? Nahot endi uning oshiq tashlash imkoni yo'q? Hayot qimori shunchalar beshafqatmi? U ko'z yumgan mahalida shularni o'yladi.

- Sohib, bu yoqqa qarang, - dedi G'ulomqodir yonida o'tirgan Mirza Qandilxon.

Asadulla tiz cho'kib, engashib, yigitning boshiga bilagini bolish qildi.

- Sohib, - G'ulomqodirning ovozi juda zaif chiqdi. - Sohib, sizdan roziman, rozi bo'ling...

Shunday deb bu yigit ham ko'z yumdi. Ko'z yumdi-yu, har tun qonga belangan xotini bilan adoqsiz suhbat qurish azobidan qutuldi. Niyatiga yetdi.

Shuvalov sovarning qo'lidagi mash'alani oldi-da, eshikni ochib ichkariga bir qadam qo'ydi-yu, to'xtadi.

- Mira'lamovich!

Asadulla G'ulomqodirning boshini asta yerga qo'yib, o'rnidan turdi: ichkarida sochlari parishon, ko'zlari chaqchaygan Sinelnikova jonsiz, to'shakda chalqancha tushib yotardi.

- Zahar ichganga o'xshaydi.

- Bizga atalgan zaharnimi?..

Xmarin xonaga otilib kirib, jasad yoniga keldi-da, tiz cho'kdi.

Kafti bilan murdani ko'zlarini yumdi.

- Janoblar, iltimos, holi qo'yinglar.

- Nikolay Zaxarovich...

- Iltimos, Vitaliy Sergeevich, xalal bermang...

Ular chiqib, Mirza Qandilxonga bo'lgan voqeani qisqa bayon etdilar. Sovarlar jasadlarni pastga ko'tarib tushdilar.

- Veniamin Samoylovich ko'rinmaydimi? - dedi Shuvalov birdan sergak tortib.

Ular tez-tez yurib, Ushinskiyning xonasiga bordilar.

- Veniamin Samoylovich, uyg'oqmisiz? - dedi Shuvalov eshikni taqillatib.

- Uyg'oqman, azizim, uyg'oqman. Faqat meni bu ishlarga aralashmang, iltimos sizdan, murdani ko'rsam... qo'rqaman...

chidolmayman... - dedi Ushinskiy ichkaridan. Shuvalov eshikni itargan edi, ochilmadi.

- Ana, Pushkinning shaydosini ko'rib qo'y, - dedi Shuvalov zinadan pastga tushayotib, - ishqiy she'riyat deb toza boshlaringni qotirdimi?

- Ishongim kelmaydi. She'riyatga shunchalar mehr qo'ygan ayol, shu nozik tuyg'ulari bilan...

- Oshirvording, Mira'lamovich, bu ayolda nozik tuyg'u bo'lmagan hech.

- Zikriyo afandi, qalandarni ham...

- Ha, shuning ishtirokida bo'lgan hammasi. Zikriyo afandi xonimchaga shaharga chiqish, Mazori Sharifga xabar yuborish uchun kerak bo'lgan. Keyin Xmarindan xanjarni o'g'irlagan. Ish bitgach, izma-iz kelayotgan odami qalandarni chetlatgan. Xonimchani boshqacharoq ekanini Hirotdayoq sezganman. Esingdami, forschani biladigan o'xshaydi, devdim. Qalandar o'ldirilgan kechasi men tentak bir odamni ko'ribmanu chodirga Ushinskiy ketyapti, deb o'ylabman. Kobul sayriga nima uchun bormaganimni endi bilgandirsan? Xonimcha chiqolmadi, odami kelishga majbur bo'ldi.

- Sinelnikovani Xmarin qo'shgan edi.

- Xmarin bilmagan. Yaxshi ko'rardi uni, sezmaganimmi? Xonimchada ko'p sir bor edi. Anqovlik qildik. Endi yangi xatarga ro'para kelishni kutamiz... Boshqa ilojimiz yo'q. Xauston shu yerda bo'lsa... demak, Xasanxon hazrat ham yetib kelgan. Balki amir bilan uchrashgandir, a? Balki amir muzokarani shu hazrat bilan boshlab yuborgandir? Ha, ular yaqin yo'ldan yurib, bizdan oldinroq yetib kelishgan. Ishlarimiz chatoq, og'ayni...

Tong qorong'isida murdalarni aravalarga ortib, qayoqqadir olib ketishdi.

Mirza Qandilxon kun yoyilganda qaytdi.

- G'ulomqodirning janozasida ishtirok etuvimizga ruxsat olib bering. Jilla bo'lmasa men boray, - dedi Asadulla unga.

- Sohib, biz kengashib, jasadni Choraymoqqa jo'natdik. Sizning boruvingiz mutlaq mumkin emas. Erta tongda hazrat amir sohib yo'qlaganlar.

- Erta tongda? Iydi qurbon tongida? Birgina menimi?

- Ha, birgina siz borasiz...

"Bu qanday muammo bo'ldi?" deb o'yladi Asadulla.

Tong otishiga hali ancha vaqt bor bo'lsa-da, Kobul ahli uyg'onib, namoz tadorigini boshlab yuborgan edi. Ko'chalar jonlangan:

"Iydi qurbon keldi, qurbonlik qiling, o'g'lini qurbonlik qilgan ul Halilulloh haqqi", deb jar solayotgan qalandarlar shahar tinchini buzishgan edi.

Asadullani Idgoh masjidiga boshlab keldilar. A'yonlar hali ichkari kirishmagan, aftidan, hamma amirning tashrifini kutar edi.

Asadullani Mahmud Tarzi kutib olib oldinga boshladi. Masjid eshigi yaqinida, tarashaday ozg'in Xasanxon hazrat bilan...

Mirkomilboyni ko'r-di-yu, beixtiyor taqqa to'xtadi. Ular ham Asadullani tanishdi. Tanishdi-yu, ko'p parvo qilishmadi. Asadulla

Tarziga savol nazari bilan qaradi. U: "Hammasidan boxabarman", deganday bosh irg'ab qo'ya qoldi.

So'fi azon chaqirmay turib, amir keldi. Jussasiga nisbatan oyoqlari kaltaroq, xarakatchan yosh yigit tez-tez yurib kelib, eshikka yetmay, to'xtadi. Avval Xasanxon hazrat bilan Mirkomilboyning, so'ng Asadullaning salomiga alik oldi-da, boshqa so'z aytmay, ichkari kirib ketdi.

- Turkistonliklarning yonidagi kim? - deb so'radi Asadulla masjidga kirayotib.

- Ul zot, Afg'oniston hazratlaridan - Qodir og'a hazrat deydilar.

Asadulla bu gapni eshitib, muammoning chigalini yechganday bo'ldi.

Namozdan so'ng Mahmudbek Tarzi Asadullani avtomobilgacha kuzatib qo'ydi...

Xmarin nonushtadan keyin turib ketmoqchi edi, Asadulla uni to'xtatdi.

- Kengashib olishimiz kerak, - dedi.

Shiyonda yolg'iz qolishgach, bo'lgan gapni bayon qildi.

- Demak, gumonim to'g'ri chiqibdi, - dedi Shuvalov o'ychanlik bilan. - Demak, hazrat Kobulda... Mirkomilboyning paydo bo'lishi qiziq. Makkaga boradi, deb eshitgan edim. Yo yo'l-yo'lakay kelganmikin?

- Makkaga Kobul orqali borilmaydi, Vitaliy Sergeevich, - dedi Xmarin.

- Mirkomilboyning o'g'illari ham Kobulda ekan, namozda birga bo'lishdi, - dedi Asadulla. - Ularning Londondan bu yerga kelishi, otalari bilan uchrashishi tasodifmikin?

Shuvalov o'ylanib qoldi. Ularni ta'qib etib kelgan muammolar tumani bu yerda quyuqlashdi. Amudaryoda, Karki yo'lida pistirmaga duch kelganlarida ro'paradagi xatarni aniq ko'rib turgan edilar. Endi qanday ofatga, qachon duch kelishlarini bilmaydi. Unga bir narsa aniq: dushmanning rejasi puxta o'ylangan. Har bir imkoniyat nazarda tutilgan. Hatto Mirkomilboyning o'g'illari bir maqsad bilan bu yerga keltirilgan. Shuvalovga ham, vakola hay'atining boshqa a'zolariga ham shu maqsad qorong'i. Ular hozircha shu muammo ustida bosh qotiradilar. Farg'onadan ham bir guruh vakil kelib, hazrat va Mirkomilboy qanotida birlashgani ularga hali noma'lum.

Shuvalov o'ylay-o'ylay, oxiri Asadullaga qaradi:

- Amirning niyatiga tushunmadim. Ularni nima uchun senga ro'para qildi?

- Shunchaki bir-biriga ko'rishtirish, deb o'ylaysizmi? - dedi Xmarin bosh chayqab. - Yo'q, bu yerda boshqa gap bor. Ular Qodir og'a hazrat bilana birga bo'lsa... bir shumlikni o'ylashgan. Siz... namoz o'qidingizmi?

- Ha, bo'lak ilojim yo'q edi.

- Siz? Hali namoz o'qidingizmi? - dedi Ushinskiy hayratlanib. - O'sha hazratlar bilan-a?

- Veniamin Samoylovich, o'zingizni bosing. Namoz o'qib to'g'ri qilganlar. Amirga shu kerak bo'lgan. Buni nimaga tushunmaysiz? Amirga Turkistonni kofir bosib ketdi, degan vahimali gaplar yetmagan deysizmi?

- Amir ular bilan muzokara boshladimikin? - dedi Asadulla.

- Bundan ajablanmaslik kerak. Hali bolsheviklar Turkistonga uzil-kesil hukmronlik qilisha olganicha yo'q-ku? - dedi Xmarin. - Farg'onada islom lashkarlari, Orenburgda Dutov, Qizilqumda Ashxobod hukumati...

- Nikolay Zaxarovich, siz hali... bolsheviklarga ishonmaysizmi?

- Veniamin Samoylovich, mening ishonish-ishonmasligim hozir hech nimani hal qilmaydi, shunday emasmi? Men mavjud ahvolni eslatyapman. Bu vaziyat amirga ham ma'lum. Demak, har ikki tomon bilan ham gaplashaveradi. Buxoro amiri elchi yuborgan bo'lsa u bilan ham muzokara yuritaveradi. Siz unga biz bilan gaplash, u bilan gaplashma, deyoilmaysiz.

- Yo'q, azizim, deyishimiz kerak, - deya Ushinskiy qo'lini paxsa qildi. - Biz Rossiyaning, jumladan, Turkiston hukumatining haqli vakillarimiz. Na hukumatdan, na xalqdan vakolasi bo'lgan qandaydir ulamolalar bilan muzokara yuritishiga norozilik bildirishimiz shart.

- Men Veniamin Samoylovichni qo'llayman, - dedi Shuvalov. - Duch kelgan ulamo bilan muzokara yuritaversa, amirning lafzi qoladimi? Xasanxon hazrat bilan Xauston xalqqa qarshi jinoyat qilishda ayblanadi. Buni amirga ma'lum qilib qo'yish kerak.

- Habibulloxon Farg'ona bosmachilariga yordam va'da qilib, elchi jo'natgan ekan. Balki bu amirning niyati ham shundaydir. Biz bilan bir gapni gaplashib, ulamolarga boshqa va'da berar? - dedi Asadulla.

- Diplomatiya o'yinida har narsa bo'lishi mumkin, - dedi Xmarin. - Norozilik bildirish kerak, desanglar, mayli, bu ishni Asadulla Miralamovichga topshiraylik, Turkiston jumhuriyatining rasmiy elchisi sifatida janob Tarziga uchrashinlar. Rasmiy norozilik xatini birgalikda yozamiz.

- Xasanxon hazrat bilan Xaustonni jinoyatchi sifatida bizning hukumatga topshirishlarini ham talab qilishimiz kerak. Asadulla Mirza Qandilxonni chaqirdi-da, zudlik bilan xorijiy noziriga uchrashishi zarurligini aytib, "bu oqshom sardor sohib o'zlari tashrif buyurajaklar", degana javobni eshitdi.

... Tarzi norozilik xatini o'qidi-yu, darrov javob bermadi.

- Turkistonliklar sizlardan ancha avval yetib kelgan Kobulga, - dedi u bir ozlik sukutdan so'ng. - Shu fursatga qadar hazrat amir sohib sizlarni kutmoqda edilar. Sizlar bilan muzokara yuritmoqdan o'zga niyatlari yo'q. Bunga men kafil. Iyd munosabati bilan Turkiston ulamo vakolasi mehmon qatorinda izzat qilinurdi va siz bunga ajablanmasligingiz lozimdir.

- Xasanxon hazrat bilan Xauston Turkistonda xalqning begunoh qoni to'kilishiga sabab bo'lishgan. Ularni tutib bizga topshirmog'ingiz kerak, - dedi Shuvalov, Asadulla uni tarjima qildi.

- Bu mumkin emas, - dedi Tarzi. - Biz mehmonlarga ozor yetkurmamiz. Odatimiz shunday.

- Odatingiz qiziq ekan. Ular bizni o'ldirmoqchi bo'lishdi, eshitgandirsiz? Ular bu fikrdan qaytgan deb o'ylaysizmi?

- Bu fojeadan darak topdim. Bu bizning-da aybimiz. Sizlarni ihota etajak sovarlar ikki hissa oshirildi. Halovatingiz buzilmaydi sira. Darvoqe... Xauston deganingiz kim? Inglismi?

- Ha. Angliyaning Toshkentdagi ayg'oqchisi. Ko'p g'alamisliklarni boshqargan. Fosh bo'lishini bilib, bu tomonga kelgan. Uning Kobuldaligi aniq.

- Bunisi men uchun qorong'i edi.

- Xauston forsiy lisonida-da, turkiyda-da birday yaxshi so'zlaydi. Shakl-shamoyili, ism-sharifini ham o'zgartirib olgandir, - dedi Asadulla.

- Uni Qodir og'a hazrat, Xasanxon hazrat, Mirkomilboylarni kuzatib yurib, topish mumkin, - deb qo'shimcha qildi Shuvalov.

- Buni aniqlaymiz, - dedi Tarzi, - inglis bizning mehmon emas, unga shafqat yo'q. Tarzining bosliqlik va ishonch bilan aytgan bu so'zlari vakola hay'atidagi gumonni, norozilikni bir oz yumshatdi. Tarzi miyig'ida kuldi.

- Bugun iydi qurbon. Nima, Turkiston musulmonlari iydi qurbon namozini kanda qiladilarmi?..

- Bizga bu chorlov sinov bo'lib ko'rindi, - dedi Asadulla.

- Siz namozga chorlanib, amirning lutfiga erishdingiz.

- Amir bizni qachon qabul qiladi? - deb so'radi Ushinskiy.

- Hazrat amir sohib avvalo safir sohib ila diydor ko'rishadilar.

- Biz-chi?

- Veniamin Samoylovich, g'azablanmang, diplomatiya qoidasi bu. Ishni elchi yuritadi.

- Bo'lmagan gap. Biz yangi hokimiyat vakilimiz. Ishni yakka odam emas, ko'pchilik hal qiladi. Aytib qo'ying.

- Kerak emas, Veniamin Samoylovich...

- Yo'q, tarjima qiling.

- Janoblari bir nimadan norozimilar? - dedi Tarzi, Ushinskiyning achchiqlanayotganini sezib.

- Nozir sohib, biz Sho'rolar hukumatining vakillarimiz, - dedi Asadulla bosliqlik bilan, - har bir ish ko'pning kengashi bilan amalga oshadi. Amir sohib bizni yakka-yakka emas, birgalikda chorlasalar, degan ilinjimiz bor.

- Ajab... - Tarzi kalta soqolini silab o'ylandi. Amirning: "Elchilar orasida parokandalik bor emish", degan gapini esladi. - Bir-birovlaringizga ishonmaysizlarmi? - dedi afsuslangan ohangda.

- Bu xulosangiz chakki, nozir sohib, inonmaganimiz uchun emas, ishni pishiq-puxta yuritmoq maqsadida ko'plashib kengashamiz.

- Ma'qul... - Asadullaning izohidan Tarzi qoniqmadi. Ko'nglining bir chetida afsus uyg'ondi. - Men istaklaringizni hazrat amir sohibga bildiraman.

Tarzining ruhi shikastlanib, bog'da uzoq qolmadi. Asadullaning ko'kragiga bexos qattiq og'riq turib, halovatini yo'qotdi. Tarzining barvaqt ketishi unga ayni muddao bo'ldi.

Shuvalov ertalab Mirza Qandilxonni uning xonasiga boshlab keldi. Og'riq bosilgan bo'lsa ham Asadulla o'zini behol sezib yotardi. Mirza Qandilxon avtomobilda shifoxonaga eltajagini aytgach, o'rmidan turdi.

Avtomobil Yevropa tarzida qurilgan bir qavatli imorat oldida to'xtatish bilan ichkaridan gotma, boshiga hoji do'ppi qo'ndirilgan bir



kishi chiqib, iltifot qildi.

- Shifoxona mudiri Mizbek sohib, - dedi Mirza Qandilxon, uni tanishtirib, - usmonli turklardan bo'lsalar-da, afg'on eli uchun a'lo xizmat qiladilar. Tashhis va tashrih1 ilmda buyuk mahoratlari bor.

- Afandim picha ulug'lab yubordilar, darkor emas bu menga, qani, marhamat qilsinlar, - dedi Mizbek forsiy talaffuzini buzib gapirib.

Mudir ularni keng bir xonaga boshlab kirib, o'zi qayoqqadir chiqdi.

- Yilda yuz tashrihga qo'l urib, yuzdan besh bemorgina omonatini topshirar ekan. Deydilarki, bir necha yil burun, Mizbek sohibning o'zlari Farangistonga borib, ko'p yillarga yetadigan davolar, shifoxonaning mukammal ashyolarini keltirgan emishlar. Mudir kirib, Mirza Qandilxonning gapi chala qoldi. Mizbek Asadullani obdan tekshirgach, bosh chayqab qo'ydi.

- Joningizda qasdingiz yo'qmi, afandim? - dedi u Asadullaning tomir urishini yana bir karra eshitib turib. - Siz nonni tepkilamaysiz, uvol, gunoh deysiz. Biroq sihatingizni tepkilaysiz. Bu gunoh emasmi? Gunoh, afandim, gunoh. Ko'p uqubatlar boshingizga tushgan ko'rinadi. Siz shifoga muhtojisiz.

- Shu ilinjda keldim huzuringizga.

- Afandimga davolar qilib beraman, - dedi Mizbek Mirza Qandilxonga qarab. - Qayga qo'nganlar, men vaqt-bevaqt kirib turay.

- Siz urinmang, sohib, aytgan kuningiz o'zimiz kelamiz, - dedi Mirza Qandilxon.

Mizbek ularni yana xoli qoldirib chiqdi. Ancha hayalladi. Bir vaqt qo'lida allaqancha dorilar bilan kirib keldi.

Boqqa qaytganlarida vakola hay'ati shiyponda gurunglashib o'tirgan edi.

- Asadulla Mira'lamovich, yana namozga olib borishdimi? - dedi Ushinskiy.

Asadulla javob berishga ulgurmay, Xmarin norozi ohangda dedi:

- Ahvolini ko'rib turibsiz-ku?

- Hazillashdim. Tavba, hazillashib ham bo'lmaydi-ya...

Mirza Qandilxon shaharga qaytib, peshinda xushxabar bilan keldi: amir ularni huzuriga chorlabdi.

Beshinchi bob - qaldirg'och

1

Kobuldan o'n ikki chaqirim yuqorida, tog' orasidagi vodiya barpo etilgan Bog'i Fag'mon - amirning yozlik qarorgohi. Daraxtlar larzon-larzon soya tashlab, gul-chechaklar chaman ochilib yotgan bog'dagi shiyponda Omonulloxon Qodir og'a hazrat bilan suhbatlashib o'tirardi. Mahudbek Tarzi suhbat ustidan chiqib, to'xtab qoldi. Amir qaynotasining ikkilanganini sezib, "bizda sir yo'q, kelabering", deganday nigohi bilan im qoqdi. Tarzi hazrat bilan omonlashib, uning yonidagi bo'sh o'rindiqdan joy oldi. Amir hazratga qarab, chala qolgan gapini davom ettirdi:

- Alqissa, hazratim, jannatmakon bobom farmoni hanuz inobatga olinmaydur. Bu holga arkoni din ham ayblidur. Bu ne fig'onkim, yurt lutfiga molik aqrobalar-da hanuzga qadarli qullar va cho'rilar saqlashsa? Aqoid yo'l qo'ymagani, jannatmakon bobom Abdurahmonxon farmon ila man etgani holda ham shariat hukmiga, ham amir farmoniga bosh egmaslikni ne deb izohlash kerak? Yurtda qullar, cho'rilar mavjud ekan. Afg'onistonning ozodligi qayga bordi? Biz amru farmon qildik: qullar beto'xtov ozod qilinmog'i shart. Agar hoja cho'ri ila birikkan bo'lsa, undan bola tug'ilgan bo'lsa, beto'xtov nikohlanishi, so'ng ayol xohish bildirsa, ro'zg'ordagi ulushini ayirib, istagan yeriga eltib qo'yilishi lozim. Umid shulkim, bizim bu farmoni oliyimiz arkoni din tomonidan quvvatlang'ay.

- Ollohning o'zi madad berib, qo'llab-quvvatlag'ay sizni, - Qodir og'a hazrat shunday deb, tasbeh donalarini terganicha o'yga botdi. Amir ham, Tarzi ham uning bir dardi borligini sezib, so'z boshlashini indamay kutishdi. Hazratning aytadigani tayin, lekin u niyatini Tarzi huzurida bildirgisi kelmayotgan edi. Shuning barobarida aytmay chiqib keta olmas ham edi. Tarzi bo'lmaganida maqsadini lo'nda qilib aytib qo'ya qolardi. Nachora, gapni aylantirib, burab, maqsadni izhor qilishi zarur. Hazrat shuning uchun o'ylanib qolgan edi. Bir qarorga kelib, aytadiganlarini fikr tarozisidan o'tkazib, ko'zini tasbeh donalaridan oldi-da, amirga qaradi: - Musulmon xalqlarining buyuk oilasi, nadomatkim, o'z tashvishiga o'zi bandi bo'lib qoldi. Turklar turk eli, arablar arab eli, hindlar hind eli, eronilar eroni eli, buxoroliklar buxoro eli yumushlari bilan band. Islom taraqqiysi xususida kim qayg'u chekadi? Hech kim... Astag'firulloh... gunohlarimizni o'zing kechirgaysan. Ollohga hazor-hazor shukrkim, gunohkor bandalariga yana rahm etib, islomni sharmandalik chohida qutqarish uchun qudrat yubordi yerga. Bu qudrat sizziz, hazrat amir sohib. Buxoro Sharifga kofurlar tahdid soladimi. Hindiston musulmonlarning jihodi akbari alanga oladimi, Makkai Madinaga kofurlar qadami yetadimi yo'qmi, bu muammolarning bari sizning zimmangizga yuklangan. Musulmon olamining taqdiri sizning qo'lingizda. Buni bilib, huzuringizga bosh urib kelgan musulmon vakolalarining dardu hasratini tinglab, chora-tadbir ko'rmog'ingiz farzdur. Turkistondan kelmish vakola diydoringizga yetishmoq ilinjida.

- Kimlar ular?

- Men... ularni avval sizga aytib edim...

- Xorijiya noziri ham bilsin, aytin.

- Vakola sarvari Turkistonning e'tiborli amlokdorlaridan Mirkomilboy hoji. Uning qanotida Toshkentning e'tiborli ulamolaridan Xasanxon hazrat, Farg'ona ulamolari, shuning qatorida Qo'qon xoni Xudoyorxon avlodlaridan Akromxon to'ra...

- Xauston deganlari-chi?

Tarzining kutilmagan savoli hazratni gangitib qo'ydi. Hazrat ichidan zil ketgan bo'lsa-da, sarosimasini sirtiga chiqarmadi.

- Kim u, inglismi? - deb so'radi Omonulloxon Tarzidan.

- Ha, inglisi, - dedi Tarzi va hazratga tikilib qaradi.

- Astag'firulloh, bu qanday ig'vo bo'ldi?! Musulmonlar orasida inglisi mavjudligi?..

Amirning savoliga javob topmay turib, Tarzining savoliga duch keldi:

- Hazratim, ma'zur tuting, menga Hirotdan noma yetib keldi. Afg'onistondan qalandarlar sarhad hatlab, nojoiz so'zlar aytib yurishibdi ekan. Ya'nikim, daryoning ul beti Afg'onistonga tobedur, degan gaplar hamhudud davlatlar orasida ig'vo uyg'otmog'i mumkin. Bu voqeadan darak topganmisiz?

- Astag'firulloh... Bu qandayin bedodlik! Qalandar ahli Ollohning suygan bandalari, yurtga omonlik tilab, toat-ibodat qilishdan bo'lak yumushlari yo'q. Ma'lumingiz bo'lsinkim, o'rus vakolasi Hirotdan bir begunoh qalandar joniga qasd qilgan.

- Shu rostmi? - dedi Omonulloxon Tarziga yalt etib qarab.

- Rost, amir sohib. Ammo qotil g'oyib bo'lgan. Bul qalandar Ko'shkda hibs qilinub, huzuringizga keltirilayotgan ekan. Noib

Hirotda so'roq qilganida qalandar hazratning nomlarini tilga olibdi, qalandarlar hazratning yo'rig'i ila ish yuritishayotgan ekan.

- Hazrat! - amir shunday deb o'rnidan turib ketdi. - Kim vakolat berdi sizga?

- Amir sohib, badxohlik bu, tahayyur1dan jonim bo'g'zinga keldi. Vodarig', vodarig'... nahot shunday tahavvur2ga men sa'y etsam? Vallohi a'lam, padaringiz men ila bu xilda muomalada bo'lmas edilar?

- Ha! - Amir qo'lini orqasiga qilib, shiypon bo'ylab yurdi. - Voqean shunday. Noxalaf o'g'il bo'lishdan Ollohning o'zi asrasin.

Sardor, - u qaynotasiga murojaat qildi, - bu so'zlarni zinhor tildan uchira ko'rmangiz. Osmontazin hazrat sha'niga mutlaq munosib emas, ha! Omonulloxon hazrat ro'parasida to'xtadi: - Musulmon vakolaga ma'lum qiling: suhbatimdan ertaga bahramand bo'lgulari.

Qodir og'a hazrat o'rnidan turib, yengil ta'zim qildi. Bu yerda qiladigan o'zga yumushi yo'qligini bilib, amirga omonlik tiladi-da, shiypondan tushdi.

- So'zlaringiz haqiqatmi? - dedi amir, hazrat uzoqlashgach.

- Muhammad Sarvarxon darak qildi.

- U holda noxanjor1 so'z aytibsiz. Sharafli xadisa ko'ra, bir tog'ning o'rnidan ko'chub ketganini eshitsangiz inoningiz, ammo hazratning xulqi bo'lak bo'ldi, deb eshitsangiz inonmangiz. Ilon dumini bosish xayrli emas. Hazratning fatvosi inglising zambaragidan a'loroq.

Tarzi miyig'ida kulimsiradi:

- Inglistondan cho'chimagan amir bir johildan qo'rqsa?

- Ha, qo'rqaman! - amir shunday deb, qaynotasiga qovoq uyib qaradi. - Siz, dono odam, avomni o'sha johil izidan menga qaytarib bering-chi? Indamaysiz? Inglistonga tig' ko'targanda avomning izimdan borishiga amin edim. Hazratga qarshi yursam, avom meni tig' bilan kutib oladi, fahmingiz yetmaydimi shunga?

- Fahmim yetadi, amir sohib, siz hazratga qarshi bormaysiz, lekin qo'rqishingizni sezdirib qo'yganingiz chakki.

- Sezdimi? Yo'q, sezmedi. Siz ilonning dumini bosdingiz. Men esam afsun qilib o'ynataman bu ilonni. Haqgo'ylicingiz bilan menga xalal bermang.

- Hali-zamon Shuravi Rusi vakolasi huzuringizga yetib keladi.

- Nur alan-nur. Muzokara vaqti yetdi.

Asadulla o'rnidan turib yuradigan ahvolda emasdi. Ko'krakdagi og'riq tuni bilan azob berib chiqdi. Ko'zlari qizarib, qovoqlari salqib qoldi. Qadam tashlasa qattiq yerda emas, yuzlarini po'panak bosib qalqib turgan ko'lmakdan yurayotganday bo'ladi.

- Bu ahvolda bormaganim ma'qulmikin, - dedi u Xmaringa.

- Siz vakoladagi yagona musulmonsiz. Amirning ko'ngliga boshqa gap keladi. Tishni tishga qo'yib, og'riqlarga chidab, borib kelmasangiz bo'lmaydi.

Asadulla avtomobilda borayotganda ham, bog'i Fag'monda undan tushib yurganda ham, Tarzi bilan ko'rishganda ham "ishqilib, hushimni yo'qotmasam edi", deb havotirlandi. Bu ravzamonand bog'ning havosi, manzarasi Toshkent biqinidagi Chimyonni eslatganidanmi, sal yengil tortganday bo'ldi.

Harbiy libosdagi amir ularni bir tarafi oynabandlik qasrda qarshi oldi. Omonulloxonga dastlab Xmarin ro'para bo'ldi. U Turkiston Tashqi ishlar xalq noziri imzolagan yorliqni yengil ta'zim bilan uzatdi. Omonulloxon uni olib, Tarziga berdi.

- E'timodnoma1, - dedi Tarzi uni ochib o'qib. - "Hamhudud, do'st va ozod Afg'oniston hukumatiga birodarlik samimiy salomlari yo'llash barobarinda ushbuni ma'lum etamizki, Rossiya Ijtimoiy Sho'rolar jumhuriyati taxtdan ag'darilgan podsho hukumatining barcha shartnomalarini, jumladan, olam yirtqichi Ingliston qiroli va hukumati ila imzolangan, Istambulni mahv etish, turk, eron, shuningdek, afg'on yerlarini munosafa2 etmoq xususindagi kelishuvlarni mutlaq bekor qildi. Rossiya jumhuriyati bir-birovini o'zaro hurmatlash asosinda Turkiya ila shartnoma tuzdi. Hamda o'zga xalqlar yerlariga qo'shin tortish siyosatidan yuz o'girish, hamhudud davlatlar mustaqilligini tan olish hamda ular bilan birodarlik, samimiy ham hududlik va tijorat aloqalari bino qilish xususinda qaror qabul etdi.

Mazkur qarorni amalga oshirish maqsadida Rossiya hukumati janob Xmarinni Afg'onistonga vakil qilib jo'natadi. Janob Xmarin saforat ishlarida xo'p tajriba orttirgan, Eronda birmuncha vaqt saforatxona yumushlari ila band bo'lgan, sharqni durust biluvchi, o'zini sharq xalqlarining do'sti deb hisoblovchi, musulmon xalqlarining mustaqilligini tabrik etuvchi xolis niyatli zotdir..."

Tarzi qog'ozni o'qib bo'lib, amirga qaradi.

- Men Sho'ro jumhuriyati hukumati nomidan Afg'oniston mustaqilligining tan olinganini rasmiy ma'lum etishga vakil qilinganman. Rossiya Afg'oniston mustaqilligi va ozodligin tabrik etadi.

- Nur alan-nur! - dedi amir elchiga va xorijiya noziriga ma'nodor qarab qo'yib, dedi: - Hukumatingizning munir niyatlari, inshoolloh, ijobat bo'lg'ay, Fikri ojizimcha, hamhudud Eronga ham lutflar ko'rgazilgan, shundaymi?

- Shunday, hazrat amir, Eronning inon-ixtiyori o'ziga qaytarilgan.

- Bizga Erondan yetib kelgan daraklar ko'ngulni xushlamaydi. O'rus askarlari yovgarchilik boshlab, barqi ibtiloni chorlab, Tehron ila Tabriz fuqarosini tig'dan o'tkazgan emishlar?

- Amir hazrat, bu voqeaga o'zim shohid bo'lib edim, - dedi Xmarin. - Sho'rish yangi hukumat tomonidan emas, podshohning qochoq askarlari tomonidan ko'tarilgan. Ularga Turk hamda Angliya hukumati ko'mak bergani aniq. Shunga qaramay, Rossiyaning yangi hukumati Eron fuqarosiga yetkuriilgan zararni qoplamoq uchun xayrli ishlar qildi.

- Ma'qul, - amir shunday deb Asadulla tomon bir qadam qo'ydi. - Turkiston musulmonlarining ahvollari nechuk? Ularga-da ozodlik in'om etilurdimi?

- Ha, amir sohib, - dedi Asadulla, kalta-kalta nafas olib, - ozodlik, hurlikka erishganmiz. Taqdirimizni belgilash huquqi berilib edi. Biz rus xalqi ila birga qolishni ma'qul ko'rdik.

- Sabab?

- Rus xalqi va bizim xalq taqdir ipi ila bog'langan. Ruslar rostbasar xalq.

- Afg'onlarga taqdir ipi ila bog'lanmoq mumkin emasmi edi?

Amirning bu savoli Asadullani gangitib qo'ydi. Bu gangish javob topish mushkulligidan emas, aksincha, haq javobning amirga nomaqbul kelishi aniqligidan edi. Qolaversa, xastalik zahmi uni gapni muhtasar etishga undardi. Lekin savol berilgan, undan bo'yin tovlash noxush fikrlarga sabab bo'luvi mumkin edi. Shuning uchun Asadulla gapning po'stkallasini ayta qoldi:

- Dunyodagi insonlar do'stlikning mehr va muhabbati soyasida yasharlar. Afg'onlar ila do'stligimiz zamonlarning tubsiz qa'ridan oqib kelib, bizni qovushtiradi. Rafiqi jovidoniy, rafiqi mavaddatliq1 bizning yozug'imiz. Ammo alhol borajak yo'limiz ayri. Bizda

arkoni mulk barham topib, avomning inon-ixtiyori o'ziga berilgan.

- Arkoni mulk barham topmagan, - dedi amir uning so'zini bo'lib.

Asadulla gaplari amirga malol kelganini fahmlab:

- Shu bois yurt notinch, - deb izoh berdi.

- Ota-ona farzandga, farzand ota-onaga muhtoj bo'lgandek, boy faqirga, faqir bo'lgan muhtojdir. Ha!

Asadulla o'jarligi bilinib turgan bu yosh amir bilan bahslashishning befoyda ekanini bilib, e'tiroz bildirmadi. Baxtiga Omonulloxon undan javob kutmay, Shuvalovga yuzlandi.

- Harbiy maslahatchimiz, - dedi Xmarin uni tanishtirib.

- Afg'on lashkarlarining yarog'ini ko'rdingizmi? Ma'qulmi? - deb so'radi amir Shuvalovdan. Xmarin tarjima qildi.

- Yarog'lari mukammal, aksar inglisi ekan. Biroq... kiyimlari bir oz qo'polroqmi... chaqqon harakat qilish qiyin.

- Ma'qul. Buxoroniki-chi? Biznikidan afzalmi?

- Yo'q. Nochorroq.

- Sizniki-chi?

Shuvalov kulimsiradi.

- Biz jang qilyapmiz, janob amir, bu xususda so'ramang.

- Durust, - amir shunday deb Ushinskiyga yuzlandi.

- Siyosiy maslahatchimiz, - dedi Xmarin.

- Siz O'rusiya podshohi a'lamdan taxtni tortib oldingiz. Podshohdan yuz o'girgan hukumat amir bilan do'st bo'la oluviga imoningiz komilmi?

Asadulla "qovun tushirmasmikin" degan xavotirda Ushinskiyga qaradi. Ushinskiy gapni aylantirib o'tirmadi, lo'ndasini aytib qo'ya qoldi:

- Siz xalqingizni o'z yo'lingiz bilan saodatga olib bormoqchisiz. Biz o'z yo'limiz bilan. Qaysi yo'ldan borish har birimizning ichki ishimiz. Bunga aralashmaymiz. Imperator xalqni saodatga emas, jarga boshlagan edi. Shu sababli hokimiyatni oldik, vassalom.

- Ma'qul, - amir shunday deb ularni o'tirishga taklif etdi. Ana shunda Asadulla muvozanatini yo'qotdi. Xmarin suyak qolmaganida yiqilib tushishi tayin edi.

- Toblari yo'q. Hazrat amir suhbatlaridan bebahra qolmay deb kelib edilar, - dedi Xmarin izoh berib.

- Sardor, - dedi Omonulloxon Tarziga qarab, - zudlik bilan shifoxonaga elting. Biz janoblar bilan birgalikda ahvoli olamdan so'z yuritajakmiz. Siz... - amir Asadullaga tikildi, - erta bilan tashrif buyurarsiz, alohida suhbat qururamiz.

2

Mizbekning davosi bu safar picha amal qilib, Asadulla kechga tomon o'zini bir oz bardam sezdi. Bu tun uyquasi ham xotirjam kechdi. Tongda tiniqib turdi.

Nonushtadan so'ng Asadullaning amir huzuriga yolg'iz borishi yoki bormasligi muhokama qilindi. Amirning bu uchrashuvdan ko'zlagan maqsadini bilolmay gangishdi.

- Amirning xohishiga bo'ysunishga majburamiz, - dedi Xmarin bahsga yakun yasab. - Mahmud Tarzining gaplarini unutmang: - "Bir-biringizga ishonmaysizmi?" degani yodingizdami? Bolshevik bo'lmaganim uchun menga uncha ishonmaysizlar. Asadulla Mira'lamovich bolshevik-ku. Diplomatiya qonun-qoidalariga binoan suhbat qura olishlariga shaxsan men aminman.

Asadulla Xmarinning bu iltifoti, bu ishonchi uchun minnatdorlik bildirishi kerak edi. Xmarin undan so'z bilan bo'lmasa-da, ko'z qarashiga ko'chgan minnatdorlik uchqunini kutdi. Ammo Asadulla uni ajablantirib, sovuqroq qarashini o'zgartirmadi. Xmarin keyingi kunlarga ichi Asadullaning munosabatida sovuqlik seza boshlagan, buni G'ulomqodirning yoki Sinelnikovaning o'limiga doir ruhiy iztirob natijasiga yo'ygan edi. Kechki sayr chog'idagi Ushinskiy bilan bo'lgan dilkash suhbatiga Asadullaning guvoh bo'lgani esa xayoliga kelmasdi.

... G'ulomqodirning o'limidan keyingi kunlar edi...

Uyqusizlik dardi temir tirnoqlarini ishga solgan damda, Asadulla xonasida yota olmay, boqqa chiqdi. Yulduzli osmon ostida yolg'iz sayr qilyapman, deb o'ylagan edi. Bog' yo'lkasi bo'ylab bir oz yurgach, pastlik tomondan Xmarinning, so'ng esa

Ushinskiyning ovozi eshitib, to'xtadi. Dastlab ikkovi avvalgi g'alvasini davom ettiryaptimi, deb o'yladi. Uning gap poylash odati yo'q edi. Iziga qaytmoqchi bo'lganda Ushinskiyning: "Bilaman, siz bolsheviklarni yomon ko'rasiz", degan gapni uni to'xtatdi.

- Ha. Buni yashirishga hojat yo'q asli. Kim qaysi partiyani xushlasa, o'shanga ergashadi, - dedi Xmarin. - Har holda Yevropaning ilg'or mamlakatlarida shunday. Men barchani baravar emas, asosan bolsheviklarning rahbarini yoqlay olmayman.

- Bolsheviklar sizga ishonch bildirishdi, buni hisobga olmaysizmi?

- Siz menga ochiq gaplashishni taklif etdingiz. Shu taklifingizga ko'ra men fikrimni yashirmayapman. Bolsheviklarning taklifiga nima uchun ko'ndim, aytaymi?

- Ha, albatta, ayting.

- Turkistonni boshqarishni ruslar o'z qo'llarida saqlab qolganlari uchun. Bolsheviklarning eng aqlli ishlaridan biri shu, deb o'ylayman. Men bolshevik ham eser ham, boshqa balo ham emasman. Men rusman va Rossiya manfaatini hamma narsadan ustun qo'yaman. Ota-bobolarimning qoni to'kilgan bu yerlar Rossiyani va bu haqda boshqacha so'z bo'lishi mumkin emas. Bitta ahmoqning dekreti bilan bu yerlarning qo'ldan ketishiga jimgina qarab tura olmayman. Siz bolsheviklar tomoniga yaqinda o'tgan ekansiz. Nima maqsadda o'tgansiz, bilmayman, biroq, sizning bu partiyangiz xoinligi uchun kelajak oldida javob beradi.

- Xoinlik dedingizmi? Tushunmadim, janoblari?

- Rossiyani parokanda qilish xoinlik emasmi? Finlyandiyani, Polshani, Ukraina va Belorussiyaning g'arbini qo'ldan chiqarish, aniqrog'i ahmaqona tarzda in'om etish xoinlikka kirmaydimi? Endi sharqqa ham ozodlik beradimi u nodon?

- Bu masalada shoshqich xulosa chiqarmang. Sharqni berib qo'yadigan ahmoq yo'q.

- Vaqtida general Gorchakov esi pastlik qilmaganida biz bu yerlarga hozirgiday elchi sifatida emas, xo'jayin sifatida kelar edik.

Angliyaning jig'ini ezib qo'yishga Rossiyaning kuchi yetardi. Hirotga yaqinlashib qolgan edi. Yana bir zarba berilsa, Afg'onistonni egallash, hatto Hindistonning g'arbini bosib olib, Hind okeaniga chiqish imkoni tug'ilardi. Nimalarni boy berganimizni tasavvur etib ko'ring! Bu nodonliklarni avlodlar kechirishmaydi. Agar bu nodonliklar davom etaversa, bilmadim, nima bo'larkin...

- Har narsaning cheki bo'ladi, vaqtiki kelib, chegaramiz Hind okeaniga qadar kengayadi. Bizning bu safarimiz o'sha yutuqlarga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Davlat tuzib, davlat yuritishga bu osiyoliklarning aqli yetmaydi. Ular qullik uchun yaratilganlar,



shunday bo'lib qolishlari kerak.

- Ayrim hollarda kelisholmaslik ham, bu masalada hamfikir ekanmiz, men bundan mamnunman, - dedi Xmarin.

Bu gaplarni eshitish Asadullaga azob bo'lsa-da, yangilik ham emasdi. Ushinskiy va unga o'xshaganlardan shu kabi da'volarni avval eshitgan, ammo "tarix g'ildiragi bir hovuch telbalarning fikri bilan aylanmaydi", deb ozodlikka bo'lgan ishonchini so'ndirmagan edi.

Asadulla sal nari ketdi-yu, xonasiga kirib yotishga yuragi betlamadi. Yo'g'onligi salkam ikki quloch keladigan chinor poyiga to'sha qo'yilgan gilam ustiga o'tirdi. Hozirgi nohush suhbat unga safari arafasidagi Munavvar qorining so'zlarini eslatdi. Munavvar qori - ilgari Asadulla bilan yaqin birodar bo'lgan, so'ngroq esa Turkiston taqdiri xususida fikriy ayrilik tufayli sal uzoqlashgan do'sti Miroboddagi uyiga xayrlashgani kelgan edi.

- Sizni safardan aynitish niyatim yo'q, - degan edi u. - Faqat iltimosim bor: ruslarning sharqqa doir siyosatini to'g'ri anglab, Afg'on amiriga to'g'ri talqin etib bering. Turkistonni mustaqil emas, muxtoriyat holiga keltirgan ruslarning mamlakatni o'zlari boshqarayotganlarini amir bilishi kerak. Komissarlar nima uchun Turkiston nomidan o'zlari kabini emas, o'zbekni yuborayotganlarini o'zingiz anglang-u, ularga ham anglatib. Biz ularga ishonib, chuv tushib yotibmiz, ular aldanishmasin. Dumaga bo'lgan saylovlarni unutmang. Ruslar bizning emas, "Ulamo"ning aylanmog'idan manfaatdor bo'ldilarmi? Ular bizdan qo'rqishdi. Chunki biz ahvoli olamdan boxabar edik. Bizda siyosat yurita olish ilmi bor edi. O'rus lisonida bahslashib ularga bas kela olar edik. "Ulamo"da esa bundaylar yo'qligini ular durust fahmladilar. O'ruslarga dumada shunday omi odamlar kerak edi. Toki ishlarni o'zlari yuritsinlarda va oqibat desinlarki: "Qarang, yerli millat davlat yuritmakni bilmaydigan aqli qosirdirlar"... Siz shularni amirga anglatishning evini qila olasizmi?

O'sha kuni Asadulla bir oz e'tiroz bildirmoqni ixtiyor qilgan bo'lsa-da, o'zini tiygan edi. Xmarin bilan Ushinskiyning suhbatidan keyin o'sha gaplarni eslab, "Bahslashmay to'g'ri qilgan ekanman", deb qo'ydi.

"Shu topga qadar Afg'oniston amiri bilan baqamti suhbat qurish imkoni tug'ilgani yo'q. Balki bugun erkin so'zlasha olar. Bular aslida shundan bezovta. Men-chi? Men qorimning aytganlarini bajara olamanmi? "O'rusiya bilan oshna bo'lavering-u, biroq, yoningizdagi oyboltani qo'ymang", deya olamanmi?"

Asadullaning bu xayoli chaqmoq umri misol edi. Ortiq o'ylashga fursati yo'q. Shu bois ish vaziyatga ko'ra bo'lar, degan qarorga keldi-da, yo'lga chiqdi.

Bog'i Fag'monda uni Mahmud Tarzi kutib oldi.

- Amir sohib huzuriga mehmonlar tashrif buyurishgan, sabr qilmoqqa majbursiz.

- Nailoj, - Asadulla shunday deb jilmaydi. - Barcha eshiklarning kaliti - sabr, deydilar.

- Biz bo'lakcharoq naql qilamiz: toqatlig'a tog'lar egar boshini... - Tarzi shunday deb uni bahavo yerga qo'ndirilgan, xarrotlar san'atidan chiroy ochgan shiyponga boshladi.

- Sabr-toqat yaxshi xislat, ammo odam bolasi buning chegarasini bilmaydi. Zulmga ham toqat qila beradi, nohaqlikka ham... Oqibat abgor bo'lganini sezmay qoladi. Sabr-toqat kurash darbozalarini qulflab qo'yadigan kalit.

- Gaplaringiz bama'ni, Asadulla Mira'lam, mehmonlar bahona siz bilan bafurja suhbat qurish imkoni tug'ildi.

- Darvoqe... mehmonlar... Turkistonliklar emasmi?

- Topdingiz, o'shalar.

- Amir ular bilan muzokara yuritmaydi, deb edingiz?

- Muzokara emas bu, Qodir og'a hazratning so'zi yerda qolmasligi kerak. Faqat sizlar bilan chin muzokara yuritishimizga inoningu boshqasini surishtirmang. Amirning umidlari ko'krak sutiday toza. U fuqaroni saodati abadiyatga eltmoqchi, avomni johillik uyqusidan uyg'otmoqchi, hatto ayollar uchun "maktabi masturat" ochmoqchi. Dorul Omon deyilmish yangi poytaxt bino qilmoqchi. O'rusiya bilan do'st bo'lib, Ovruponing bo'lak davlatlariga-da yetmoqchi. Bu niyatlarga yetishmoq uchun ulamolarga emas, hukumatga suyanish lozimligiga uning-da farosati yetadi. Turkiston ulamolari nimayu Afg'oniston ulamolari nima? Bilmaysizmi? G'aflat ular, g'aflat... Yurtga qorong'ilik urug'ini sochib, zulmat mevasini ko'paytiradilar. O, avom ilmga qanchalar tashna, bular ilmga qanchalar g'anim! Kalomullo "Ilm oling, o'qung" degani holda, bular "ko'zni yumung" deb avraydilar. Men umrimni ma'rifatga sarf etganimga achinmayman, zinhor, men johillar ko'zini ocholmayotganimgan nadomat chekaman.

- Bundaylar Turkiston elida ham bisyor.

- Mamatsharif aytar edi. Yozug'imiz bir bizning.

- Payg'ambar afandimiz: "Olim bo'l yoki ilm talab qiluvchi, yoxud ilmni eshituvchi bo'l, hech biri qo'lingdan kelmasa shularga muhabbat qiluvchi bo'l, beshinchisini tanlama, u holda seni halokat kutadi", deganlar. Bizda ana shu "beshinchi"lar me'yordan oshgan.

- Beshikdan to qabrga qadar ilm o'rganmagan inson bolasi ne uchun tug'ilib, ne uchun yashaganini fahmlamay ketadi bu dunyodan. Insonlar hayvonlardan so'z va aql ila ayrilmish. Insonning yozug'i faqat tug'ilish, osh oshalashu o'lim bo'lsa, hayvonlardan ayirmas edi.

- Ma'rifat ahli Turkiston yoshlarini ilmga tortmoq maqsadida ko'p xayrli ishlar qildi. Dorilfunun ochdi. Yangi usul maktablari ko'paydi. Millatning saodati, davlatning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liq. Afg'onistonda ham shunday maktablarni ko'paytirish lozimmikin?

- Ha, fikrimiz shu. Yoshlarni Farangistonga yubormoqni lozim ko'rduk. Vaqtiki kelib sizning-da dorilfununingizga yubormog'imiz mumkin.

- Ovrupoga yuborajagingiz ko'p ibratli ish. Bu kunda ulardan o'rganmoq joiz. Madaniy millatlar muhoriбалardan o'zni tiyib, tijorat va sanoatda raqobat qilmoqdalar. Sehr va jodu bilan emas, tijorat va sanoatgarlik ila cholishqon Ovrupo Afriqo va Osiyoni o'ziga asir va musaxxarl qilmoqda. Ular bir dona bug'doy ekub, yigirma qadoq don olurlar, o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturib, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar. Osiyoliklar dumba sotib - chandir chaynab, qaymoq berub - sut oshab, non o'rniga kesak tishlab yurdilar, bag'oyat uzoq yurdilar. Endi bular barham topqusi...

Mahmudbek Tarzi Asadullaning fikrini ma'qullab, uni savolga tutib, hayoti bilan qiziq boshladi. Asadulla qisqa-qisqa javoblar bilan kifoyalanib, Bokuga borgani, Mamatsharif bilan ilk dafa o'sha yerda uchrashgani, qaytib Toshkentda teatr tashkil qilganini aytganda, Tarzi hayajonga tushdi:



- Teatru dedingizmi? Farangistonda ko'rib orzu qilib edim, - dedi u. - Nahot Toshkandda bo'lsa shunday ajoyibot?

- Ha, bor.

- Ajab! Ajab! Umidim yulduzi Turkiston osmonida charaqlagan ekan, muborak bo'lg'ay. Kobulda ham shunday teatru ochgumizdur albatta.

Ularning suhbatlari peshinga qadar, hojib kelib, amir muntazir ekanini aytguncha cho'zildi.

Amir ularni kechagi joyda emas, unga baqamti qurilgan, kattaroq qasrda kutar edi. Keng xonaga dasturxon tuzalgan, to'ra amir, so'l tomonida Qodir og'a hazrat va uning qatorida turkistonlik mehmonlar o'tirar, o'ng tomon esa bo'sh edi. Tarzi bilan Asadulla shu yoqqa o'tirishdi.

- Taom mahtal bo'lmasin, - dedi amir.

Asadulla Mirkomilboyning ro'parasida o'tirar, vaqti-vaqti bilan beixtiyor ko'z-ko'zga tushar edi. Asadulla boshqalarni tanimadi, ammo kiyinishlaridan farg'onalik ekanliklari ma'lum edi. Xauston ular orasida yo'q edi. "Ayyorlikda shaytonga dars bersa kerak", deb qo'ydi u o'zicha. Asadullaning qo'li tovoqqa beixtiyor borib kelardi. Taomga hech ishtahasi yo'q, xayoli shu xonada bo'lib o'tgan suhbatda: "Nimani gaplashdilar, amirdan nimani so'radilar, amir nimalarni va'da qildi?"

Mirkomilboy ham taomga befarq, uning xayoli Asadullada edi: "Joni temirdan ekan buning. Shuncha o'tdan tirik chiqibdi-ya! Endi amir huzurida, amirning o'ng tomonida osh oshalasa. Amirning shu ishi chakki bo'ldi. Ularning meni ko'rmaganlari ma'qul edi. Endi Toshkentga qaytuvim mushkullashadi. Unda ularni chalg'itib yo'lga chiqqanim nima bo'ldi-yu, bunda bular bilan uchrashganim nima bo'ldi?.."

Amir taomni shoshilib yegani bilan dam o'ng, dam so'l tomoniga qarab-qarab-qarab qo'yardi. Ularning ichida o'tayotgan gaplarni aniq bilmasa ham faraz qilardi. "Qaysi millat orasida birlik ko'tarilib, nifoq va adovat hukm surgan bo'lsa, ul qavmning inqiroz dunyosiga yuzlangani aniqdir. Bular shuni fahmlamaydilar?"

Mahmudbek Tarzi ham mehmonlarga qarab, o'zicha fikr qilardi: "Dildagi adovat temirdagi zangga o'xshaydi. Zang temirni yegani kabi, adovat Vatanni azobga soladi. Odamlar nahot adovatdan chekina olmasalar?.."

Omonulloxon bilan Mahmud Tarzi bu damdagi ahvolni o'z qarichlari bilan o'lchar edilar.

Taom pallasi shunday o'y-xayollar bilan o'tdi. Amir mehmonlarning imillab o'tirishlariga ko'p toqat qilolmadi. Qodir og'a hazratga qarab, fohitaga qo'l ochdi.

Ulamolar bilan qasr ostonasida xayrlashib, Asadullani shiyponga boshladi.

- Adovatingiz behad ekan, fahmladim, - dedi amir. - Bu hol menga ajab tuyuldi. Sababki, ularning niyati-da durust.

- Amir sohib, johilning yaxshi niyati fozilning husumatidan zararliroqdir.

- Ularni johil deysizmi?

- Johilgina emas, ular xiyonatkorlar... Sadafdan inju, ilondan zahar hosil bo'lgani kabi, fidoyilikdan vatan sadoqati, xiyonatdan bebaxtlik zuhur bo'lur.

- Ular xiyonatda sizlarni aybladilar.

Asadulla bosh chayqab, zaharxanda bilan dedi:

- Betahorat benamozni bo'yniga qo'yar ekan... Ular Turkistonni Inglistonga sotganlarini aytmadilarmi?

- Sotganlarini?

- Ha, amir sohib, sotib edilar. Isyon qildilar, begunoh qonlar to'kildi.

- Alhazar!

- Ular hokimiyatni olmasdan taxt talashadilar. Ingliston islomga homiy bo'lsa Afg'onistonga tig' ko'tararmidi?

Amir bu gaplardan o'ylanib qoldi. Tarzi Asadullaning dono fikrlaridan mamnun bo'lib, suhbatga aralashmay o'tirdi.

- Muhorida Ingliston hindlarga, barak bazaylarga-da yarog' berib, bizni mahv etmoqqa yo'llab edi, - dedi amir. - Unda o'zbeklar o'zbeklarni mahv qilabera... Vodarig'o!..

- Mol va ashyo o'g'irlaridan ko'ra odamlar orasida do'stlik, ulfat, muhabbat, oqibat, qadri o'g'irlyadurgon odamlardan saqlanmoqni ma'qul ko'ramiz biz. Tomchi sel bo'lolmaganidek, bular yurt og'asi bo'lolmaydi. Fuqaro ularga ergashmaydi, egri tayoqqa suyanmaydi. Bugungi sho'rishlar o'tadi-ketadi.

Amir kutilmaganda suhbat mavzuini burib yubordi. Ob-havodan gapirdi. Asadullaning yo'l taassurotlari bilan qiziqdi. Asadulla shundan bildiki, amirning bugungi chorlovidan niyati suhbatlashish emas, balki ulamo vakolasi bilan yuzlashtirish. Lekin ana shu yuzlashtirishdan maqsadi nima? Asadullaga bu qorong'i edi. Amirning amalga oshmagan kichik hiylasi, ya'nikim, adovatdagi ikki odam yuzlashgan chog'ida hech bo'lmasa biri yoriladi, bir-biriga ta'na toshlari otillajak chog'ida haqiqat suv yuzasiga qalqib chiqadi, degan umidi hatto Tarzi uchun ham sir bo'lib qolaverdi.

3

Amir Omonulloxon go'yo vakola hay'atini unutib qo'yganday edi. Navbatdagi chorlovdan anchagacha darak bo'lmadi. Mahmud Tarzi haftada bir kelib, gurung qilib ketadi. Vakolaning savoliga: "Amir o'ylayapti", deb qisqa javob berishdan nariga o'tmaydi. Bu orada sunbula tug'di, suvlar tinib, havo salqinlashib, kuzning nafasi sezilib qoldi.

- Yozning jazirasida kelgan edik, endi qishning sovug'ida qaytamiz shekilli? - deb nolib qoldi Ushinskiy. - Nimaga keldigu nima qildik bu yerda. Amirning bitta savoliga javob berib qaytaveramizmi?

- Sizning o'sha bitta javobingiz hammasidan zo'r bo'ldi, - dedi Shuvalov. - Sizdan kutmagan edim.

- Bilaman, siz mendan faqat yomonlik kutgansiz. Lekin sizdan xafa emasman. Kasbingiz shunaqa.

- Janoblari, diqqat, Mirza Qandilxon kelyapti, - dedi Xmarin ularning suhbatini bo'lib. - Garov o'ynayman, xushxabar aytadi: qadam olishi chaqqon.

Chindan ham Mirza Qandilxon kelib, amir hazrat yo'qlayotganini bildirdi.

Omonulloxon bu safar ham ularni o'sha oynaband qasrda kutib oldi. Uning ko'rinishi ilgarigiday jiddiy emas, aksincha, nimadandir xursand ko'rinardi.

- Kobul kuzga bandi bo'lyapti, - dedi u mehmonlarga bir-bir qarab chiqib. - Lekin kuzda bahor nafasi ufuryapti, sezyapsizmi?

Sababi qaldirg'och kelgan, - amir o'zining tashbihidan huzurlanib, yayrab jilmaydi. - Qaldirg'och deganim - sizlarsiz. Saltanatim umri bahoriga yuz tutgan. Qaldirg'och bahor darakchisi... Alqissa, sizlarni qarorimizdan ogoh etmoq maqsadida chorladim.

Ahdimiz shunday: Afg'oniston Sho'ravi Rusi ila muzokara boshlashga rozi. Muxtor vakil yetib kelgunga qadar siz, janobning, - amir Xmaringa yuzlandi, - Kobulda qolishingiz ayni muddao. Ayrim muammolarni hal qilishga zudlik bilan kirishmog'imiz lozim.

Shuning barobarinda Hirotda ham saforatxona ochib, siz, janobning, - amir Asadullaga yuzlandi, - o'sha yerda ish yuritmog'ingiz joiz. Muxtor vakil yetib kelgach, Mazori Sharif ila Maymanada ham saforatxona ochgumiz.

Amirning kutilmagan bu gaplaridan barchalari hayratda edilar. Bu onda faqat Xmaringina tezda o'zini qo'lga oldi.

- Rossiya hukumati nomidan shuni ma'lum etamanki, - dedi u, - Afg'oniston hukumati Rossiyaning istagan shaharida saforatxona ochib, ish yuritmog'i mumkin. Bu borada cheklanish yo'qdur.

- Sho'ravi Rusi bizga yana nimalarni va'da qila oladi?

- Rossiya hukumati Afg'onistonga moddiy yordam bermoqqa tayyor.

- Qancha?

- Bu maxsus muzokara talab etadi, amir hazrat. Tijorat ishlari yo'lga qo'yilsa, avvalgidan ko'proq mol olib ko'proq sotib oladi.

Mendagi dalillarga qaraganda jahon muhoribasiga qadar Rossiya Afg'on eliga sotgan molning sakson besh foizi gazlama, olti foizi qand, ikki foizi shisha va chinni buyum, so'ng ipak, temir jihozlar, yermoy, gugurt bo'lgan. Afg'onistondan sotib olingan mollarning yigirma to'rt foizi paxta, o'n yetti foizi jun, o'n ikki foizi qo'y... bo'lgan. Kunjut urug'i, pista, uzum, gilam, xom terilar ham xarid qilingan.

Omonulloxon: "Nechun bulardan biz bexabarmiz?" degan ma'noda Tarziga norozi qiyofada bir qarab oldi-da, Xmarin bilan boshlagan suhbatini davom ettirdi:

- Sho'ravi Rusi bularni oshirishga qodirmi?

- Shak-shubhasiz.

- Sho'ravi Rusi mollarni olib kelishda yo'l chiqimidan bizlarni holi qila oladimi?

- Bu ham alohida muzokara talab etadi. Yanglishmasam, Afg'oniston Ovruponing bo'lak davlatlari bilan ham birodarlik aloqalari o'rnatib, tijorat ishlarini-da yo'lga qo'yar. U holda, mollar Rossiya temir yo'llari orqali yetkazilar? Bu xususda ayni shu damda aniq javob berolmasam-da, Afg'oniston mushkulining yengil bo'lishiga ishonchim bor. Shuningdek, Rossiya hukumati Afg'onistonning ichki ishlariga aralashmaydi, bo'lak davlatlar ila Afg'oniston sha'niga, osoyishtaligiga qarshi sulh tuzmaydi.

- Bizim yana bir istagimiz bor: biz inglistonning g'arazli yordamlaridan voz kechib, Sho'ravi Rusi tomon yuz tutdik. Hamonki Sho'ravi Rusi pok niyat ila bizga ko'mak bermakchi ekan, afg'on eliga unumli yerlarni qaytarib oladimi? Jayhun nahrining ul qirg'og'ini Afg'onistonga bermog'i mumkinmi? Qal'alar Afg'oniston xavfsizligi uchun g'oyat zarur. Shuningdek, Kobulda radiostansa tiklab, havo tilgiromini mukammal suratdagi ashyolari ila bera oladimi? Bu mavjud bo'lmasa, Ko'shkdan Kobulga qadar simli tilgirom tortilsa-chi?

Bu gapni eshitib, Asadulla: "Qodir og'a hazratning tazyiqi bari bir o'tibdi-da. Xmarin in'om etib yubormasa edi", deb xavotirlandi. Yo'q, Xmarin shu qadar nozik ta'b bilan javob qildiki, bunga hatto amir ham tan berdi.

- Afg'on eli muhoribada ulug' zahmatlar chekdi. Yurtga ozor yetdi. Buni o'zimiz ham ko'rduk. Buyuk Afg'onistonga beminat ko'mak zarur. Anglab turibmiz. Biroq bizga bunday muammolarni hukm qilmoqqa huquq berilmagan. Talabingizni hukumatga yetkazgum, bu xususda ham maxsus muzokara yurgizilsa ajab emas. Bu talabning rad yoki qabuli markazning hukmiga vobastadir. Radiostantsiya va telegraf xususida iltimosingiz qondirilishi muqarrarligiga aminman.

- Yaqin orada Ingliston ila qayta muzokara boshlangusi. Men siz janobni bu muzokarada ishtirok etmog'ingizni istar edim.

- Minnadorman, amir sohib.

Amir jilmayib Tarziga, Tarzi ostonada turgan hojibga im qoqdi. To'rt xizmatkor qo'lida narsalar bilan kirib, ta'zim qildi.

- Sizlarning tashriflaringizdan bisyor shodman, - dedi amir va birinchi xizmatkor qo'lidagi qutichani ochib, zanjirli tilla soatni oldi.

- Xayrbod onidan yodgorlik bo'lsin. - Shunday deb, soatni Xmaringa uzatdi. Xmarin, sovg'ani olib, yengil ta'zim bilan minnatdorlik izhor qildi. Amir xuddi shunday soatni Asadullaga ham uzatdi. Mahmud Tarzi esa uning yelkasiga zar chopon yopdi.

Amir xizmatkor qo'lidagi qalin kitobni olib, varaqladi:

- Mirzo Boburning devoni. Shohning barmoqlari tekkan tabarruk kitob. Sizga yo'ldosh bo'lsin, - amir kitobni ikki qo'llab uzatdi.

- Yurtingiz yovlariga qiron kelsin, - amir shunday deb Shuvalovga kumush bezakli qilich tutdi. - Siza yana bir chavkar-da atalgan.

Ushinskiyga ham soat in'om etilgach, boshqa xonaga yo'l oldilar.

Xayrbod ziyofat ila yakunlanib, ular yaxshi kayfiyat bilan qarorgohlariga qaytdilar.

Ertasiga Rossiya Ijtimoiy Sho'rolar jumhuriyati saforatxonasi uchun ajratilgan bir qavatli binoga Xmarinni ko'chirib bordilar. Yana bir kundan so'ng Xmarin ular bilan xayrlashdi.

- Siz bilan birga uzoq ishlashni xohlar edim, - dedi Xmarin Asadullaga. - Uch yarim oy birga bo'ldigu nazarimda, uch yarim asrdan beri sizni biladigandayman. Siz Bog'i Boburda to'g'ri aytgan edingiz: men Rossiya istiqboli uchun jonimni tikkanman. Agar Vatanimga qaytish nasib etmasa, sizdan iltimos, Rossiya tomonlarga o'tsangiz, tuprog'iga men uchun ta'zim qilib qo'ying.

## Xotima

Yigirma olti kunlik bexatar yo'l Hirotda olib keldi. Hirotda volisi ularni xushxabar bilan qarshiladi. Ko'shkdan kelgan darakka qaraganda Orenburg yo'li ochilib, Muhammad Valixon Moskvaga yetib borgan, Moskva vakolasi esa Toshkentga beshikast kelib, Hirotda sari o'tlanmoqchi ekan. Noib saforatxona uchun Chahorbog' atalmish hukumat o'rdasi yonidan bir saroycha tayin qilib qo'ygan ekan, shu yerga tushishdi.

Shuvalov, Ushinskiy va Kobuldan birga qaytayotgan qizil askarlar bu saroychada bir kungina qo'noq bo'lishdi. Saharda to'rt askarni qoldirib, yo'lga o'tlanishdi.

Ming-minglab odamara Shuvalov bilan Asadulla g'oyibona ip bilan qattiq ulangan edi. Bu ishining uzilish oni yetdimi? Ajab...

Hayotda yuzlab odamlar bilan tanishasan, aksari chin do'stday tuyuladi, ammo ko'p vaqt o'tmay biron-bir sabab bilan chetga chiqadi. Chin do'st topganingda, u bilan umrning adog'igacha qolmoqchi bo'lganingda umiding rishtasi shart uziladi-yu, undan ajrab qolganingdan so'ng boshingni qaysi toshlarga urishni bilmay qolasan.

Asadulla do'stga yetishdim, deganda ham jisman, ham ma'nan ayriliqqa ko'p duch kelgan. Ana endi Hirotda Shuvalov uni yana bir ayriliq gulxaniga tashlab ketyapti.

Xayrlashuv mahalida ortiqcha so'zlar aytilmadi.

- Amirning gapi esingizdami, bizni qaldirg'ochga o'xshatdi, - dedi Shuvalov. - Qaldirg'ochning qismatida bahorning shiddatli

shamollari, momaqaldiroqlarini ko'rish bor. Biz bo'ronlardan omon chiqib, bahorning chiroyidan ham bahramand bo'lishimiz kerak.

Asadulla Hirotda qolganidan beri tundagi yolg'izlik azoblaridan qutula olmaydi. G'ulomqodirning o'limga bunchalik talpinish sababini shunda aniq bildi. Dam-badam uni eslab, hayotning shafqatsizligidan fig'on chekdi. Yoshlik bilan gul chiroyini bir-biriga o'xshatadilar. Ne dodki, ularning umri ham o'xshash - qisqa. Gul tez so'liydi, chiroyini yo'qotadi, yoshlik esa ko'z ochib yumguncha o'tadi-ketadi. Biroq, shu qisqa davrning bema'rid uzilishi eng katta nohaqlik ekanini G'ulomqodirning o'limi isbotladi. Ilgari faqat xotini, bolalari tunning mehmonlari bo'lishsa, endi G'ulomqodir, ba'zida Zikriyo afandi keladi. Go'yo ular bu dunyodagi armonlari, fig'onlari, alamlarini Asadullaga meros qoldirganday. Asadulla oqshom tushishini yuragi bezillab qarshi oladigan bo'lib qoldi. Chunki oqshom - qorong'ilik elchisi: qorong'ilik esa yolg'izlik boshlanganidan darak beradi. U kunni, nainki kunni, oylarni, yillarni orqaga surgisi, hammasini bir boshdan boshlagisi keladi. Buning imkoni yo'qligidan ezildi. Umr o'q, nishon esa o'lim, o'q iziga qaytmaganidek, vaqt sanoqli, qo'ldan ketgan baxt ham qaytmaydi. Yolg'izligi boshlanishi bilan ko'z o'ngida hammayoq xira tortadi. Atrofdan nido yo'q. Faqat tor ko'krigidagi bandi yuragi behalovat tepadi. Ko'krak qafasini sindirib qochib ketishni, bu vujudni tark etgisi keladi.

Armonlar tugamay kunduz tugaydi. Ruhi titilib ketadi. Hammaga orom bera oladigan tun uni chetlab o'tadi. Orom ko'zlariga kela qolsa, tunning nafasi kipriklarini yuma qolsa bo'lmaydimi? Uyqu kela qolsa, halovat tushlarini bera qolsa bo'lmaydimi? Bu holda subhidamgacha qanday chidaydi?

Har tun ahvol shu. Yaxshi hamki, kunduz bor. Yaxshi hamki, yumush bilan band...

Vujudi parokanda bo'lib yurganida Hirotda Mamatsharif keldi. Toshkent nafasini, do'stlar salomini ola keldi. Asadulla uni quchoqlab, qo'yib yuborsa shu onning o'zida qochib ketadiganday anchagacha bag'ridan bo'shatmadi. Mamatsharif uning ahvol-ruhiyasini bilib, yelkalarini beozor siladi.

- Yuragimda og'ir tosh bilan qaytyapman, - dedi u. - Tuz haqqini o'taganimdan so'ng birga qaytamiz yurtga...

Asadullaning baxtiga ular Hirotda ikki kecha-kunduz qoldilar.

Umrini yashab bo'lgan yaproqlarga xazin nuqsi urilgan oftobsiz, rangpar kunda xayrlashdilar.

Asadulla noib lutfi bilan berilgan foytunda Mamatsharif bilan suhbat qurib, Hirotdan picha uzoqlashganini sezmay qoldi.

Foytunchi yigitning: "Yuraveramizmi, sohib?" degan savolidan keyin xayrlashdilar.

Foytun qaytishda ildamladi.

Tosh yo'lda foytun bir narsaga urildimi yo tepadan katta tosh tushdimi, yo g'ildirak chiqib ketdimi, Asadulla bilmay qoldi.

Avvaliga foytunchi yigit baqirib yubordi, so'ng hammasi ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Asadulla, nazarida, qattiq yerga yiqilmay, bulut ustiga tushganday, suzib yurganday edi.

Osmonni o'rkach-o'rkach, hoshiyalari qoramtir, bukri bulutlar egallab olgan. Bir o'rkachda u o'tiribdi. Birda xotini, bolalari...

- Ehtiyot bo'ling, tushib ketmang, - deydi xotini.

U o'sha o'rkachga o'tmoqchi bo'ladi. Oyoq ostiga qarasa - tubsizlik.

- To'xtang, dadasi, to'xtang, - deydi xotini. - Biz o'zimiz o'tamiz. Biz tushib ketmaymiz, uchib yuramiz.

- Dada, qarang, qaldirg'ochlar kelibdi, - deydi katta o'g'li quvonib.

Qaldirg'ochlar, dumi ayri, beozor qushlar bulut bag'ridan o'qday otilib chiqib, charx uradi, vijir-vijir qiladi.

Qaldirg'och osoyishta xonadonga in qo'yadi, deydi. Haq gap. Ularning xonadoni osoyishta ei. Uyini yondirishdi, qaldirg'ochni qo'shib yondirishdi-ya! Yo'q, qaldirg'ochlar uchib ketib jon saqlashgandir, boshqa osoyishta xonadonga uy qurib olishgandir...

Uning xotini, bolalari ucholmagan...

- To'xtanglar, yiqilib tushasizlar! - deb baqirdi Asadulla.

Ular eshitishmay, yura boshladilar.

Asadulla jonholatda ular tomon yurdi. Bulut o'rkachidan tushib ketdi.

Yuragi shuvillab, tubsizlik chohiga qulayotganda, qaldirg'ochlar uni ushlab qolib, yana yuqoriga ko'tarishdi.

Bulutlar ustida endi hech kim yo'q edi.

Bulutlar tepasida quyosh beg'ubor nur sochardi.

Qaldirg'ochlar quyosh otashidan qo'rqmay tobora yuksakroq uchardilar...

1985

Bir-ikki so'z

Alhamdulillahkim, nihoyat, so'nggi nuqta qo'yildi. Ko'p yillar davomida men bilan birga bo'lgan, izlab topganim, eshitganim - voqealar, taqdirar... qog'ozga tushdi. Yelkamdagi og'ir tog' quladi-yu, vujudim bo'shab qolganday bo'ldi. Odatda, yozuvchi asarga xotima yozib, izohlar bermaydi. Ammo bu asarni yozish uchun qo'lga qalam olishim sabablarini aytib o'tishim lozim.

1978 yil edi. Atoqli siyosiy arbob, ma'rifatparvar, o'zbek teatrining asoschilaridan biri Abdulla Avloniy tavalludining 100 yilligi arafasida "Guliston" jurnalida xizmat qilar edim. Bosh muharrir o'rinbosari Vahob Ro'zimatov menga bir surat ko'rsatib:

"Afg'onistonga borgan birinchi elchilar delegatsiyasi. Bu odam Abdulla Avloniy. Mana bu ayol "Hayotbaxsh o'lim"dagi komissar ayolning prototipi Larisa Reysner degan taxmin bor. Shuni aniqlash kerak", dedilar. Abdulla Avloniyning o'ylariga bordim. Qizlari - Toshkent pedagogika institutining dotsenti Hakima Avloniy, injener-irrigator, fan kandidati Karima Avloniy, o'g'illari, kimyogar olim Kenja Avloniy, shogirdlari jumhuriyatda xizmat ko'rsatgan muallim Mirjalil ota Karimov bilan uchrashdim. Shu masalalarni aniqlash uchun Moskvaga otlanganimda dadam Malik Hobil o'g'illari maqsadimni bilib: "Avloniy bizni o'qitganlar", deb qoldilar. O'rta Osiyo millatlari harbiy maktabi bitiruvchilarining suratini qo'lga oldik. Bolalik chog'larimda yuz martalab tomosha qilgan suratda tanish chehrani ko'rdim. So'ng tog'am - Mirzakalon Ismoiliga niyatimni aytdim. "Avloniyymi? Bizni o'qitganlar u kishi..." Qarangki, menga faoliyati noma'lum bo'lgan odam oilamiz kattalariga ustozlik qilgan ekanlar. O'sha suhbatda tog'am o'zbek ziyolilarining taqdirini yozish kerak, deb qoldilar. Bu istak yuragimga cho'g' soldi.

Kutubxonalaridagi, SSSR tashqi ishlar vazirligining noyob hujjatxonalaridagi izlanishlar ortda qolib, shu asar vujudga keldi. Asar garchi Abdulla Avloniyga bag'ishlangan, unga sho'irning hayotidagi ko'p voqealar kirgan bo'lsa-da, u Avloniy tarjimai holi sifatida bitilmadi. Kamina Asadulla Mir'alam siymosida o'zbek ziyolilarining eng yaxshi fazilatlarini jamlashga, shuningdek, o'ktabr to'ntarishidan keyingi adashishlarini bayon etishga harakat qildim. Bolsheviklar o'zbek ziyolilari va shariat peshvolari orasidagi ixtilofdan ustalik bilan foydalanganlar. Ularni ayri-ayri sohillarga tashlab, so'ng birma bir qirib yuborganlar. Tarixning bu mash'um sahifalari bugungi avlod uchun ibrat bo'lmog'i lozim.

This is not registered version of TotalDocConverter

Mazkur asar to'g'risidagi veb-saytimizni saqlashda, UZ davlat boshlaridagi o'zbek ziyolilarining murakkab va fojiali taqdirlarini tasvirlashda dastlabki qadamdir. Uni shogirdning ustozlarga ta'zimi, minnatdorligi sifatida baholashlaringizni istar edim. O'qiganingiz bu asarda Alisher Navoiy, Mirzo Bedil, Mirzo Bobur, Rabindranat Taxur she'rlari qatorida Abdulla Avloniyning she'rlari, hikmatlari, xotiralaridan ham foydalandim. So'zim oxirida muhtaram o'quvchiga men bilan birgalikda yaqin o'tmishga safar qilganlari uchun rahmatlar aytaman. Muallif.

AvvalgiII- qismB Keyingi